2. N.N.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: TDPU. 2003.
3. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.-“O'zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1992. № 7-8.
4. Gaffarov YA, Gafforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996
5. <http://www.eduportal.uz> –O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi axborot ta'lim portali.
6. Yigitaliyeva, S., & Yo'ldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 41-44.
7. Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarini o'rgatishning lingvistik konseptual asoslari. *Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali*.
8. Орипова, К. Э. ЎХШАТИШЛАР ИШТИРОКИДАГИ БАДИИЙ МАТНЛАРДА АНТОНИМЛАР МАДАНИЙ ОМИЛ СИФАТИДА. *МУ АЛЛИМ СЕЎМ ЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ*<sup>2</sup>, 52.
9. Oripova, K. (2023). ANTONYMS AS A CULTURAL FACTOR IN ARTISTIC TEXTS INVOLVING SIMILE. *GOSPODARKA I INNOWACJE*.
10. Oripova, K. (2022). INGLIZ TILIDAGI ANTONIMLARNING BADIY MATNDAGI ROLI. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Oripova, K. (2022). TURLI TILLARDAGI ANTONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. *Scienceweb academic papers collection*.
12. Shahista, K., Shohida, I., & Saidaxon, M. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND GERMAN LANGUAGES. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(20), 46-49.
13. Shohida, I., & Shahista, K. (2023). CONCEPTUAL INFORMATION IN LANGUAGES ACTIVATING STRUCTURES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 12(03), 56-60.
14. Shohistakhon, H. (2022). INTERLINGUAL AND INTRALINGUAL INTERFERENCE. *Open Access Repository*, 8(11), 235-239

## MARKAZIY OSIYODA XIV-XVI ASR TIBBIYOTI RAVNOQI

*Chariyev Nuriddin Xushboqovich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.*

*Usmonaliyev Muhammadsodiq Shukrullo o'g'li*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
"2-son Davolash" fakulteti birinchi bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada XIV-XVI asrlar tibbiyoti, ilm-ma'rifati va obodonchilik ishlarining ravnoqi, Amir Temurning saltanat taxtiga chiqqandan keyin tibbiyot rivojlanishiga homiylik qilgan ishlari va temuriylar davrining mashhur tabib hamda hakimlari, shu davrning yirik tabiblardan Xisomiddin Ibrohim Kirmoniy, Mavlono Fayzulloh Tabriziy, Mansur ibn Muhammad va ularning tibbiyotni rivojlantirishdagi xizmatlari, "Temur tuzuklari", tabobatga bag'ishlangan asarlar sharhlari, dorishunos Hoji Ali Hasan Kirmoniyning ilmiy merosi, "Navoiy davri tabobati" nomli asarining sharhi va davolash usullari bayon etib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Tibbiyot, renessans, sayidlar, "Dor ush-shifo", hakimlar va tabiblar, ko'ragoniy, sterilizatsiya, Obi-Rahmat, xastalik azobi, odamiylik, salomatlik, "Shifohiya", "Ixlosiya", "Safohil", "Dor ush-shifoh", operatsiya, kasallik, o'lat.

**Abstract.** In the article, the balance of medicine, knowledge and development of the XIV-XVI centuries, Amir Temur's support for the development of medicine after his accession to the throne, and famous doctors and judges of the Timurid period, one of the great doctors of that time, Khisomiddin Ibrahim Kirmani, Maulana Faizullah Tabrizi, Mansur ibn Muhammad and their contributions to the development of medicine, "Tuzuklari Timur", reviews of works devoted to medicine, the scientific heritage of pharmacist Haji Ali Hasan Kirmani, reviews and treatment methods of the work "The Medicine of the Age of Navoi" are described.

**Key words:** Medicine, renaissance, sayyids, "Dor ush-shifa", judges and doctors, Koragoni, sterilization, Obi-Rahmat, suffering of illness, humanity, health, "Shifahiya", "Ikhlosiya", "Safahil", "Dor ush-shifoh", operation, illness, plague.

**Аннотация.** В статье рассмотрен знаний и развития медицины XIV-XVI веков, поддержка Амира Темура развитию медицины после его преход на престол, а также известные врачи и судьи периода Тимуридов, один из великих врачи того времени, Хисомиддин Ибрагим Кирмани, Мавлана Файзуллах Тебризи, Мансур ибн Мухаммад и их вклад в развитие медицины, «Уложение Темура», обзоры работы на посвященных медицине, научное наследие фармацевта Хаджи Али Хасана Кирмани, лечение и описаны методы работы «Медицина эпохи Навои».

**Ключевые слова:** Медицина, возрождение, сайиды, «Дор уш-шифа», судьи и врачи, Корагони, стерилизatsiya, Оби-Рахмат, страдания болезнями, гуманность, здоровье, «Шифахия», «Ихлосия», «Сафахиль», «Доруш-шифох», оперatsiya, болезнь, чума.

XIV-XVI asr sharq dunyosida yangi bir uyg'onish davri bo'lib, bu davr o'zining jahon madaniyati ravnoqiga qo'shgan ulkan hissasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa Amir Temur va temuriylar davri tibbiyot ilmi ravnoq etganligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Amir Temurning ulkan markazlashgan davlatda osoyishtalikni o'rnatganligi, zafarli yurishlari va olib borgan adolatli siyosati sababli, saltanati tarkibidagi shaharlarni obodonlashtirish, ilm-ma'rifat, hunar va kasb egalarining qadrini ko'tarish natijasida madaniyat taraqqiyoti yuksak pog'onaga ko'tarildi. Bu haqda manbalarda,- Amir Temurning saltanat taxtiga chiqqandan keyin, Sayidlarga izzat - ikrom ko'rsatib, imomlar, islom ulamolari, qozilar va ulug' shayhlarni hurmatini joyiga qo'yib, ularga e'tibor berganligini, har bir olim va fozil izzat, martaba va shuhratga sazovor bo'lgan.

Alisher Navoiyning so'zicha, Amir Temurning podsholik davridan e'tiboran turkiy adabiyot keng taraqqiy eta boshlaydi. Bu davrda madaniy hayotning kuchayish darajasi IX - XII asrlar orasidagi ilk musulmon renessansidan qolishmaydi.

Tarixiy ma'lumotlarda ta'kidlanishicha, O'rta Osiyoda temuriylar davridagi tibbiyot undan oldin o'tgan somoniylar va qoraxoniylar davridagi tibbiyotning to'g'ridan to'g'ri davomi emas. Somoniylar va qoraxoniylar bilan temuriylar o'rtasida butun bir asr vayronalik va turg'unlik yotadi. Ma'lumki, XII asr boshlarida mo'g'ul-tatar bosqinchilari O'rta Osiyoga bostirib kirib, ko'plab shaharlar va qishloqlarni yer bilan yakson qildilar, ekin maydonlarini toptadilar va barcha madaniy boyliklarni yo'q qildilar. Kasalxonalar, dorixonalar, kutubxonalar vayron bo'ldi. Ko'p tabiblar quvg'in qilindi va qatl etildi. Tibbiyot ham boshqa sohalar singari og'ir tushkunlikni boshidan kechira boshladi. Natijada xalqning turmush darajasi pasayib kasalliklar avj oldi. Bunday ayanchli hol yuz yildan ortiqroq davom etdi.

Amir Temur yurt obodonchiligi va aholi sog'ligiga alohida e'tibor bergan. Bu haqda "Temur tuzuklari"da shunday deyiladi: "Yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona (yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy; kambag'al yetim-yesirga ovqat beriladigan joy; g'aribxona) solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansinlar". Sohibqiron davrida har bir shaharda shifoxona bo'lgan, ularda bilimli va tajribali tabiblar ishlaganlar. Jumladan, Samarqandda "Dor ush-shifo" nomli yirik kasalxona bo'lib, unga o'z zamonasining taniqli tabibi Mir Sayyid Sharif Sheroziy (1330-1414-y.y.) rahbarlik qilgan. Bu tabib asli jurjonlik bo'lib, Amir Temurning taklifi bilan Samarqandga kelib, shu kasalxonaga boshchilik qilgan. Shu davrlar yirik tabiblardan Xisomiddin Ibrohim Kirmoniy, Mavlono Fayzulloh Tabriziy, Mansur ibn Muhammadlar yashab ijod etganlar. Tarixiy ma'lumotlarda ta'kidlanishicha, Mavlono Fayzulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan. U Sohibqironning barcha

safarlarida birga bo'lar edi. Amir Temur davrida tibbiyot fani shu qadar yuksak darajaga ko'tarilgan ediki, hatto o'lgan odamning jasadini balzamlash usulini ham bilganlar.

1941-yilning 18-iyunida hukumat komissiyasi tomonidan Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasida dafn etilgan Sohibqiron Amir Temur, Mironshox, Shohruh, Mirzo Ulug'bek, Muhammad Sulton va Bibixonim maqbarasidagi bibixonimning daxmalari ochilib ko'rilganda, ularning jasadi mumiyolangani aniqlangan. Amir Temur o'z zamonasidagi ijtimoiy guruhlarni o'n ikki toifaga bo'lgan. Shular ichida hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni sakkizinchi toifaga kiritgan. Ularni saltanat korxonasiga rivoj beruvchilar, deb atagan. Tabiblar haqida shunday deydi: "Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim"[1].

Shu o'rinda fransuz temurshunoslaridan professor Marsel Brionning "Menkim, sohibqiron jahongir Temur" kitobidan qisqacha parcha keltiramiz. "...vatanimga Xuroson orqali ketishga qaror qildim... Daraburjirdga yetgan chog'imiz qo'shinni to'xtatdim. Otlarga dam berish maqsadida ikki kun shu yerda turadigan bo'ldik. Birinchi kunning o'ziyoq bir necha jangchilarimiz kasallangani, boshlari og'rib, issiqlari baland ekanidan shikoyat qilishayotganini ma'lum qilishdi. Qo'shin tabibidan ular o'latga chalinishmadimikan, deb so'radim. Tabib kasallik sababini aniqlay olmaganini, biroq o'lat alomatlari ham kuzatilmaganini aytdi. Ikkinchi kuni kasallanganlar soni yana ko'paydi. Birinchi kun kasallanganlar qo'ltiqlari ostida va biqinlarida yong'oqdek shish paydo bo'lib, kuchli og'riq berayotganini bildirishibdi. Shundan keyingina tabib qat'iy bir qarorga keldi – bu o'lat edi. Tabibdan so'radim: "Bu kasallarni qanday davolasa bo'ladi?" U dedi: "Bu kasallikning davosi yo'q: ular endi yo o'ladilar, yoki o'z-o'zidan tuzalishadi!" Quyosh botib, kechki namozni o'qib, ...negadir o'zimni lohas his qila boshladim. Ko'p o'tmay vujudimda kuchli qaltirash va holsizlik boshlandi. Tabib menga "gavzabon" giyohidan damlama tayyorlab ichirdi. Yaxshi terlashim kerakligini aytdi. Biroq ko'p o'tmay og'riq juda zo'raydi... Tongga borib bosh og'rig'im va taftim shu qadar kuchayib ketdiki, hatto namoz o'qishga holim qolmadi. "...Hammaga javob berib, joyimga cho'zildim. Ertasi kuni qo'ltig'im ostida bez paydo bo'ldi. Uchinchi kuni u ko'kardi. Keyin jon talvasasiga tushdim. Issig'im shu darajada baland ediki, ...atrofimdagilarni tanimay qolgandim – qaerda ekanimni ham bilmasdim: Shu payt qulog'imga bir tovush chalindi: "Ochildi! Ochildi!" Ertasi kuni ko'zimni ochib, atrofimni o'rab turgan mamnun chehralarga ko'zim tushdi...Mening huzurimga bir cholni olib kelishdi. Uni "Dastur" deb tanishtirishdi. U otashparastlarning bosh qohini ekan. U olib kelgan asaliga ishora qildi: "Ey Amir, eshitdimki, og'ir kasalni yengib o'tibsan. Mana bu asaldan yesang, kuchga kirasan", deya u olib kelgan asaliga ishora qildi...Men bir necha kun o'sha asaldan yedim va haqiqatdan ham foydasi tegdi. ...Yo'lga chiqadigan kunimiz Dastur keldi. Dastur dedi: "Unday bo'lsa vataningga kirishdan oldin, askarlaringni yaxshilab tutunga to'yintir! U o'latning hidini o'ldiradi!" Men undan so'radim: "Bu qanday qilinadi?" Dastur javob qildi: "Yo'lda biror manzilda to'xtanglar. Keyin o'sha uylarga odamlaringni kiritib, ost qismida ho'l o'tinni

yoqasan. O'tin yonmasin, balki tutasin. Odamlaring o'n kun davomida, har kuni bir soatdan ana shu muolajani o'tashi kerak, o'shanda top-toza bo'lishadi. O'n kun mobaynida jangchilarimiz har kuni bir soatdan tutun yutdilar. Tadbir tugagan kuni Samarqandga qarab ot surdik. Shundan keyin yo'l bo'yi hech kim kasallikdan shikoyat qilmadi[2].

Bundan ko'rinadiki, Temur qo'shinlarida yarador va bemor jangchilarni davolovchi tabiblar bo'lgan. Amir Temur tabiblarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan va ularga hurmat bilan qaragan. Amir Temur aholi o'rtasida har xil kasalliklar paydo bo'lishi va tarqalishiga qarshi tadbirlarni ham amalga oshirgan. Buning uchun shaharlarni va boshqa aholi yashaydigan joylarni ozoda saqlash, xalqni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash choralarini amalga oshirgan. Suvni toza saqlash uchun usti yopiq suv quvurlari qurdirgan. Shaharlar o'rtasidagi yo'llarda sardobalar barpo ettirgan. Samarqandda va Toshkent yaqinidagi Shohruhiya shaharlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida shunday inshootlarni arxeologlar ko'p uchratganlar.

Bunday yuksalish, ayniqsa, Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay Ko'ragoniy) zamonasida ham davom etdi. Ulug'bek Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda o'nlab masjidlar, hammomlar, karvonsaroylar, yo'llar, shifoxonalar qurdirdi. Bularning ichida eng mashhuri 1424–1428-yillari Samarqand yaqinidagi Obi-Rahmat yoqasida qurilgan rasadxonadir. Fan va madaniyat homiysi bo'lgan Mirzo Ulug'bek tibbiyot ilmiga ham katta ahamiyat bergan. Samarqandda bir kasalxona qurdirib, unda ishlash uchun Eronning Kirmon shahridan mashhur tabib Burhonuddin Nafis ibn Avaz (ba'zi manbalarda Ivaz) Hakim al-Kirmoniyni taklif etgan. Bu tabib Ulug'bekning saroy tabibi vazifasini bajargan. U Samarqand kasalxonasida bemorlarni davolash bilan birga, tibbiyotga oid bir qancha asarlar ham yozgan. "Dori tayyorlash sa'nati" nomli kitobida muallif oddiy va murakkab dorilar retseptini tuzish, ularni tayyorlash va ishlatish usullarini bayon etgan.

Mirzo Ulug'bek davrida tabiblar o'rtasida mohir jarrohlar ham bo'lgan. Ulardan biri Tojiddin Hakim edi. Bu jarroh ancha murakkab operatsiyalarni ham qilgan. Masalan, ko'z kataraktasini jarrohlik yo'li bilan muvaffaqiyatli davolagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu tabib operatsiyadan oldin jarrohlik asboblarini o't (olov) ustida qizdirib olib, so'ng ishlatgan. Operatsiya vaqtida esa qo'lini tez-tez mayda qilib to'g'ralgan piyozga botirib olarkan. Ma'lumki, piyozda mikroblarni o'ldiruvchi fitotsidlar bo'ladi. O't ustida qizdirilgan asbob esa tamomila mikrobdan holi bo'ladi (sterilizatsiyalanadi). Bundan ma'lum bo'ladiki, Tojiddin Hakim yarani aynatuvchi jonzodlar mavjudligini bilgan va ularning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun yuqoridagi aytilgan chorani ko'rgan. Bu jihatdan, Tojiddin Hakimni O'rta Osiyoda antiseptika usulining asoschisi, desa bo'ladi.

Bu an'ana temuriylar sulolasining yana bir vakili – Husayn Boyqaro hukumronlik qilgan davrda ham davom etdi. Husayn Boyqaro saroyida bosh vazirlik lavozimini egallagan buyuk shoir va davlat arbobi – Alisher Navoiyning xizmatlari katta. Bu haqida sharqshunos olimlar Mahmud Hasaniy va Surayyo

Karimova muallifligida yozilgan “Navoiy davri tabobati” nomli asarda batafsil bayon etilgan. Navoiy o‘zi tabib bo‘lmasa ham o‘tmishdagi buyuk tabiblarning asarlarini sevib o‘qigan, ular haqida o‘z fikr va mulohazalarini bildirgan. Uning shaxsiy kutubxonasi Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy va boshqa tabiblarning kitoblari bo‘lgan. Navoiy Ibn Sinoga juda yuksak baho bergan. Uni aql-idrok va tafakkur ramzi, deb atagan. Navoiyning tabiblar va tibbiyot haqidagi fikrlari asosan uning mashhur asari “Mahbub ul-qulub”da bayon etilgan. Bu asarda Navoiy tibbiyot va tabiblar masalasiga maxsus bob (15-bobni) bag‘ishlagan [3].

Navoiyning ta’kidlashicha, tabib o‘z fanining mohir bilimdoni bo‘lishi kerak. U donishmandlar so‘ziga amal qilib, ularga ergashmog‘i lozim, muloyim so‘z va bemor ko‘nglini ko‘taruvchi, andishali, xushfe‘l bo‘lmog‘i kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, Navoiy tabiblar oldiga juda mas’uliyatli talablar qo‘ygan. Darhaqiqat, tabib o‘z kasbining mohir bilimdoni bo‘lishi kerak. Agar u o‘z kasbini yaxshi o‘zlashtirmagan bo‘lsa sayoz fikrli, tajribasiz tabib bo‘lsa, qanday qilib bemorning kasalini aniqlay oladi, kasallik aniqlay olmagan tabib, uni davolay oymaydi ham. Bunga Navoiy alohida e’tibor bergan. Navoiy tabiblar oldiga qo‘ygan talablardan ikkinchisi “bemorlarga rahm-shafqat bilan muomila qilish lozim”ligidir. Kishilar tabiblarga o‘zlarining eng bebaho boyliklari – hayotlarini ishonib topshirib qo‘yar ekanlar, demak ular ishonchni qadirlashlari, bemorlarga rahm-shafqat bilan muomala qilishlari, ularning hayotlari va salomatliklari haqida qayg‘urishlari zarur. Tibibning eng yuksak vazifasi – kishini xastalik azobidan xalos etishdir.

Navoiy salomatlik va tibbiyot haqida so‘z yuritar ekan, ichkilikbozlik kishi salomatligiga zararli ta’sir etishini ham ko‘rsatib o‘tadi. Masalan, u “muttasil ichish salomatlikni kemiradi” deb yozgan. Sharobni zaharga o‘xshatadi va “odamiylikni, salomatlikni yo‘qotish uchun qadah-qadah zahar ichish qanday qoida” deb xitob qiladi. Navoiy sog‘-salomat bo‘lishni istagan kishi har xil buzuq, yaramas ishlar qilmasligi, o‘zini ehtiyot qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Navoiy tashabbusi bilan mamlakatda 300 dan ortiq turli madaniy-maishiy binolar, shifoxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar barpo etilgan. Kasalxonalarda tajribali tabiblar bemorlarni davolaganlar. Shulardan biri Ne’matulloh ibn Faxriddin Muborakshox Hakim Kirmoniy bo‘lib, u Husayn Boyqaroning shaxsiy tabibi edi. U faqat tabib emas, shu bilan birga chuqur bilimli faylasuf, olim va shoir edi. Shuning uchun ham uni zamondoshlari buyuk shoir va ikkinchi Ibn Sino, deb ataganlar.

1480–1482-yillarda Navoiy ko‘rsatmasi va ishtiroki bilan Hirotida maxsus tibbiy kompleks barpo etildi. Bu majmua “Shifohiya” nomli kasalxona, “Ixlosiya” nomli madrasa va “Safohil” nomli hammomdan iborat edi. Madrasaning shuhrati o‘sha vaqtda butun Sharq davlatlariga yoyilgan edi. Bu yerga boshqa mamlakatlardan ko‘plab tabiblar kelib, bilim olishgan va mutaxassis bo‘lib, o‘z yurtlariga qaytishgan.

Navoiy zamonida yashagan va Hirotning turli shifoxonalarida ishlab, talabalarga tib ilmidan dars bergan mashhur tabiblardan ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Darvesh Ali chuqur bilim va katta tajribaga ega bo‘lgan hakim edi. Tarixchilarning yozishicha, u kamtarin, xushfe‘l va yoqimtoy kishi bo‘lgan.

Darvesh Alida shoirlik iste'dodi ham kuchli bo'lgan. U ba'zi tibbiy asarlarni nazm bilan yozgan. Darvesh Ali Hirotdagi "Dor ush-shifoh" ("Davo maskani") kasalxonasiga rahbarlik qilgan va shu yerda talabalarga tibbiyotdan dars bergan. Uning "Kishilarga eslatma" nomli tibbiy asari mavjud. Bu asarda muallif salomatlikni saqlash va kasallikni davolash haqida so'z yuritadi. Mavlono Nizomiddin Abdulxay. Bu tabib o'z zamonasida amaliy tibbiyotda yuksak tajribali va bilimdon mutaxassis bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u Navoiyning shaxsiy tabibi va yaqin kishisi bo'lgan. Shayx Husayn mohir jarroh bo'lgan. U marakkab operatsiyalarni ham qila olgan. Tabib bemorni operatsiya qilishda og'riqsizlantiruvchi modda ishlatgan. Operatsiya qilingan joyni tikishda qo'y ichagidan tayyorlangan tor (ip) ishlatgan.

Sharq mamlakatlarida xususan O'rta Osiyo shaharlarida shifoxonalar qoshidagi dorixonalardan tashqari alohida joylashgan dorixonalar ham bo'lgan. Ularda tabiblarning retseptlari bo'yicha bemorlarga dori tayyorlab berilgan. Shunday dorixonalardan biri haqida Alisher Navoiy bunday ma'lumot bergan: "Hirotda Hoji Ali Hasan Kirmoniy ismli dorishunos yashaydi. Uning dorixonasi bor. U o'z kasbiga juda mas'uliyat bilan qaraydi. Dorilarni mohirlik bilan tayyorlaydi" [4].

Demak, Husayn Boyqaro davrida mamlakatda ilm-fan, ayniqsa tibbiyotning rivojlanishi bevosita Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu haqida Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining mashhur "Boburnoma" asarida quydagicha yozgan edi: "Fan va sa'nat ahllarini Alisherbekdek qo'llab-quvvatlagan odam bo'lmagan. ... Xalq uchun foydali binolarni Navoiydek ko'p qurdirgan odam bo'lmasa kerak. Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan tarixiy ma'lumotlar asosida biz Temur va temuriylar davrida mamlakatdagi umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham yaxshi rivoj topganining guvohi bo'ldik. Shaharlarda kasalxonalar, tibbiy maktablar, kutubxonalar qurildi. O'nlab mashhur tabiblar yetishib chiqdi. Ular bemorlarni davolash bilan birga, tibbiyotga oid ilmiy asarlar ham yozishgan. Bu nodir va noyob asarlarni o'rganish, ularni bugungi kun tibbiyot rivojiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tarixni bilish, uni urganish ajdodlardan bugungi kunimiz uchun to'g'ri yo'nalish olishimizda juda kerak bo'lib Amir Temur va temuriylar davridagi ijobiy jarayonlarni hayotimizga tatbiq etishda bu muhim omildir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur. "Temur tuzuklari". – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1991, 66-bet.
2. Marsel Brion "Menkim, sohibqiron – jahongir Temur". – T.: "Yangi asr avlodi", 2018, 378–384 betlar.
3. Alishyer Navoiy "Mahbub ul-qulub". Toshkent.1983 yil.
4. A.O'rolov. O'tmishdagi davolash va shifobaxsh muassasalar. – T.: "Fan" nashriyoti, 1990. 21-22-betlar.

## АРПАБОДИЁН (ANISUM)НИНГ ШИФОБАХШ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Каримова Лобар Фатуллоевна*

*Бухоро давлат университети*

*Ботаника ва ўсимликлар физиологияси кафедраси ўқитувчиси*

*[lobarkarimovafatul@gmail.com](mailto:lobarkarimovafatul@gmail.com)*

**Аннотация.** Мақолада арпабодиён ўсимлигининг биологияси, кимёвий таркиби, ўсимлик уруғининг халқ хўжалиги, табобат ва фармацевтикада қўлланилиши ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** Anisum, арпабодиён Vulgare, эфир мойи, анетол, фенхон, метилхавикол,  $\alpha$ -пинен,  $\alpha$ -фелландрен, цинеол, лимонен, терпинолен, цитраль, борнилацетат, камфора.

**Аннотация.** В статье приведены сведения о биологии, химическом составе растения фенхель, использовании семян растения в народном хозяйстве, медицине и фармацевтике.

**Ключевые слова:** анис, фенхель обыкновенный, эфирное масло, анетол, фенхон, метилксавикол,  $\alpha$ -пинен,  $\alpha$ -фелландрен, цинеол, лимонен, терпинолен, цитраль, борнилацетат, камфора.

**Abstract.** The article provides information about the biology, chemical composition of the fennel plant, the use of plant seeds in the national economy, medicine and pharmaceuticals.

**Keywords:** anise, fennel, essential oil, anethol, fenchone, methylxavicol,  $\alpha$ -pinene,  $\alpha$ -fellandren, cineol, limonene, terpinolene, citral, bornyl acetate, camphor.

Арпабодиён (Anisum) - зирадошлар оиласига мансуб, маданийлаштирилгани икки йиллик, ёввойилари кўп йиллик ўтлар туркумига киради, арпабодиённинг икки тури бор. Ушбу ўсимликнинг Ўзбекистонда кенг тарқалган, хонадонларда экиладиган тури оддий Арпабодиён (*Foeniculum vulgare* Miller) экилади. Пояси тик ўсувчи, учига томон шохланиб боради, баландлиги 1-2 м га етиши мумкин. Барглари навбат билан жойлашган, мураккаб патсимон баргдан иборат, ипсимон кўринишга эга. Уруғи йирик, чўзинчок, иккита уруғдан иборат, гуллари майда сариқ, оқ, мураккаб соябон тўпгулда жойлашган. Асосан унумдор тупроқларда ўсади, иссиқлик ва ёруғлик севар, қурғокчиликка чидамли.

Арпабодиён қадимдан халқ табobati учун қўллаб келинган ўсимликдир. Бу ўсимликни қадимги Юнонистонликлар уйларида ёвуз руҳларни ҳайдаш мақсадида ишлатишган, унинг етилган уруғли новдаларини уйларига осиб кўйишган. Уруғининг эфир ҳидлари кайфиятни кўтарувчи, антисептик таъсир қилигани учун кенг қўлланилган ва илоҳийлаштирилган. Улуғ табиб, ватандошимиз Абу Али ибн Сино арпабодиён ҳақида шундай дейди: “У кўзни ўткир қилади ҳамда кўзга сув тушиш (яъни, катаракта) бошланган вақтда фойда қилади. Буйрак ва қовуққа нафи бор. Уруғини илдизи билан қўшиб ейилса, ични қотиради”. Шунингдек Ибн Сино бодиён дамиламасини балғам кўчирувчи чифатида ишлатган. Дори сифатида арпабодиённи

Гиппократ ва Асклепиад Вифинский (диуретик сифатида), Диоскорид ва Плиний (кўзни даволаш воситаси сифатида) томонидан ишлатилган. Қадимда табиблар ҳатто ўзларини даволаш жараёнида арпабодиён мевасини кенг ишлатганлар. Юз ва оёқ шишларида, жигар, талоқ, буйрак, қовуқ касалликларида, қийинлашган нафас олишда, бош оғриғида, кўз ва бошқа касалликларда ҳамда пешоб ҳайдовчи восита сифатида тавсия қилинган.

Ўсимлик таркибида эфир мойлари жуда кўп. Уларнинг меваларида 6,5% гача, баргларида 0,5% гача шифобахш эфирлар сақланади. Арпабодиён эфир мойи ўзига хос ҳид ва аччиқ-ширин таъмга эга. Унинг таркибида: анетол, фенхон, метилхавикол,  $\alpha$ -пинен,  $\alpha$ -фелландрен, цинеол, лимонен, терпинолен, цитраль, борнилацетат, камфора ва бошқа моддалар бор. Мевалари таркибида, шунингдек, петрозелин (60 %), олеин (22), линол (14) и пальмитон (4 %) кислоталари, эфир мойлари мавжуд. Бу мойлардан косметологияда фойдаланилади. Ўсимлик танасида кўп миқдорда флавоноидлар, гликозидлар, аскорбин кислотаси, каротин, В гуруҳ витаминлари ва турли минераллар мавжуд.

Арпабодиённинг мевалари ва эфир мойи овқат тайёрлашда зиявор сифатида ишлатилади. Арпабодиён кўкатлари жуда ёқимли, озгина ширин тетиклантирувчи таъмга эга. У ширинлик сифатида хом ҳолда истеъмол қилинади, салатга қўшилади, сариёғга ун қўшиб қовуриб атала кўринишида ҳам истеъмол қилинади. Ўрта ер денгизи мамлакатлари халқлари орасида арпабодиён сабзавот сифатида истеъмол қилинади.

Арпабодиённинг эфир мойи антисептик, яллиғланишга қарши ҳамда шиллик қаватларга кучли қўзғатувчи таъсир кўрсатади. Шунинг учун арпабодиён меваси, эфир мойи ва улардан тайёрланган дори турлари илмий тиббиётда бронхит ва нафас олиш йўлларида бошқа яллиғланиш касалликларида балғам кўчирувчи, йўтални тўхтатувчи дори сифатида, шунингдек ларингитни даволаш учун ишлатилади. Меваси ва эфир мойи яна буйрак, сийдик пуфаги ва пешоб йўллари касалликларида, ич дам бўлганда ел ҳайдовчи восита сифатида, ичак фаолиятини яхшилаш учун ҳамда баъзи грипп (ЎРВИ) касалликларининг даволашда қўлланилади.

Арпабодиёт уруғи сурғи дори сифатида ҳам қўлланилади, шунингдек ел ҳайдаш, ўт ҳайдаш, нафас олишни яхшиловчи восита сифатида ҳам кенг қўлланилади. Халқда унинг уруғларини қовуриб, сариёғ ва навотга аралаштириб ёш болаларда метеоризм (ич дам бўлиши) ҳолатларида қўлланилади. Катталарда чой сифатида дамлаш ичилиши ичаклар фаолиятини яхшилайди, ортиқча газлар ҳосил бўлиши ва ҳосил бўлганини ҳайдаш, неврастенияда тинчлантириш, уйқусизликда тинчлантирувчи сифатида, бактериал табиатли юз териси яллиғланишида, фурункулёзда, хуснбузарлар тошганда антисептик вазифасини бажаради.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Karimova L. Непревзойденные свойства базилика //Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
2. Karimova L. ҚАРИҚИЗ ЎСИМЛИГИ ХАЛҚ ТАБОБАТИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
3. Сафарова З. Т., Фармонова О. С. К. Медоносные растения Узбекистана //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1083-1084.
4. Сафарова З., Кенжаева Н. ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЕ КАК КОРМОВАЯ ДОБАВКА ДЛЯ ДОМАШНЕЙ КУРИЦЫ //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 15. – С. 77-78.
5. Гафарова С. КАНАКУНЖУТ (OLEUM RICINI) ЎСИМЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.
6. Нажмиддинов Ж. Н., Эсанов Х. К., Гафарова С. М. Интродукция облепихи в климатических условиях Бухарской области //Ученый XXI века. – 2015. – №. 7-8 (8-9). – С. 10-12.
7. Жабборов Б. И. и др. ОЧИҚ УРУҒЛИЛАРНИНГ ТАБОБАТДАГИ АҲАМИЯТИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 71-73.

## TALABALARNING KREATIV KOMPETENSIYALARINI FORSAYT TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

*Mo'minov Komiljon Axmadjonovich*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi*

*mo'minov.komiljon@mail.ru*

*Tel: 903255505*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola pedagogik OTMning bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari hamda pedagogik oliy ta'lim professor o'qituvchilari, uchun mo'ljallangan. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsayt texnologiyalari asosida metodik takomillashtirishda ta'limning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari va sifat ko'rsatkichlari, axborot-didaktik ta'minoti tavsiflangan. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini Forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish metodikasi, innovatsion yondashuv asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** forsayt texnologiyalar, ta'lim tizimi, kreativ kompetensiya, axborot-didaktik ta'minot, pedagogik shart-sharoitlar, maqsadlilik, kreativ yondashish, axborotlashgan jamiyat.

**Аннотация.** Данная статья предназначена для студентов бакалавриата педагогического вуза и преподавателей высшего педагогического образования. Описаны педагогические условия и качественные показатели использования инновационных организационно-дидактических форм обучения в методическом совершенствовании творческих компетенций обучающихся на основе технологий предвидения, информационно-дидактического обеспечения. Освещен метод совершенствования творческих компетенций студентов на основе технологий Forsayt, инновационный подход.

**Ключевые слова:** forsayt -технологии, система образования, творческая компетентность, информационно-дидактическое обеспечение, педагогические условия, целеустремленность, творческий подход, информационное общество.

**Annotation.** This article is intended for undergraduate students of the Pedagogical Higher Educational Institution and professors of higher pedagogical education. Pedagogical conditions and quality indicators of using innovative organizational and didactic forms of education in the methodical improvement of students' creative competencies based on foresight technologies, information and didactic support are described. The method of improvement of students' creative competences based on Forsayt technologies, innovative approach is covered.

**Keywords:** foresight technologies, educational system, creative competence, information and didactic support, pedagogical conditions, purposefulness, creative approach, information society.

**Kirish.** Jahonda forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish va mustaqil kasbiy rivojlanishning yangicha shakllarini o'zlashtirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida ta'kidlanadi. Jumladan, 2030-yilgacha qabul qilingan umumjahon ta'lim

Konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” g‘oyasi mutaxassislarni uzluksiz malakasini oshirish va ijodiy yaratuvchanlik tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Finlyandiya: Finlyandiya o‘zining forsaytlash va strategik rejalashtirish markazlari bilan mashhur. Masalan, Finlyandiya Innovatsion Fond kompaniyasi (Sitra) iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining turli stsenariylari asosida uzoq muddatli forsaytlash ishlarini olib boradi. Germaniyada bir nechta forsaytt markazlari mavjud, masalan, Federal tadqiqot va ta’lim vazirligi (BMBF) tadqiqot va ta’lim sohasida forsaytlash, trend tahlili va ishlab chiqishda faol. Buyuk Britaniyadagi Texnologiya Instituti (British Technology Strategy Board) forsaytlash va innovatsiyalar markazini ishga tushirdi. Markaz texnologik tendentsiyalarni forsaytlash va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, Qaroridagi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimining 2030-yilgacha rivojlanish Konsepsiyasida” Oliy ta’lim o‘quv yurtlarida ilmiy – tadqiqot ishlarini natijadorligini oshirish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini yaratish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilandi: oliy ta’lim muassasasida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish; oliy ta’lim o‘quv yurtlarida forsayt markazlari, texnopark, innovatsion texnologiyalar transferi markazlari, akselerator , startap, biznes inkubatorlar tashkil etish va ularni rivojlantirishning dolzarbligiga alohida e’tibor berila boshlandi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta’limda ta’lim tizimini rivojlanishining nazariy-metodologik masalalari hamda ta’limda axborot muhitini yaratish muammolari yurtimiz olimlaridan R.X.Djurayev, H.F.Rashidov, Sh.E.Qurbonov, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, Sh.S.Sharipov, U.Sh.Begimqulov, E.A.Seytxalilov, M.A.Yuldashev, Mamatov D.N. va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Oliy ta’limda forsayt texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va amaliyoti masalalari, didaktik va metodik asoslari, istiqbollari bilan bog‘liq tadqiqotlar xorij olimlari Sokolov A.V., Georghiou L., Cassingena Harper J., Keenan M., Miles I., Popper R., Shelyubskaya N.V. o‘zbek olimi Raximov O.D.va boshqalarning ishlarida yoritib berilgan.

Ta’lim muassasalarining axborot-ta’lim muhitini tashkil etish hamda ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov, N.I.Taylaqov, U.Sh.Begimqulov, J.A.Xamidov, O.X.To‘raqulov tomonidan amalga oshirilgan. Xorijiy mamlakatlarda oliy ta’limda masofaviy malaka oshiriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar I.R.Agamirzyan, Alekseyeva A. D., T.V. Konyuxova, A.D.,

Alekseyev, T.V. Yejoval, V.S.Yefimov, A.V Lapteva, V.L.Inozemsev tomonidan olib borilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tizimi ta'limni samarali tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi omillarni qayd etish mumkin: ta'lim tizimining tezkor yangilanishi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berishga yetarlicha tayyor bo'lmagan amaldagi tizim o'rtasidagi ziddiyat; metodik ta'minotning ishlab chiqilmaganligi; integrallashgan axborot-ta'lim muhitini yaratish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi hamda pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi yechimini kutayotgan bir qator muammolar manbasi bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirish jarayonini tahlil qilish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishga tayyorlashning axborot-didaktik ta'minotini mazmunan rivojlantirish, talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini va didaktik imkoniyatlarini asoslash; talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishni modellashtirish, oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarini tayyorgarligini rivojlantirish, talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirish darajalarini baholash, natijalarni qayta ishlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishning axborot-didaktik ta'minoti axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, modellashtirish kabi funksiyalari orqali andragogik va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar sintezi asosida mazmunan rivojlantirilgan; talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishning Delphi-usuli (ikki bosqichli ekspert so'rovlari), SWOT-tahlili, aqliy hujum, ssenariy yaratish, texnologik yo'l xaritalari, o'zaro ta'sirni tahlil qilish kabi modellarini umumlashtirish orqali oliy ta'lim tizimi kadrlarini malaka darajasini oshirish maqsadlilik, ochiqlik, faoliyatlilik, insonparvarlik, optimallik tamoyillar asosida modellashtirilgan; talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishning sohadagi umumiy muammolarni tizimli muhokama qilishi uchun gorizontal tarmoqlar, platformalarni shakllantirishda asosiy samaradorligini tarmoqli modeliga asoslangan metodik modeli tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va andragogik yondashuvlar hamda maqsadli, mazmunli, jarayoniy va tashxislovchi-natijaviy komponentlar yaxlitligida ishlab chiqilgan; forsait tadqiqotlarida rejalashtirilgan va tashkil etilishi lozim bo'lgan tizimli jarayon sifatida va o'zaro bog'liq vazifalar to'plami hamda g'oyalarni shakllantirishdagi o'zaro loyihalar ketma-ketligi rivojlantirish metodikasi tarmoqli masofaviy o'qitishning konseptual, texnologik, baholash-nazorat kabi funksional xususiyatlarini tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan; talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida

takomillashtirish darajalarini baholash vositalari hamda masofaviy ta'limning axborot-ta'lim muhiti ishtirokchilarining bilimlarini kompleks baholash mexanizmlari differensial-integral, induktiv va deduktiv metodlar asosida takomillashtirilgan.

Talabalarining kreativ kompetensiyalarini forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirishning Delphi-usuli (ikki bosqichli ekspert so'rovlari), SWOT-tahlili, aqliy hujum, ssenariy yaratish, texnologik yo'l xaritalari, o'zaro ta'sirni tahlil qilish kabi modellarini umumlashtirish orqali oliy ta'lim tizimi kadrlarini malaka darajasini oshirish maqsadlilik, ochiqlik, faoliyatlilik, insonparvarlik, optimallik tamoyillar o'quv dasturlariga tushunchalar mazmuni mualliflik talqini nuqtayi nazaridan yorotilgan; talabalarining kreativ kompetensiyalarini forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirishda ta'limning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari va sifat ko'rsatgichlari, axborot-didaktik ta'minoti ishlab chiqilgan;

“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta'lim tizimiga eng zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Shuningdek, oliy ta'limda tayyorlanayotgan milliy kadrlarimiz kelajakni ko'ra bilishi, tezkor o'zgaruvchan raqobatbardosh muhitga moslashuvchan bo'lishlari, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga tatbiq eta olishlari zarur. Chunki, ta'lim sohasini rivojlanish jarayoni tezlashib borayotgan bir vaqtda kelajakda ta'lim strategiyasini to'g'ri takomillashtirish, barqaror rivojlanishning asosini tashkil etadi.

#### TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Hozirgi globallashtirish davrida dunyo, mintaqa, davlat yoki ta'lim sohalaridagi yirik muammolar (elektron axborot almashinuvi, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik, siyosiy va b.) yechimiga oid strategik rejalar, yo'l xaritalari va konsepsiyalar ishlab chiqishda Forsayt texnologiyalaridan foydalanish eng samarali va maqbul variant hisoblanadi. Forsayt asosida rivojlanishning uzoq muddatli (5 yildan 30 yilgacha) rivojlanish dasturi yoki konsepsiyasi qisqa muddatli aniq dalillarga asoslangan ma'lumotlar asosida yaratiladi, ya'ni kelajak strategiyasi aniq, yuqori darajadagi dalillar asosida rejalashtiriladi. Rivojlangan davlatlarda forsayt alohida bir tashkilot yoki korxonada doirasida ham keng foydalaniladi, forsayt texnologiyasi yordamida korxonaning kelajak strategik rejasi ishlab chiqiladi, qaysi texnologiyalarni takomillashtirish zarurligi aniqlanadi, maqsadga erishish uchun yo'l xaritalari ishlab chiqiladi. Shu sababli rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimida pedagog mutaxassis kadrlarni tayyorlashda Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi, Pedagogika, Kreativ pedagogika fanlarini o'qitishda forsayt texnologiyalaridan keng foydalaniladi va ta'lim dasturlarida aynan forsaytga oid fanlar nazarda tutiladi. Forsayt nisbatan yangi atama hisoblanib, shu sababli hozirgacha uning mukammal ta'rifi ishlab chiqilmagan. Forsayt texnologiyalari asosida global (xalqaro hamkorlik asosida) elektron ta'lim-tarbiyaga oid muammolar, jumladan hamkorlik asosida shu sohani yanada keng rivojlantirish va Forsayt texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. 1990 yillardan boshlab

uzoq muddatli istiqbolni belgilashda forsayt texnologiyalardan AQSH, Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasidagi iqtisodiy rivojlangan bir qancha davlatlar keng foydalana boshlashdi. Forsayt loyihalar natijalari asosida keng masshtabli Xalqaro tadqiqot dasturlari ishlab chiqilgan, jumladan Yevropa Ittifoqining VI chi va VII ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish dasturining byudjet xarajatlari 17,5 va 54 mlrd. yevroni tashkil etganligi, Shvesiyaning oxirgi forsayt loyihasi 3,6 mln yevro, Turkiyada esa 2 mln yevroga yaqin mablag' sarflanganligi bu Forsayt texnologiyalari asosida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. EFMN (The European Foresight Monitoring Network) - Yevropa forsayt tadqiqotlar monitoringi tizimi, FISTERA – axborotlashgan jamiyat sohasidagi loyihalar tizimi faoliyatini misol qilishimiz mumkin. EFMN Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi va "Yevropa bilimlar almashinuvi platformasi"ning bir qismi hisoblanadi. Uning tarkibiga ARC-SA, VDI, PREST, TNO, CKA, Atlantis, Fhg-ISI, Dialogik, Louis Lengand & Associates, Technology Centre Prague kabi tashkilotlar kiradi. 2006 yilgi ma'lumotlar bo'yicha EFMN monitoring portfoliosida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda hamda Yaponiya, AQSH, Kanada, Xitoy, Koreya Respublikasi va Braziliyada bajarilgan 1000 ga yaqin Forsayt tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Forsayt texnologiyalari asosida O'zbekistonda elektron axborot tarmoqlari, jumladan ta'lim sohasidan uzoq muddatli strategik rejalar, konsepsiyalar va istiqbolli yo'l xaritalari ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilmaganligi boisi, respublikamizdagi kopgina ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlari oldida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

#### XULOSALAR.

Yuqori texnologik loyihalarni rivojlantirish jarayonini bozor va texnologik trendlar rivojlanishini hisobga olmasdan amalga oshirib kelinayotganligidir. Innovatsion sektorda kooperativ jarayonlarning rivojlanmaganligi tufayli ilmiy yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etish masalasiga sust yondashish hamda elektron ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasiga oid tadqiqotlari o'tkazishning yetarlicha baholanmaganligi kuzatildi. Shu sababli oliy ta'lim o'quv jarayonida bo'lajak pedagoglarga forsayt texnologiyasi, uning mazmuni, forsayt uslublaridan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar berish hamda ushbu texnologiyani o'quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya sifatida keng qo'llash va talabalarning kreativ kompetensiyalarini Forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish "Forsayt kreativ kompetentlik"ni rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim sohasida Forsayt texnologiyasi yangi texnologiya hisoblanadi, shu sababli bolajak pedagoglarga elektron tarmoq sohasida hamda elektron ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasida forsayt tadqiqotlar olib borilmaganligi, Forsayt texnologiyasi bo'yicha ilmiy dissertasiyalar himoya qilinmaganligi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston elektron ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasidagi islohotning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri, ayniqsa, elektron ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasida hamda amaliy faoliyatimizda qo'llanilayotgan kreativ pedagogga xos nazariy va ilmiy nuqtai nazarlarini ishlab chiqishdir. Bu esa rivojlangan Yevropa davlatlari texnologiyalari tajribasini ko'r-

ko'rona ko'chirish emas, aksincha, andoza olish, ijodiy izlanishlarning yangi yechimidir. Kreativ yondashish - bu talabalarda ta'lim jarayonida kreativ pedagogikaning uslubiy va nazariy bilimlarining umumiy muammolari, kreativ pedagogikaning barkamol shaxsni o'qitish va tarbiyalashdagi o'rni, manbalari, maqsad va vazifalari, predmeti, omillari bilan tanishtirishdan iborat. Talabalarning ta'limiy rivojlanishiga, elektron mazmuniga, raqamli mohiyatiga, didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatishga doir bilim, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Kreativ raqamli pedagogika haqida pedagogika fani va amaliyotining yo'nalishlaridan biri sifatidagi g'oyani takomillashtirish, amaliy ahamiyatga yega bo'lgan kreativ pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish lozim.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. - // <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. Sokolov A.V. Dolgosrochnoye prognozirovaniye tendensiy razvitiya obrazovaniya metodami Forsayt. //Voprosy obrazovaniya. 2004. №3. S. [79].
3. Georghiou L., Cassingena Harper J., Keenan M., Miles I., Popper R. (eds.) (2008) The Handbook of Technology Foresight Concepts and Practice, Cheltenham: Edward Elgar. [106]
4. Sokolov A.V. Forsayt: vzglyad v buduyeyeye. //Forsayt. 2007. №1. [312].
5. Shelyubskaya N.V. Osnovi forsayta. [Elektron manba]. ]. URL: [https://riep.ru/upload/iblock/7a8/7a855b301628b74\\_8b239ba1dda058097.pdf](https://riep.ru/upload/iblock/7a8/7a855b301628b74_8b239ba1dda058097.pdf). [86]
6. URL:<https://riep.ru/upload/iblock/7a8/7a855b301628b748b239ba1dda05809>
7. Raximov O.D. Innovasion pedagogik texnologiyalar: loyihalar uslubi ta'lim sifatini oshiruvchi texnologiya sifatida. // Qarshi, TATU Qarshi filiali, 2013y. [80].
8. Formirovaniye ponyatiya "forsayt menedjment" [Elektron manba]. URL: <http://www.quickwiki.com/ru>.
9. Shelyubskaya N.V. Osnovi forsayta. [Elektron manba]. URL: [https://riep.ru/upload/iblock/7a8/7a855b301628b74\\_8b239ba1dda058097.pdf](https://riep.ru/upload/iblock/7a8/7a855b301628b74_8b239ba1dda058097.pdf).

## OTORINOLARINGOLOGIK KASALLIKLARI BILAN OG'RIGAN BOLALARNI ANIQLASHDA ONANING RO'LINI OSHIRISH.

*Mirzayeva Shahnoza Zokirjon qizi,  
Kosonsoy Abu Ali Ibn Sino  
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi  
[shahnozamirzayeva302@gmail.com](mailto:shahnozamirzayeva302@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada otorinolariningologik kasallik bilan og'rikan bolalar bilan eng ko'p birga bo'ladigan onalar bo'lgani tufayli onalarni farzandini otorinolariningologik kasallikni dastlabki davridayoq aniqlashda uning ro'lini beqiyos darajaga ko'taradi. Shu boisdan onalarga qanday usullar bilan sodda va tushunarli tarzda qanday o'rgatish kerakligi to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Otorinolariningologik kasallik, o'mrov suyagi, quloq, burun, yuqori nafas yo'li, halqum, hiqildoq.

**Annotatsiya.** In this article, mothers who are most often with children with otorhinolaryngological diseases, raise their role to an incomparable level. Therefore, it was thought about how to teach mothers in a simple and understandable way.

**Kalit so'zlar:** Otorhinolaryngological disease, spine, ear, nose, upper respiratory tract, larynx, larynx.

Kirish. Otorinolariningologik kasalliklar bu kalla va bo'yin sohasi, aniqrog'i odam tanasining qosh usti yoyidan o'mrov suyagigacha bo'lgan qismining kasalliklaridir.

Tabobat, shu jumladan otorinolariningologiya fani eng qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Qadimiy yunon yozuvlari va Buqrot (Gippokrat, eramizdan oldingi 460 - 377 yy.)[4] asarlarida burun, halqum va hiqildoqning anatomik tuzilishlari, faoliyatlari va kasalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Buqrot suyak chig'anog'ining 8 ichida parda chig'anoq borligini aniqlagan, tanglay murtklarini ko'rsatkich barmoq yordamida paypaslash, burun polipini ipak ip yordamida olish, tashqi eshituv yo'liga o'simlik yog'ini tomizish va tiqma qo'yish kabi ko'pgina tekshiruv va davolash usullarini tavsiya qilgan. Keyinchalik Sels (eramizdan oldingi I asr), Jolinus (Galen, eramizdan oldingi 129 - 201yy.) va qadimiy dunyo tibbiyotining boshqa vakillari ham o'z asarlarida ushbu mavzuni kengroq yoritganlar. [1]

Asosiy qism

Otorinolariningologik kasalliklar bu kalla va bo'yin sohasi, aniqrog'i odam tanasining qosh usti yoyidan o'mrov suyagigacha bo'lgan qismining kasalliklaridir Yuqori nafas yo'llari, ya'ni burun, halqum, hiqildoq organizmga tozalangan va isitilgan havo oqimini kirishini ta'minlabgina qolmay, balki hid bilish, ovqatlanish va nutqni shakllantirish kabi muhim faoliyatlarda ishtirok etadi. Quloq esa insonga tovushlarni va nutqni eshitish, ularni tahlil qilish hamda muvozanatni saqlash imkonini beradi. Bunda ushbu a'zolarining faoliyati yurak, qon tomir, asab, bosh miya, oshqozon-ichak, harakat, immun, qon ishlab chiqarish va boshqa a'zo va

tizim-lar faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shubhasiz, bunday fiziologik va anatomik aloqalar [2] LOR-a'zolari va ushbu tizimlarning kasalliklarida qanday patologik reaksiyalar yuzaga kelishini belgilab beradi. LOR-a'zolarining yallig'lanishi va boshqa kasalliklari aksariyat hollarda organizmda turli patologik o'zgarishlarni rivojlanishiga olib keladi, shuning uchun onalar bunday kasalliklarni aniqlashda qisman bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim. Statistik ma'lumotlarga ko'ra farzand bilan eng ko'p birga bo'ladigan shaxs bu onadir, ona bolasi bilan kun davomida deyarli 70% birga bo'ladi bu degani kasalliklarni barcha belgilariga ona birinchilardsan bo'lib guvoh bo'ladi. Huddi shu uchun ham onalarga ko'proq bolalarda uchraydigan kasalliklar belgilari haqida qo'shimcha bilimlar berish zarurdir, bu esa o'z navbatida bolalarda bo'lishi mumkin bo'lgan kasalliklarni oldini olish va uni erta aniqlash davolash ishlarini erta boshlash hamda muvafiqatli asoratsiz davolashga erishishga imkon beradi. Ho'sh buni qanday qilish kerak? Men taqdim etayotgan taklif shuki. Bolalarda uchraydigan kasalliklar belgilari haqida kichik qo'llanmalar onalar uchun tayyorlashdir. Va maktab davrida haftasiga 1 soatdan yil davomida tibbiyot kursini o'tish zarurdir. Bu o'z navbatida tibbiy bilimga ega onalar ega bo'lamiz. Bunday yondashuv tibbiyot behuda bormaslik ortiqcha sarf harajatlar va asoratli kasalliklarni erta aniqlash imkonini beradi. [3]

#### Xulosa

Otorinolaringologik kasallik quloq, burun, yuqori nafas yo'li, halqum va hiqildoq kiradi va bu kasalliklar yosh bolalarda ko'plab uchrashi, ayniqsa ona ko'z o'ngida sodir bo'lib o'z belgilarini namoyon qiladi. Bundan shuni qilishimiz kerak yosh onalarimiz bilan ko'proq tibbiy bilimlarga ega bo'lishlari yo'lida choralar ko'rishimiz keraklini anglatadi. Bu boradagi ishlarni qancha erta boshlasak shuncha yosh bolalar o'rtasida bo'ladigan kasalliklarni tarqalishini oldini olishga, davolashga va oldini olib asoratlarsiz davolashga erishamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. <http://uza.uz>
2. Yo'ldoshev J. G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004. -104 b.
3. Брюс У., Джафек ЭНН. Секреты оториноларингологии. 2001.
4. S.A. Hasanov, N.X. Vohidov. "Otorinolaringologiya". 2013yil.

## ХОНҚИЗИ-*COCCINELLIDA* ҚЎНҒИЗИНИНГ БИОЛОГИК АҲАМИЯТИ

*Саидова М.С*

*Бухоро давлат университети 2- босқич магистри*

**Аннотация.** Мақолада биологик кураш воситаси сифатида фойланиладиган, кенг тарқалган қўнғиз Хон қизи ҳақи маълумотлар келтирилган. Қўнғизнинг ташқи тузилиши, тухум қўйиши, қишлаши ҳақида маълумотлар берилган.

**Калит сўзлар:** хон қизи, қўнғиз, *coccinellida*, Палеарктикада, собик МДХ, Marienkaefer, Ladybird, Vaquita de San Antonio, Sluneko, Бобо сурхон.

**Аннотация.** В статье приведена информация о жуке-Божья коровка, которая используется для биологической борьбы с вредителями растений. Описано внешнее строение, кладка яиц, зимовка.

**Ключевые слова:** жук божья коровка, *coccinellida*, палеарктика, бывший СНГ, Marienkaefer, Ladybird, Vaquita de San Antonio, Sluneko, Бобо сурхон.

**Abstract.** The article provides information about the ladybug beetle, which is used for biological control of plant pests. The external structure, egg laying, and wintering are described.

**Key words:** ladybug beetle, *coccinellida*, paleartic, former CIS, Marienkaefer, Ladybird, Vaquita de San Antonio, Bobo Surkhon.

Қўнғизлар табиатда ва инсон ҳаётида жуда катта аҳамият касб этади. Улар озиқ занжирининг ажаралмас қисларидан биридир. Айниқса, ўрмонларда муҳим парчаловчилардир. Йиртқичлар сифатида қўнғизлар зараркунанда ҳашаротлар, айниқса ҳашаротлар личинкалари ва уларнинг тухумларини қириб фойда келтиради. Мақоламда хон қизи қўнғизи-*COCCINELLIDA* ва унинг биологик, экологик аҳамияти ҳақида маълумотлар келтирилган.

Бу оила вакиллариининг 4000 типи ва 360 туркуми ва 5000 тури ўрганилган, шундан 2000 тури Палеарктикада, 221 тури собик МДХ, 100 тури Россияда учрайди.

Хон қизи қўнғизи барча халқлардан жуда катта қизиқиш билан фойдаланилади. Уларнинг номи ҳам турли мамлакатларда турлича, эркалаб ишлатилади масалан, Австрия, Швецария ва Германияда Биби Мариям қўнғизи- Marienkaefer, Англия, АҚШ ва Жанубий Африкада Хон қўнғизи- Ladybird, Аргентинада Илохий Антон қўнғизи- Vaquita de San Antonio, Украина ва Белоруссияда Куёшчам- Sluneko, Тожикистонда Бобо сурхон-қизил муйлов чол номлари билан юритилади.

Хон қизи қўнғизлари танаси унча катта бўлмаган, имаголари 1-18 мм, танаси асосан думалоқ-овал, бўртиб чиққан, ярим шарсимон, танасининг ости деярли ясси ёки ярим бўртган. Баъзи вакиллариининг танаси чўзинчоқ-овал, у ёки бу даражада яссилашган. Бош қисми асосан силлиқ, баъзан

туқлар билан қопланган. Боши унча катта эмас, кўндаланг ёки буйламасига бир оз эгилган бўлиши мумкин. Кўзлари катта, кўпинча четларида уйқлик бор, мўйловлари бўғимли, асосан 8-10 бўғимдан иборат, узун, баъзан калта, учида тўғнағичи бўлади. Олд ва ўрта кўкрак қисми кўндаланг, орқа кўкрак кенгроқ, деярли квадрат шаклида, ўрта кўкрак қисмидан анча узун, оёқлари ўртача узунликда, кўп туқлар билан қопланган, оёқлари яширин буғинли.

Оёқ бўғинлари 4 та бўлиб, учта бўғини аниқ кўриниб туради, 3-бўғини эса 2- бўғин орасида қолгани учун кўринмайди, шунинг учун 3 бўғинли кўринади. *Lithophilini*- оиласи вакиллари оёқлари 4-бўғимлилиги аниқ кўриниб туради. Кўкрак қисмининг олдинги соҳаси бошидан кенг, бўртиб чиққан, кўндаланг, олд соҳасида турли хил шаклдаги расмлар ва доғлари бор. Қанотустлиги қизил, сариқ, жигарранг бўлиб, қора, оқ, доғлари бор, шу доғ кўринишидаги расмлари бир бири билан қўшилиб кетган бўлиши мумкин. Баъзи турларининг қанот устлиги қора, доғлари қизил ёки сариқ бўлади. Қорни пастки томонидан деярли ясси, кўриниб турадиган 5-6 та стернитлардан ташкил топган. Жинсий деморфизм кам ажралиб туради, кўпгина эркаларининг 5-6 стернитлари қанот устлигига нисбатан юқориги томондан чуқурроқ, урғочиларида, бўртиб чиққан бўлади. Айрим турларида биринчи ва охириги оёқларининг 1- бўғими кегайган. Баъзан урғочи ва эркалари олдинги елка бўғимидаги нақшлари билан фарқ қилади.

Ушбу тур вакиллари уруғланиши ички, урғочилари. Уруғланганидан кейин урғочи кўнғиз 5-30 туда кўринишида тухум қўяди, тухумларини асосан тухумдан чиққан личинкаларига озуқа бўлиши учун бирор бир ҳашарот (ўлжа, асосан шира битлари) танасига ёки, ўсимлик баргига қўяди. Уч ой (ёз бошидан) давомида урғочи кўнғиз 1000 тагача тухум қўяди. Тухумлари асосан овал, учига томон бир оз ингичкалашган. Баъзи турлари- *Stethorini* ва *Chilocorini* – ларнинг тухумлари нисбатан кичкина ва думалоқлашган. Кўнғизлар тухумининг ранги асосан сариқ, сабзи ранг, оқиш; сирти бурмали. Тухумларини тиғиз қўяди, тухумлар бир бирига ён томони билан ёпишиб туради. Баъзи турларида, масалан, *Harmonia sedecimnotata* да тухумлари сийрак, бир-биридан узоққа қўйилади.

Кокцинеллидларнинг экологик хусусиятларини, жумладан уларнинг қишлаши билан боғлиқ бўлган хусусиятларни ўрганиш, қишлоқ хўжалик зараркундаларига қарши курашда улардан фойдаланиш нуктаи назардан муҳим аҳамиятга эга. Кокцинеллидлар яшаш муҳитидан, иқлим шароитидан келиб чиқиб турли вақтларда қишлайди, масалан, тоғли ҳудудларда қишлаши учун эрта кўчиб ўтишига асосий сабаб, ёзнинг иккинчи ярмида улар озиқасининг етарли бўлмаслиги, жумладан ўсимлик битларининг ёзда кескин камайиб кетиши сабаб бўлади.

Бухоро вилояти шароитида ёзнинг жуда исик келиши ҳам шаҳар ҳудуди кўнғизларининг сон жиҳатидан камайишини билдиради, биз кўнғизларни фақат истироҳат боғларида, шаҳар атрофи боғларида жуда кам миқдорда учратишимиз мумкин. Чунки, шира битларига қарши кураш туфайли,

кўнғизларнинг асосий озиқаси камайиб кетади. Қишлоқ ҳудудларида, бедазорларда, полизларда кўнғизлар сони нисбатан кўпроқ бўлади.

Баъзи турлари озиқа миқдори етарли бўлишига қарамасдан кузда диапаузага ўтади, масалан, Моновольтин типи кўнғизлари шуларга мансуб. Бухоро шаҳар айрим хонадонларнинг ойна ромларида кўплаб қишлаш ҳоллари кузатишган. Аммо вақти-вақти билан ҳавонинг илиб кетиши ва баҳорнинг эрта келиши билан қишлаётган кўнғизлар уйғониб очликдан нобуд бўлган ҳоллар ҳам тадқиқотларда кузатишган. Кокцинеллидларнинг аҳоли яшайдиган иморатларда қишлаши, улар энг кўпайган йилларга тўғри келиб, кўпгина аҳоли пунктларида рўй бериб туради. Аммо, бу ҳодиса алоҳида ўзига хос қишлаш типини ҳосил қилмайди.

#### Адабиётлар рўйхати

1. Адылов З.К. Оценка эффективности тлевых коровок в снижении численности тлей на различных культурах в условиях Узбекистана. // Исследования по биологическому методу борьбы с вредителями сельского и лесного хозяйства. Новосибирск, 1964. -С. 117-119.;
2. Алимджанов Р.А. Об одной из возможностей охраны полезной энтомофауны хлопкосеющих зон. // Об охране насекомых. Тез. докл. II совещ., Ереван, 1975, -С. 11-13.
3. Мансуров А.К., Хамраев А.Ш., Бабанов Ю. Оҳангарон воҳаси кокцинеллидлар фаунаси ва қишлаш хусусиятига оид маълумотлар.// O'zbekiston biologiya jurnali. - № 3, 2001a. . -С. 45-49.
4. Ульянова Л.С. О возможности акклиматизации дальневосточной кокцинеллид *Harmonia axyridis* Pall в условиях Узбекистана. // Труды ин-та, зоол.и.паразитол. АН УзР, 1956, т. 6. -С. 32-37.
5. Жабборова О. И. Толерантность-как нравственное качество //Наука, техника и образование. – 2018. – №. 12 (53).
6. Жабборова О. И., Кенжаева Х. П. Экологические мировоззрения Ибн Сины //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 5-2.
7. Яхонтов В.В. «Применение кокцинеллид в борьбе с вредителями сельского хозяйства»: Сборник «Полезные и вредные насекомые», Ташкент: Изд. АН РУз, 1960. -С. 7-85.
8. Яхонтов В.В. Результаты опытов с перспективой применения божье коровок в борьбе с вредителями сельскохозяйственных культур Средней Азии. // Биологический метод борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур М., Л., 1937. –С. 68-82.

## QO'TIR KANASI-SARCOPTES SCABIEI

*Aripov Baxtiyor Farmonovich*

*Buxoro Davlat Universiteti*

*Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi o'qituvchisi*

*Shokirova Mehrangiz Jahongirovna*

*Buxoro Davlat Universiteti*

*Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada qo'tir kanasining keltirib chiqaradigan kasalliklari va ularning simptomatikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** qo'tir, kana, sarkoptik qo'tir, demodekoz qo'tir, SARCOPTES SCABIEI.

**Аннотация.** В статье представлены сведения о заболеваниях, вызываемых чесоточным клещом, и их симптомах.

**Ключевые слова:** чесотка, клещи, саркоптоз, демодекоз, SARCOPTES SCABIEI.

**Abstract.** The article provides information about diseases caused by scabies mites and their symptoms.

**Key words:** scabies, mites, sarcoptic mange, demodicosis, SARCOPTES SCABIEI.

Qo'tir - bu itlarda mayda parazit kanalar keltirib chiqaradigan yallig'lanishli teri kasalligi. Qo'tirning ikkita asosiy turi mavjud: sarkoptik va demodekoz, ularning sabablari va belgilari turlicha. Har bir turning xususiyatlarini aniqlay olish va ular orasidagi farqni tushunish muhimdir. Qo'tir kamdan-kam hollarda o'linga olib keladigan bo'lsa-da, bu noxush kasallikni erta bosqichda tanib olish davolash jarayonini oson tezlashtiradi.

Sarkoptik qo'tir yoki qichimali qo'tir odatda qattiq qichishishga olib keladi. It qichishishdan xalos bo'lish uchun tinimsiz junini tirnashi mumkin. Doimiy tirnash va tishlash natijasida hayvon terisining boshqa qismlariga osonlik bilan parazit yuqadi. Qichishish shunchalik kuchli bo'lishi mumkin-ki, it ba'zida ovqatlanish, ichish va dam olish kabi tabiiy ehtiyojlarni bajarishni unutadi. Bakteriyalar yoki zamburug'lar tomonidan ikkilamchi infektsiyaga olib keladigan og'ir sarkoptoz holatlari it terisida kuchli qichishishni keltirib chiqaradi, natijada it terisida oq, qobiqli yaralar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin, ammo bu hamma hollarda ham sodir bo'lmaydi. Bundan tashqari, og'ir ikkilamchi infektsiyalari bo'lgan itlar ko'pincha vazn yo'qotish, isitma yoki shishgan limfa tugunlaridan aziyat chekishadi.

Mahalliy demodikoz, bu teridagi zamburug'larning eng xavfli varianti, odatda itning terisida bir yoki ikkita "siyrak" yoki butunlay tuksiz dog'larga olib keladi. Odatda, zararlangan kichik joy yallig'lanish yoki tirnash xususiyatini, holatini bermaydi va qattiq qichishishga olib kelmaydi.

Agar mahalliy demodikoz o'z-o'zidan ketmasa, u oxir-oqibat itning butun tanasiga tarqalishi mumkin, natijada umumiy demodikoz paydo bo'ladi. Hayvonning butun tanasida ko'plab siyrak yoki kal dog'lar paydo bo'ladi. Ushbu dog'lar (yamoqlar)ning diametri 2,5 santimetrgacha o'sishi mumkin. Bu joylarda teri qizarib, qattiq qichishadi. Qichishib tirnalgan terisida yaralar bo'ladi, ba'zida boshqa infeksiyalarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ushbu ikkilamchi infeksiyalar sarkoptozga o'xshash simptomlarni keltirib chiqaradi: isitma, vazn yo'qotish, shishgan limfa tugunlari va boshqalar.

Ba'zi hollarda demodekoz demodektik pododermatit deb ataladigan shaklga aylanadi. Bu qo'tir qo'zg'atuvchi kanalar itning panjasiga chuqur singib ketganda paydo bo'ladi, ularni olib tashlash juda qiyin. Kasallikning bu shakli odatda shishgan va yallig'langan panjalar sifatida namoyon bo'ladi. Eng yomon holat odatda tirnoqlarning tagida bo'ladi va bu turdagi qo'tir ko'pincha ikkilamchi infeksiya bilan birga keladi. Shunday qilib, qo'tir kanalari keltirib chiqaradigan bu kasalliklar itlarda uchraydigan mavsumiy kasalliklar turlaridan biri bo'lib, ularning insonga yuqish xavfi kam, kasallik belgilari va patologik holatlarni namoyon qilishi ham uchramagan. Ayniqsa, xona itlarida bu kasalliklar juda kam uchraydi (agar sayrga chiqib yuqtirib kelmasa), ko'chadan yuqtirgan holatlarida ham bir oy mobaynida ko'z atrofi, qo'ltiq osti terisida jun ko'chish holatlari namoyon bo'ladi, shunda tezda immunitetini kuchaytiruvchi ineksiyalar va 5% Yod eritmasi surtilganda oson davolanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Дадаев С.Д. Паразитология. Олий ўқув юртлари биология
2. ихтисослиги талабалари учун маърузалар матни. Т., 2002.
3. Дадаев С.Д. Каналар ва уларга қарши кураш чоралари
4. Ўқув методик қўлланма. Т., 2004.
5. Савицкий Б. П., Цвирко Л. С., Мишаева Н. П. Природные очаги болезней человека в национальных парках Беларуси. – Мн.: Бел. изд. товарищество «Хайта», 2002 г. – 328 с.

## INTENSIV HOVUZLARDA BALIQ YETISHTIRISH

*Aripov Baxtiyor Farmonovich*

*Buxoro Davlat Universiteti*

*Zoologiya va umumiy biologiya kafedrası o'qituvchisi*

*Po'latova Nodira Xudoynazarovna*

*Buxoro Davlat Universiteti*

*Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada baliq yetishtirish, intensiv, ekstensiv hovuzlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** baliq, intensiv, ekstensiv, karp, *Cyprinus carpi*, zog'ora, oq amur, xum bosh.

**Аннотация.** В статье приведены сведения о рыбоводстве, интенсивных и экстенсивных прудах.

**Ключевые слова:** рыба, интенсивная, экстенсивная, карп, *Cyprinus carpio*, сазан, белый амур, толсто лоб.

**Abstract.** The article provides information about fish farming, intensive and extensive ponds.

**Key words:** fish, intensive, extensive, carp, *Cyprinus carpio*, grass carp, thick forehead.

Dunyo aholisi soning ortib borishi, urbanizatsiya sifatli oziq-ovqat mahsulotiga bo'lgan talabni oshirdi. Aholi soning ortishi, ko'p qavatli binolarning qurilishiga olib kelgan bizning davrda ilm-fanning rivojlanishi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning optimal, samarali usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shunday samarali usullardan biri, vitamiv D, E ga, shuningdek fosforiga boy, tez hazm bo'luvchi, parhezboq gusht mahsuloti, baliq yetishtirish, xususan intensiv usullarda baliq mahsulotlarini yetishtirish hozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan sohalaridan biri bo'lishga ulgurdi.

Intensiv baliq yetishtirishning afzalliklari juda ko'p, to'gri tashkil qilingan hovuz xo'jaliklarida juda katta miqdorda baliq yetishtirish mumkin. Intensiv baliq yetishtirish, bu sun'iy suv havzalarida, hajmi kichik bo'lishiga qaramay katta mahsuldorlikni ko'rsatish degani. Bunday hovuz xo'jaliklari shahar atrofida, chekkaroqda, shuningdek yopiq inshoot holatida shahar ichida ham tashkil qilinishi mumkin.

Hovuz dehqonchiligi suv va yer resurslaridan tejamkor foydalanish usulidir. Bu xususiy hududni har tomonlama rejalashtirish va tartibga solishni o'z ichiga oladi. Baliq yetishtirishning ahamiyati, avvalambor, xaridorlar yangi va mazali mahsulotlarni muntazam ravishda olish imkoniyatiga ega bo'lishlaridadir.

Hovuz xo'jaligining amaliy ahamiyati katta, chunki u baliq yetishtiruvchiga katta daromad olish va aholini o'z vaqtida yuqori sifatli qimmatbaho mahsulotlar bilan ta'minlash imkonini beradi.

Ekstensiv baliq yetishtirish tizimi baliq yetishtirishning eng kam boshqariladigan shakli bo'lib, unda juda kam g'amxo'rlik qilinadi. Ushbu tizim 1 -5 gektargacha bo'lgan katta hovuzlarni o'z ichiga oladi, ularning zichligi 5000 baliq/ga dan kam. Qo'shimcha oziqlantirish yoki o'g'itlash ta'minlanmaydi.

Yarim intensiv akvakultura suv havzalari tizimidan baliq yetishtirishni qo'shimcha ozuqalardan foydalanish orqali tabiiy ravishda mavjud bo'lgan oziq-ovqat bilan ta'minlanadigan darajada ko'paytirishga qaratilgan. Qo'shimcha ozuqalar donli ekinlar, qishloq xo'jaligi va baliq xo'jaligining qo'shimcha mahsulotlaridan tayyorlangan yemlarga bo'ladi.

Buxoro, G'ijduvon, Qorako'l, Qorovulbozor tumanlarida 1 gektarda 100 tonna baliq yetishtirish intensiv usuli keng joriy qilinmoqda. 70 gektar maydonda intensiv havzalar barpo etilayotir. Yaqin oylarda viloyatdagi 900 gektar sun'iy suv havzalarini intensivlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Baliq yetishtirish mahsuldorligi 4-5 barobarga oshiriladi. Bundan tashqari, intensiv suv havzalaridagi o'simlikxo'r baliqlar uchun "ryaska", "azolla" hamda "xlorella" kabi suv o'tlarini ko'paytirish yo'lga qo'yilgan. Bu borada Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya fakulteti Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrası, Zoologiya va umumiy biologiya kafedrası professor-o'qituvchilarining ilmiy izlanishlari, s'ay harakatlari juda katta ahamiyat kasb etadi. Soha mutaxassislari tomonidan doimiy viloyatdagi mavjud tabiiy suv havzalari monitoringi o'tkaziladi. Shuningdek, sho'rlik darajasi va iqlim sharoitiga mos bo'lgan baliq turlarini ko'paytirish bo'yicha Turkiya bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. ВАКШШУЛЛАЙЕВИЧ Т. В., ФАРМОНОВИЧ А. В., НАСИМОВНА Т. N. Determination Of Zooplanktons In Dengizkol Lake And Their Use In Fishing //JournalNX. – Т. 6. – №. 10. – С. 310-311.
2. Арипов Б. Ф. и др. Динамика биосинтеза белка различными штаммами почвенных актиномицетов //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 191-198.
3. Усмонова Д. ПОВЫШЕНИЕ ПРОДУКТИВНОСТИ И КАЧЕСТВА РЫБЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
4. Shamsiyev N. Morpho-Ecological Features Of Pikeperch (Stizostedion Lucioperca) In Lakes Of Ayakagytna In Uzbekistan //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

## БАНК ХИЗМАТ ТУРЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШДА ДАСТЛАБКИ ТАХЛИЛ ЖАРАЁНЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШ ЙЎЛЛАРИ

*Умаров Абдулқуддус Абдилхатович*

*Ўзбекистон Республикаси банк молия академияси, мустақил - изланувчиси*

**Аннотация.** Бугунги кунда банк хизматлари самарадорлигини оширишда замонавий янги банк хизмати турларини жорий этиш орқали хизматлар сифатини яхшилаш талаб этилади. Рақамли трансформация шароитида, банк инфратузилмасини янада ривожлантириш учун инновацион технологиялардан фойдаланилган ҳолда масофавий банк хизматларини кенг йўлга қўйиш йўллари;

**Калит сўзлар:** Тижорат банки, “йўл бошловчи” овозли робот, сунъий интеллект, потенциал мижоз, микроқарзлар, истъемол кредит, ипотека кредит хизмат турлари, ахборот технологиялари, рақамли инновацион технологиялар.

**Abstract.** Today, improving the efficiency of banking services requires improving the quality of services by introducing modern new types of banking services. Ways to widely establish remote banking services in the context of digital transformation, using innovative technologies for the further development of banking infrastructure;

**Keywords:** Commercial bank, voice robot "guide," artificial intelligence, potential client, microcircuit, mortgage loan, types of services, information technologies, digital innovative technologies.

Тижорат банкларни молиявий хизмат турларини яратишда бир вақтнинг ўзида устунликларини билан солиштирганда рақобатчиларга нисбатан хизматлар таннархи арзон ва қулай бўлишини тақозо этмоқда. Шунга кўра Ўзбекистон Республикасининг Президенти томонидан 2022 йил 28 январда ПФ-60 фармонида асосан 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси қабул қилинган. Мазкур Тараққиёт стратегиясининг 34-мақсадида “Худудларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали кейинги 5 йилда хизмат кўрсатиш ҳажмини 3 бараварга ошириш” вазифаси белгиланган <sup>1</sup>.

Ушбу вазифани амалга ошири учун банклар томонидан хизмат кўрсатиш ҳажмини кескин оширишга ўз эътиборини қаратишмоқда. Шунинг учун Республикамиздаги барча банклар ўртасида кучли банклараро рақобат муҳити вужудга келган. Банклар тақдим этаётган янги хизмат турларини сифати ва кўламини оширибгина қолмай балки, хизмат нархларини ҳамёнбоп, қулай шароитлар яратиш зарурати туғулмоқда.

Мижозларнинг асосий қатлами энг кўп фойдаланадиган молиявий хизмат турларидан бири–бу кредит ёки омонат кабилар ҳисобланади. Аммо масофадан бошқариш имкони мавжуд бўлган банк хизматлар кесимидаги бажариладиган хизмат турлари етакчи ўринларни эгалламоқда. Бироқ, банк мижозларининг асосий қатлами, яъни 65 фоизи анъанавий банк

хизматларидан фойдаланишни афзал кўрса, 35 фоизи эса масофавий банк хизмат турларидан фойдаланишни мақул кўрмоқдалар.


Марказий банк 2023 йил 1 январь ҳолатида жисмоний шахсларга ажратилган кредитлар қолдиғи бўйича статистик маълумот тақдим этди. Шунга кўра 2023 йилнинг 1 январь ҳолатига жисмоний шахсларга ажратилган кредит қолдиғи 2021 йилга нисбатан 31,45 трлн. сўмга (улуши 45,26 фоиз) кўпайган ва 100 трлн. 949 млрд. сўмни ташкил қилмоқда. Жами кредитлар қолдиғида жисмоний шахсларнинг улуши 25,9 фоизга етган. Жисмоний шахсларнинг кредитлари таркиби қуйидагича (2021 йилга нисбатан):

- ипотека кредитлари - 46,46 трлн. сўм (+29,25 фоиз);
- микроқарз - 14,65 трлн. сўм (+55,38 фоиз);
- истеъмол кредитлари - 23,18 трлн. сўм (+81,14фоиз);
- таълим кредитлари - 2,06 трлн. сўм;
- бошқа кредитлар - 36 трлн. сўм.

Ўтган 2021 йил тижорат банклари томонидан 7 та банк филиали ҳамда 220 та банк хизматлари офислари (БХО) фаолияти йўлга қўйилган. Бугунги кунда банк муассасалари сони 2 104 тага етиб банк хизматларидан туну-кун фойдаланиш имконияти яратилган. Шунингдек 835 та 24/7 режимида ишловчи ўз-ўзига банк хизматларини кўрсатиш марказлари ташкил этилган <sup>2</sup>.

1.1- жадвал

Жисмоний шахсларнинг кредитлари таркиби



Юқорида келтириб ўтилган таҳлил жараёнлар рақамли трансформация шароитида истеъмолчиларининг хатти-ҳаракатини ўрганиб ва кўплаб изланишлар олиб боришни талаб этадиган жараён ҳисобланмоқда <sup>3</sup>.

Банклар бозоридаги рақобатни сақлаб туриши учун фақат инновацион рақамли ёндашувлар асосида янги стартапларини жорий этиш бўйича турли тадқиқотлар олиб бориш лозим бўлмоқда. Шунга кўра банклар ўз мобил иловаларини бир неча функциялардан иборат бўлган рақамли трансформация имкониятлари модернизация қилишини тақозо этмоқда <sup>4</sup>. Бундан ташқари, банклар ўзининг иловаларини янада самарали бўлиши учун

ягона инфратузилмасини яратиш лозим. Шунингдек қўл меҳнати билан бажариладиган функцияларни босқичма-босқич бекор қилиш орқали банк фаолиятини автоматлаштиришга асосий эътиборини қаратилиши керак.

Демак, масофадан хизмат кўрсатиш тизимлари асталик билан ривожлантириб бориши натижасида мижозларни хужжатлаштириш жараёнига кетадиган вақт бирлигини тежаб қолишга эришилади. Шунингдек ҳамма хужжатлар онлайн тарзда юритилиши натижасида, офис ва филиалларни таъмирлашга кетадиган харажатларнинг қисқариши, банк иловалари ёки интернет орқали хизмат кўрсата олиш имконияти пайдо бўлади.

Ушбу жараёнларни ташкил қилиниши, банк операцияларини қулай вақтда ва ўзи истаган жойда амалга ошира олиши керак. Банклар томонидан онлайн микроқарз масофавий хизмат турларини кенгайтириши орқали ушбу хизмат турларини тобора ривожланиб боришига туртки бўлади <sup>5</sup>. Бундан ташқари молиявий технологиялар тобора тараққий этиб бориши натижасида масофавий банк хизматларини кўрсатиш тизим ҳам тараққий этиб бормоқда.

Масофавий хизмат кўрсатишда компьютер, смартфон орқали бажара олиш имкониятлари яратилганидан сўнг мобил иловалардаги банк хизматларидан фойдаланувчилар сони кескин ортиб бориши кузатилади.

Бунинг натижасида мижозлар банк филиалларига бориб мурожаат қилиш учун навбат кутиб туришдаги сарифланган вақт бирлигини тежаб қолишни аста секин тушуна бошлашди. Олиб борилган тадқиқотларимизга шуни қўшимча қиламизки масофадан хизмат кўрсатиш тизимидан фойдаланувчилари ўз эҳтиёжларини қондиришда масофадан барча банк хизматларини бажара олиш тизимни мақул топмоқдалар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикасининг Президенти томонидан 2022 йил 28 январда ПФ-60 фармонида асосан 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси.
2. Марказий банк 2023 йил 1 январь ҳолатида жисмоний шахсларга ажратилган кредитлар қолдиғи бўйича статистикаси.
3. Татаринова Л.В., Перфильева О.О. Банковский розничный бизнес: его роль и значение в деятельности кредитной организации // Baikal Research Journal. 2017. №2. – С. 2.
4. Козырь Н.С., Гетманова А.В. Технологии в сфере дистанционного банковского обслуживания: анализ и перспективы развития // Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2016. №25
5. Norov A.R. and others. Mechanisms for the development of distance banking services provided by commercial banks to individuals. // Academia Globe: Inderscience Research. ISSN: 2776-1010 Volume 3, Issue 4, Apr, 2022.
6. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

## QALBLAR RASSOMI ZULFIYAXONIM IJODI

*G`ofurova Gavhar Botir qizi*  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi*  
*tibbiy pedagogika fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif o`zining Zulfiya ijodini o`rganish mobaynidagi his qilganlari, uni hayratda qoldirgan kechinmalarini yozgan. Zulfiya she`rlarida o`z hayotining jon tomiri urib turganini ko`rsatib bergan.

**Kalit so`zlar:** “hayot varaqlari”, mushoira, «Bahor keldi seni so‘roqlab», «Orzu to‘lqinida oqaman.», Hamid Olimjon

**Annotation.** Article covers the author’s research in the study of Zulfiya's work, experiences that surprised her. Puts the case that Zulfiya's poems show her life’s soul beating.

**Key words:** “hayot varaqlari”, mushoira, », «Bahor keldi seni so‘roqlab», «Orzu to‘lqinida oqaman.», Hamid Olimjon

Xonamda kompyuter qarshisida o`tirar ekanman, You Tube sahifasida Zulfiyaxonim haqidagi hujjatli film chiqib qoldi. O`ylab o`tirmay uni ko`rishni boshladim. Ellik sakkiz daqiqalik hujjatli film. Hayotda har bir insonning hayoti kitob qilib yozgulik bo`lur. Lekin rejissyorlar nega aynan Zulfiyaxonimning hayotini film qilishga kirishishdi? Savollar boshimda aylana boshladi. Javoblar esa xuddi yerda emas osmonlarga yashiringandek, buni Zulfiya o`zi bilan olib ketgandek edi.

Eng gullagan yoshlik chog`imda ,  
Sen ochilding ko`ngil bog`imda.  
Shunda ko`rdi ko`zim bahorni,  
Shunda qalbim tanidi yorni.

\*\*\*

Men hujjatli filmni ko`rishda davom etar ekanman uning bu so`zlaridan beixtiyor jilmaydim:

“...Yozishni boshlaganimga ancha bo`ldi. Va 1933-yilda birinchi she`riy to`plamim chiqdi. Yosh ekanman, o`ylamasdan bu to`plamga “Hayot varaqlari” deb nom berdim. 18 yashar qizda qanday hayot varaqlari bo`lishi mumkin?... “

Xuddi meni va atrofimdagi yoshlarni aytgandek bo`ldi. Balki, biz hayot sinovlari deb ataydiganlarimiz yillar o`tib ko`zimizga bolalikning beg`ubor rang-barangligidek ko`rina boshlar. Balki shunday shaffof fikrlari uchun biz uni hamon yodda saqlarmiz.

Baxtim bor: ajoyib kishilar aro,  
Tug`ilib, gurkirab... keksayar umrim,  
O`shalar she`ringa baxsh etgan sado,  
Hayotim yo`lini yoritgan nurim.  
Biri yuzlarimga baxsh etar kulgu,  
Biri qonlarimga solar hayajon.

Biri olg'a chorlar bo'lib oq orzu,  
Biri der: hayotsan, yur orzu tomon.

\*\*\*

Kichkina Zulfiya tabiatni sevar, uzoqlarga tikilib onasi Xadicha opadan uzoqdagi tog'lar orqasida nimalar bor deb so'rar edi. Hech kim bilmaydi, uyoqlarda hech kim bo'lmagan. O'sha patylarda Zulfiya oradan qanchadir vaqtlar o'tib, jahon kezishini, ko'plab adabiy mukofotlar olishini, uning she'rlari Afrika va Hindiston, Rossiya va Qozog'istonda yangrashini o'ylaganmidi? Kurrayi zaminning turli joylaridan she'riyat muxlislari unga yuzlab xatlar yuborib, Indira Gandining o'zi Zulfiyaga "Nilufar" nomli nufuzli mukofotni taqdim etgan. Zulfiyaning yuraklarni zabt etgan misralarni qanday atash mumkin? Madhiya, tarona... Yo'q, bu so'zlarda qandaydir tantanavorlik bor. Zulfiya she'riyatiga xos xususiyat – chuqur samimiyat, nozik o'ychanlik, nurli dard va yorqin obrazlilikdir.

Endi Hindistoni ustida oftob,  
Shuning-chun yosh, dadil, munavvar boqar,  
Bizni she'r bahsiga qiladi xitob  
Qo'shiq yuraklardan daryoday oqar.

Go'zal tarjimondir zangori oqshom,  
Har yurak hamdam,  
Bizning mushoira etadi davom,  
Do'stim, kel sen ham!

\*\*\*

Anna Axmatova uning eng yaqin do'stlaridan bo'lgan, o'zbek nonlarini tatib ko'rishiga ham bizning shoirimiz sabab bo'lgan. O'zbek namoyonda shoir va yozuvchilari Zulfiya oilasining ham do'sti ham mushoiradoshlari bo'lishgan. Bulardan Oybek, G'afur G'ulom, Mirzo Tursunzoda, Jalol Ikromiy, Sadridin Ayniy, Sajjod Zohir, Stepan Shipachyov, Qaysin Quliyev, Marvarid Dilboziy, Mustay Karim uning xonadoniga tashrif buyurib turishgan.

Qay dil chamani boy, jozib nafasi,  
Kimning fikri o'tkir, teran, bokira?  
Bu gurun – shoirlar musobaqasi –  
Sharq she'riy chamani, bu mushoira!

Hind tuprog'i uzra quyilib oqshom,  
Kunduz olgach dam,  
Jo'shqin mushoira etadi davom,  
Do'stlar bo'lib jam.

\*\*\*

Zulfiya she'rlari harorat bilan bitilgan ehtirosli, hayotbaxsh she'rlardir. Ular xoh vatan haqida, uning go'zal tabiati, mehnatkash odamlari, buyuk bunyodkorlik qudrati xususida bo'lsin, xoh insonlarning turfa his-tuyg'ulari: mehr-muhabbat,

quvonch-u shodlik, baxt, saodatni tarannum etishga bag'ishlangan bo'lsin, barchasida hayotsevarlik, o'quvchida yorug' kayfiyat paydo etish istagi hukmronidir.

Bu fikrning isbotini shoiraning «Orzu to'liqinida oqaman.», «Bahor keldi seni so'roqlab», « Biri yuzlarimga baxsh etar kulgu», she'rlari misolida ko'rib chiqish mumkin.

Hayot kitobimni bexos varaqlab,  
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.  
Tabassum o'rnida kuldim charaqlab.  
Suyish kerak bo'lsa - telbacha suydim.

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,  
Yurak boyligidan qilmabman parvo.  
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,  
Yangi qo'shiq talab unda har saboq.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,  
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:  
Suydim,  
Erkalandim,  
Ayrildim,  
Kuydim,  
Izzat nima - bildim.  
Shu-da bir yashash!..

\*\*\*

Shoiraning she'rlari haqida, ularning latofati, insoniy jozibasi, teranligi to'g'risida juda ko'p gapirish mumkin. Lekin men bugun boshqa bir savolga javob izlayapman – Zulfiyani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo'shgan asosiy omil nimadir? Menimcha. Bu – uning e'tiqodi, juda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarini, dili bilan tilining birligi, she'rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o'zi hayotda og'ishmay amal qilganida.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,  
Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.  
Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,  
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.  
Bahorgi burkangan sen sevgan elda,  
Ovozing yangradi jo'shqin zabardast.  
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,  
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

\*\*\*

Qo'limga qalam oldim. Kompyuter o'chirdim. Vujudimdagi borini she'r qilib qog'ozga to'kib sochishni istardim . Negadir shu dam mening niyatim o'z dardimni emas, Zulfiyaning kechirganlari haqida yozish edi. 20 yoshli qalbm bilan

unga ham havas ko`zi bilan, ham ayanch hissi bilan boqardim. Bir ayol uchun qayerdan shuncha sinov? Va bir ayol uchun qanday qilib bunchalik shuhrat? Yo`q. qani, bir so`z kelsa.

She`riyat o`rgatiladigan fan emas, uning kitobi yo`q. U ichingda bo`ladi. Shoiramiz esa she`riyatning ichida bo`lgan, yashagan. Nafasi so`z, nigohlari satr bo`lgan bu ayolni bizning qalbimiz unutsada, har bahor shamoli bilan u yana kelaveradi, har o`rik gullaganda iforlari eslataveradi...

Hissiyotga tōldirib dilni,  
Kengaytirib kichik kōngilni,  
Duolarga ijobat etib,  
Tabiatni chamanzor etib,  
Baxtimizdek kularmish Bahor,  
Bugun tunda kelarmish Bahor..

\*\*\*

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зулфия. Асарлар. Уч томлик. -Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983-1986 йил.
2. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. –Т.: Sharq 2006.
3. Ёўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари. Тошкент:Ўқитувчи, 1996.
4. Yo`ldoshev Q. B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo.,ldoshbekov. Adabiyot. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. –Т.: Sharq,2013.
5. ҲасановаҲ. Мактабда Зулфия ижодини ўрганиш. Тошкент, Ўқитувчи, 1991.
6. Kenjayev. F. (2022). Interpretations of the Image of Jaloliddin Manguberdi in the Literature of the Independence Period. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 4, 42-45.
7. Norov.I., & Javlon.Y. (2021). “ANALYSIS OF STARRY NIGHTS”. Research Jet Journal of Analysis and Inventions, 2(02), 1-3.
8. Ўрта махсус, касб хунар таълимининг умумтаълим фанлари Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. –Т.: Шарқ, 2008.
9. ҚамбароваС. Мустақил мутолаа ва адабий таҳлил. Тошкент, 2015.
10. Qayumov A. Shoira Zulfiya. Hayoti va ijodi haqida ocherk. O.,zadabiynashr, Toshkent, 1975.

## SH.SEYTOVTIŃ «XALQABAD» SHIĞARMASINDA SESLIK TÁKIRARLARDIŃ QOLLANILIW ÓZGESHELIKLARI

*Miyirbek Allamuratov*  
*QMU, 2-kurs magistranti*

**Annotasiya.** Bu maqolada badiiy asar tilining fonostilistik tahlili haqida soʻz boradi. Qoraqalpoq adabiyotida oʻz oʻrniga eʼga boʻlgan yozuvchilardan biri Sh.Seytov ijodi va uning «Xalqabad» nomli asariga fonostilistik tahlil olib borilgan. Alliteratsiya, assonans va tovushli takrorlarning xususiyatlari misollar yordamida ochib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье речь идет о фоностилистическом анализе языка художественного произведения. Проведен фоностилистический анализ творчества Ш. Сейтова, одного из писателей, занявшего место в литературе Каракалпакии, и его произведения под названием «Халкабад». На примерах раскрываются особенности аллитерации, ассонанса и звукового повтора.

**Annotation.** This article deals with the phonostylistic analysis of the language of the artistic work. A phonostylistic analysis of the work of Sh. Seytov, one of the writers who has a place in the literature of Karakalpak, and his work called «Khalqabad» was carried out. Features of alliteration, assonance and sound repetition are revealed with the help of examples.

**Kalit soʻzlar:** fonema, tovush, alliteratsiya, assonans, fonostilistika, fonopoetika, fonostema, fonosemantika, tovushli takror.

**Ключевые слова:** фонема, звук, аллитерация, ассонанс, фоностилистика, фонопоэтика, фоностема, фоносемантика, звуковой повтор.

**Key words:** Phoneme, sound, alliteration, assonance, phonostylistics, phonopoetics, phonosteme, phonosemantics, sound repetition.

Til – jamiyet aʼzolari bir-biri menen baylanis ornatiwında eń áhmiyetli qural. Tildiń atqaratuǵın xızmeti, jamiyet rawajlanıwında tutqan ornı ayırıqsha. Sonlıqtan da, házirgi kúnde til bilimi túrli baǵdarlarda, túrli paradigmalarda óz izertlew obyektlerine iye bolmaqta. Usı orında kórkem shıǵarma tilin izertlew házirgi til bilimi tarawında ayırıqsha áhmiyetke iye ekenligin atap ótiw ornlı.

Qaraqalpaq ádebiyattanıwında óziniń qunlı shıǵarmaları menen óz ornına iye bolǵan talant iyesi Sh.Seytov shıǵarmaların tillik aspektte analizlew lingvopoetikaniń áhmiyetli máselelerinen. Óytkeni, onıń shıǵarmaları mazmunı jaǵınan qaraqalpaq xalqınıń táriyxı hám búgininen sóz etse, sózlik quramı qaraqalpaq ádebiy tiliniń altın gáziynesini menen suwǵarılǵan. Onıń keń kólemli shıǵarmalarınan biri «Xalqabad» romanı bolıp, ondaǵı seslik tákirarlardı analizlew arqalı biz shıǵarmaǵa fonostilistikalıq analiz jasaymız.

Tákirardıń túrleri haqqında ilimpaz Sh.Asqarova bılay pikir bildiredi: Tákirardıń tiykarǵı birneshe túrleri bar:

1. Tákirarlanıwshı til birlikleriniń xarakteri – ses, morfema, sóz, frazeologizmler, turaqlı dizbekler, morfologiyalıq formalar, leksikalıq bloklar, sintaksislik konstrukciyalardıń tákirarı;

2. Tekst quramında bir-birine qalay jaylasıwı belgisi boyınsha kontakt hám distant tákirar;
3. Kompoziciyalıq xızmetleri boyınsha tekst quramında anaforalıq, halqa, epiforalıq, qatar, bánt tákirarı;
4. Tekstte birliklerdiń tákirarlanıwı boyınsha eki, úsh hám kóp mártebe keliwshi tákirarlar;
5. Tákirarlanıwshı birliklerdiń xarakteri boyınsha tolıq hám jartılay tákirarǵa ajratıladı. [1;12-13]

Shıǵarmalardıń fonostilistikalıq ózgesheliklerin analizlewde tákirar hám onıń túrlerine dıqqat qaradı. Yaǵnıy, alliteraciya, assonans, anafora, epifora, rifma hám fonetikalıq ózgerislerden assimiliyaciya, dissimiliyaciyalarǵa dıqqat awdarıladı. Túrkiy tillerdegi fonostilistikalıq izertlewler máselesi qaraqalpaq tiliniń fonostilistika máselesi menen tıǵız baylanıslı óytkeni, tuwısqan tiller bir-birine tásir etpesten qoymaydı. Atap aytqanda, qazaq til biliminde Abay shıǵarmaları tiline baylanıslı E.Ísmayılov, Z.Shashkin, R.Sızdıqova, O.Búrkit, A.Baytursınovlardıń miynetlerinde sóz etilgen. Seslik tákirar termini eń dáslep O.M.Brik miynetlerinde ayılǵanlıǵı hám seslik tákirar negizinen dawıssız seslerdiń tákirarlanıwınan turatıǵanlıǵı bul miynetlerde ashıp beriledi. [4;66]

Ózbek til biliminde bul másele boyınsha óz izertlewlerin alıp barǵan ilimpazlar sıpatında A.Shofqorov, S.Karimov, O.Tursunovalardı atap ótiw orınlı. Olar óz izertlewlerinde fonostilistika, fonosemantika, fonostema, fonopoetika sıyaqlı terminlerge keńirek túsiniq beredi.

Al, qırǵız tilinde bolsa, Z.Alımbaeva, L.Kalchaeva, fonostilistika ilimi hám onıń izertleytuǵın máselelerine keń túrde analiz jasaydı. Ilimpaz M.Alıshova seslik tákirar hám olardıń izertleniw máselesine baylanıslı bılay deydi: «Tildiń eń ápiwayı, tiykarǵı elementi – ses. Poetikalıq tildegi baslapqı element – bul ses, sózdegi ses, al evfoniya, fonetikalıq qaytalawlar, fonetikalıq shólkemlestiriw usılları – alliteraciya, assonans, garmoniya, sonıń menen birge, paronimiya – poetikalıq fonetikanıń problemaları bolıp tabıladı». [2;239]

Kórkem shıǵarmanıń tilin izertlewde belgili jazıwshı Sh.Seytov dóretiwshiligine ayrıqsha dıqqat awdarılıwı tosınan emes. Onıń shıǵarmalarınń sózlik qorı júdá keń. Sonlıqtan, avtordıń prozalıq shıǵarmaları ǵana emes poeziyası da izertlew obyektine alınǵan. Atap aytqanda, izertlewshi A.Dosımbetova: «Sh.Seytovtıń erkin qosıqlarında ritmdi júzege keltiriwde elementar tákirar quralları: alliteraciya, assonans, anaforalar belgili áhmiyetke iye. Bul formalıq birlikler qosıqtaǵı ayırım sózlerge ayrıqsha kúsh baǵıshlaydı hám olardıń ózine tán ayılıw intonaciyasın bildiriw qálpin payda etedi»- dep kórsetedi.[3;17]

Sh.Seytovtıń «Xalqabad» romanındaǵı frazeologizmlerdiń fonostilistikalıq ózgesheliklerin ayrıqsha izertlegen alım B.Yusupova bılay deydi: «Fazeologizmler – Sh.Seytov shıǵarmalarında obrazlılıq hám kórkemlik jasaw qurallarınıń biri. Olardıń seslik úylesimge tiykarlangan túri shıǵarma tiliniń ótkir, obrazlı bolıwına xızmet etiw menen birge jazıwshı shıǵarmasın kórkemlik jaqtan bezep, oǵan sulıw, qulaqqa jaǵımlı seslik sıpat endirip, kórkem sán beredi». [5;110]

Sesli tákirarlar haqqında sóz bolganda, alliteraciya hám assonans kóz aldımızğa keledi. Alliteraciya – qatarlar hám ondağı sózlerdiń basında birdey dawıssız seslerdiń tákirar qollanıwı al, assonans bolsa, qatar kelgen sózlerdiń basında birdey yamasa uqsas seslerdi kórkemlik, stillik maqsette tákirarlap qollanıw usılına ayıladı. [5;17-20]

Jazıwshı shıǵarmalarında alliteraciyanıń ájayıp, uyqasımlı túrleri qollanılgan. Atap aytqanda: Qarańǵıda qarmalanıp barıp, Nazarbaydıń ózi ot salıp qayıp, óli tósegine kirdi. (97-b) Qudaybergen qaǵıp jiberip jabısıp qalǵan qatlamdı pıtırlatıp jazdıra berdi. (101-b) Hámiwdáryanıń suwı jaqpay júrgen bolmasa, kolxozǵa kirmeseń ilayım teris kii-ir... (111-b) Qonaq kelse, ketkenshe qabaq shıtpasın... (141-b) Kolxozlasıw jónindegi jıyılısımızdı ashıq dep esaplaymız, ha-aww, tını-ıshsh! .. A-aal, ashtıq... (156-b) Bul mısallarda -q,-k,-j sıyaqlı seslerdiń qaytalanıwı nátiyjesinde shıǵarmanıń mazmunına hám formasına da ózgeshe tásir jasap turǵanlıǵı seziledi.

Tómendegi mısallarda bolsa, -b,-m,-sh,-s háripleriniń qaytalanıwı alliteraciyanıń ájayıp úlgilerinen: ...barmaǵın shoshańlattı Shundi. (102-b) Maqaw Madiyar menen Sayımbet jańaǵı sózdiń boların bilip qashqan-aw...(109-b) Mızǵımasam, mılamajarman.. (99-b) ...búyrektey búlkildep Ayxan shıqtı. (120-b) Tap shúkarada Shundi otırıp edi. (130-b) Sayımbet suwdır ma, suwdır emes pe? (161-b)

Keltirilgen mısallarda seslerdiń qaytalanıwı hám ózgertilip ayılıwı nátiyjesinde shıǵarma mazmunına tásir etedi: -Oqıyúwes... Sıdıq a-ǵaaaww...-Taǵı da qıráhát,taǵı da kóz jumıw, taǵı bóliyiw, taǵı jılanıp, jalınıw: -Oqıyúss...(99-b) Bunı ırázáńki bulawǵa salıp, jumalaq bergende eplep sawaltıwǵa bolar edi. (102-b) -GPUǵa baraman da miliyse ákelip qamataman (135-b) Jú-úr, júúrr! Artıńa qarawǵa haqqıń joq. (140-b)

Seslik tákirarlardıń jáne bir túri assonanslar bolıp, olar dawıslı seslerdiń tákirarlanıwı nátiyjesinde jasaladı. Shıǵarmada tómendegishe assonanslardıń úlgilerin kóriwge boladı: Aqırı as-abatın da berip jiberdik. (114-b) ...kim ne sorasa da artın ayta almaydı. (278-b) Madiyar aytarın aytıp bolǵan edi. (109-b)

Juwmaqlap aytqanda, kórkem shıǵarmanıń tili jazıwshınıń jeke sóz qollanıw sheberligi menen bayıp baradı. Hár bir kórkem sóz sheberi til birliklerin ózinshe paydalanadı. Sh.Seytov seslik tákirarlardan paydalanıwda kóbinese, alliteraciyalardan sheber paydalanǵan. Dawıssız seslerdiń tákirarlanıwı shıǵarmada jiyi ushırasadı. Bul máseleniń bir tárepiniń sóz etken B.Yusupovanıń miynetinde de «Xalqabad» romanındaǵı frazeologizmlerdiń quramında da alliteraciyalardıń kóp qollanılganlıǵın kóriwge boladı. Demek, sóz sheberiniń bul shıǵarmasın hár tárepleme analizlew fonostilistikaniń tolıǵıraq ashıp beriliwine ayrıqsha áhmiyetli.

### Paydalanilgan ádebiyatlar

1. Асқарова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида такрорнинг лингвистик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2019. Б-12-13.
2. Алышова М. Қырғиз жана англис тилдеринде дүйнөнүн тилдик сүрөтүн салыштырып изилдөө (көркем, стилистикалык тилдик қаражаттардың негизинде) Филология илимдеринин доктору окумуштулуук даражасын изденип алуу учун жазылған диссертация. Бишкек, 2020, Б-239.
3. Досымбетова А. Ш.Сейтов лирикасында көркем форма (дәстүрий хәм жаңа формалар синтези, сүүретлеў усыллары, еркин қосықлардың формалық өзгешеликлери) Фил.илим.канд.дисс.авторефераты. Нөкис, 2008, Б-17.
4. Қалиев Б. Абай өлеңдериндеги қайталамалар. Қарағанды университетиниң хабаршысы. Қарағанды. Филология сериясы. №3, 2009, Б.66.
5. Юсупова Б. Фоностилистика. Ш.Сейитовтың «Халқабад» романы тили фразеологиясының фоностилистикалык анализи. Ташкент, «Tafakkur avlodi», 2021. Б-110

## IKKINCHI SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINI O'TISHDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH

*Sobirova Mushtariybonu Ochil qizi*

*Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

*G'apurova Ug'iloy Ochil qizi*

*Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya  
fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada ikkinchi sinf o'quvchilarida tabiatshunoslik darslarini sinfdan tashqari ishlar jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tabiatga bo'lgan mehrlarini shakllanishida amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar :** granit, akvarium, terrarium, amaliy uslublar, retseptor, tajriba, obyekt, operatsiya, ekskursiya, gerbariy,

**Abstract.** The article discusses the effective methods of organizing practical work in the formation of love for nature in the second grade students in the process of extracurricular activities of natural science lessons.

**Key words :** granite, aquarium, terrarium, practical methods, receptor, experiment, object, operation, excursion, herbarium

Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo'lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o'ynab kelgan va kelmoqda. Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o'rganuvchi fan bolib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi. Amaliyot - haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi tabiatshunoslikni o'qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandır. U pedagogikada ishlangan tadqiqotlarga asoslanadi va o'z predmetini

o'qitish mazmuni hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda uning metodlaridan foydalanadi. O'quvchilarga tabiatni o'rgatib borish bilan o'qituvchi ularni ta'limni davom ettirish va amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimni o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantiribgina qolmay, dunyoqarashi, irodasi, xarakterini ham shakllantiradi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunga ko'ra tabiatshunoslikni o'qitishning shakl va metodlarini ishlab chiqadi. O'qitish jarayoni o'zaro bog'liq bo'gan qismlarni: predmet mazmunini, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini, fanni o'qitishni va ko'nikmalarni egallab olishni o'z ichiga oladi. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining vazifalari qatoriga o'quv fani sifatida tabiatshunoslik mazmunini aniqlash, o'qitishning metod va uslublarini

tadqiq etish, zarur o'quv jihozlarini tayyorlash kiradi. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o'qituvchi ularga asoslanib, shu fan bo'yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin.

Bilim odamlar miyasida oz-ozidan paydo bolmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bolib, bu oz navbatida, odamlarning o'zaro munosabatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol oynaydi. Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy - tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi [1].

1. Amaliyot bilish jarayonining rivojlantiruvchi omil. U nazariy bilimlarni umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yol qoymaydi.

2. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir.

3. Amaliyot bilish jarayoninig haqiqiy ekanligini ko'rsatuvchi mezondir. Tabiatshunoslikdagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bolib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo'lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi. Bilishning aniqligi muayyan obekt haqidagi ma'lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo'lsa, haqiqat ham boshqacha bolishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv  $100^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi. Lekin bosim o'zgarsa yoki og'ir suv bolsa, u aniq - konkret hisoblanadi. Ma'lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o'zgarishi mumkin. G'oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi. Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi. Amaliy uslublarning turlariga [2]:

1. O'quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi.

2. Rasm chizishi.

3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari.

4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari.

5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak. Tabiatshunoslik darslari tanib olish va aniqlash amaliy metodlarining bir turi bo'lib, tarqalgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini farqiga borib, tanib olish xususiyatlarini o'rgatadi. Taqqoslashdagi farqga borish o'quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi, o'qituvchi

tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o'simliklarni topish va to'plashni, namunalar yig'ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o'zgaruvchanlikni o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlab berishi kerak.

Tajriba atrof olam bilan tanishish darslarida bilim olish faoliyatini faollashtirish maqsadida dasturlashtirilgan o'qitish usullaridan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatadi. Bu usullarning afzalligi shundaki, o'quv materialini o'zlashtirish darajasini o'quvchilarning o'zlari shu dars mobaynida tekshirishlari mumkin. 2 - sinfda dasturlashtirilgan o'qitishda tezis turidagi tarqatma topshiriqlar, raqamlar, tarqatma testlar, grafik topshiriqlardan foydalanish mumkin. Grafik topshiriqlarini bajarayotganda o'quvchilarga « — » noto'g'ri javob, «1» — to'g'ri javob ekanligini tushuntirish lozim. O'qituvchida esa grafik usuldagi javoblarni tezda aniqlashga moslashtirilgan asbob bo'lishi kerak. Masalan: 21- mart — Navro'z bayrami. 1- sentabr — Ustozlar va murabbiylar kuni. 1- oktabr — Mustaqillik bayrami. 8- dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni. «So'z top» o'yini. Bu metoddan darsning hamma qismlarida foydalanish mumkin. O'qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir so'z aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar. O'qituvchi boshlagan so'z qaysi harf bilan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak. Masalan: tulki — ilon — ninachi — it — tipratikan — nortuya — yalqov (panda) — ayiq — qarg'a — ari va hokazo. Bu usul o'quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Klaster» usuli. Bu usul o'quvchiga berilgan mavzu bo'yicha erkin o'ylash va fikrlarini bemaol bayon etish uchun sharoit yaratadi. Bu usulda o'quvchi nimani o'ylagan bo'lsa, shuni aytadi va yozadi. Yozilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu sinfning har bir o'quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirib, ular o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

«Klastyer» usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o'quvchini darsga qiziqtirib, shu mavzu bo'yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'tkaziladi. Masalan, «O'lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar» mavzusi.

«Mozaika», ya'ni mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo'laklarga bo'linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo'lakchalarni bir butun ko'rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

«To'xtab o'qish» usuli. O'qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga tegishli bo'lishi zarur. Yoki o'quvchi matn o'qish jarayonida to'xtatilib, nima haqida o'qiganligi so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

O'quvchilar kuz faslida hosilni yig'ish, ularni saqlash qoidalari bilan tanishadilar, urug'larni yig'adilar, tuproqqa ishlov beradilar, rezavor mevalar, buta va mevali daraxtlarni qishga tayyorlaydilar. Bundan tashqari o'quvchilar mevali daraxtlarning tanasi hamda asosiy poyasidagi eski po'stloqlarini olib tashlaydilar, tana atrofiga tuproq tashlaydilar, unga o'git soladilar va manzarali butalar o'tkazadilar. Boshlangich sinf o'qituvchisi o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlarni tashkil qilishda, iqlim sharoitlarini, maktabning hududida joylanishini hisobga olishi va barcha masalalarni biologiya o'qituvchisi bilan kelishib olishi lozim. Tajriba yosh tabiatshunosning qishloq xo'jalik tajribalari va qo'shimcha amaliy ishlari bazasidir: chunki u yerda tabiatshunoslik darslarida o'rganiladigan o'simliklar o'stiradi. Boshlangich sinfdan boshlab o'rganadilar, tabiat ustida kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Boshlangich maktabda o'qish vaqtida ularda aniq material to'planadi va bu material o'lkashunoslik burchagida joylashtiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005- yil
3. A.Baxronov, Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
4. A.Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.
5. G.M.Sayfullaev. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma Buxoro-2020.
6. G.M. Sayfullaev. Biologiya promislovix xishnix vidov rib, Nizovya basseyna reki Zarafshan. Buxara-2020
7. Сафарова М.С., Хамитова Ф.А. Непосредственное влияние заболеваний челюстно-лицевой области и зубов на психику и внутренние органы// Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации . – 2015. - №2 – С. 4-6.

## THE DIFFICULTIES FOR 2<sup>nd</sup> GRADERS TO LEARN MATH

*Ozoda Sarimsakova*

*Teacher, School 33, Jonboy district, Samarkand*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 2-sinf o'quvchilari uchun matematika fanining ahamiyati va matematika fanida o'quvchilarda uchraydigan muammolar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika darslari, tanqidiy fikrlash, geometric topshiriqlar, sonlar nazariyasi, ehtimollik va statistika, og'zaki topshiriqlar, yozma topshiriqlar, logika

**Annotation.** This article highlights the importance of mathematics for students of the 2nd grade and the problems encountered by students in mathematics.

**Key words:** math lessons, critical thinking, geometric assignments, number theory, probability and statistics, oral assignments, written assignments, logic

**Аннотация.** В данной статье освещено значение математики для учащихся 2 класса и проблемы, с которыми сталкиваются учащиеся при изучении математики.

**Ключевые слова:** уроки математики, критическое мышление, геометрические задания, теория чисел, вероятность и статистика, устные задания, письменные задания, логика

Mathematics is the foundation of everything from money, buildings and roads to the internet, food production and even hospitals. It helps us to perform various important daily tasks. During the early childhood period, children learn and start to use countless math-related concepts. This acquisition happens naturally as the child interacts with his/her surroundings and people around. The important role of mathematics recognized Cockcroft (1986: 1), for example, he writes: "It would be very difficult – perhaps impossible – to live a normal life in very many parts of the world in the twentieth century without making use of mathematics of some kind." There are some reasons for learning math for children.

1. Helps develop critical thinking skills in children
2. Develops a healthy brain
3. Teaches children how to deal with failure
4. Helps children understand the world around them
5. Encourages children to be creative
6. Teaches children to make decisions
7. Increases self-confidence
8. Encourages children to be persistent
9. Helps children develop important life skills


There are 2nd grade math content standards for math:

Numbers and operations;

Geometry and measurements;

Probability and Statistics.

This pie chart shows the percentage of children in 2nd grade at school No. 33 in Jonboy district of Samarkand region who are overcoming difficulties in mathematics lessons according to the sections.



In numbers and operations, children must learn adding and subtracting numbers, three-digit numbers, the concept of multiplication, dividing the numbers, components of division is given.

In geometry and measurement, straight line, beam, section, flat surfaces, plane, angle, angle types, rectangle and square, properties of the angles of a rectangle and a square, making a right angle, properties of the sides of a rectangle and a square, making shapes on checkered paper, area concept, counting the area on grid paper, measurement units is learnt.

In Probability and Statistics, working on bugs, project, reverse operations, hours and minutes to inform participants, logical issues are given.

There are also some special problems in the book of second graders in each theme.



Oral assignments



Written assignments



Assignments completed in class




logical problems



Tasks to be done at home

It is normal for children to struggle with math. Math difficulties can manifest at different ages and in many ways. Many children face difficulties and obstacles in learning mathematics, both practical and emotional problems. Based on these problems, the teacher is tasked with solving learning difficulties, why they occur, and how to help children succeed in learning mathematics.

This bar chart shows the number of children in 2nd grade at school No. 33 in Jonboy district of Samarkand region who are overcoming difficulties in mathematics lessons according to the sections.



In order to overcome these tasks, teachers have several main tasks. First of all, it is necessary to overcome students' problems in solving logical tasks. A great way

to teach logical thinking in children is to ask them open-ended questions. Questions help children think on their feet to solve important problems. It also ensures that children express their views and opinions clearly.

In conclusion, it should be said that the role of mathematics in the development of children is incomparable. Understanding the problems and difficulties that arise in connection with this subject and finding a solution to them in time is considered important for the future of children to increase their interest in mathematics and to become educated.

### References

1. THE IMPORTANCE OF MATHEMATICAL POWER IN MATHEMATICS LEARNING
2. Kusmaryono International Conference on Mathematics, Science, and Education 2014 (ICMSE 2014)
3. Effectiveness of the Big Math for Little Kids Program on the Early Mathematics Skills of Children with Risk Group. By Özlem Altındağ Kumaş\* & Cevriye Ergül †. Athens Journal of Education - Volume 8, Issue 4, November 2021 – Pages 385-400
4. Understanding Children's Problem-solving Strategies in Solving Game-based Logic Problems. March 2021. International Journal of Technology in Education and Science 5(2):245-257 DOI:[10.46328/ijtes.98](https://doi.org/10.46328/ijtes.98). Mete Akcaoglu. Lucas John Jensen
5. Motivate Students to Solve Math Word Problems by Including Their Interests in the Problems' Stories. Cynthia Warger Jul 25, 2019

## O'ZBEKISTON UCHUN JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIK JARAYONI VA UNING ISTIQBOLLARI

*Saydazimova (Jabbarova) Shaxnoza Fozil qizi*  
*O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi*  
*Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya.** JST (Jahon Savdo Tashkiloti) faoliyati haqida va unga hozirda ko'zda kutilayotgan olamshumul harakatlardan biri O'zbekistonning a'zo bo'lishi, undan ko'zda kutilayotgan natijalar va istiqbollari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, JST (Jahon Savdo Tashkiloti), YeOI, a'zo bo'lish jarayoni, a'zo bo'lish shartlari,

**Kirish.** Ma'lumki, Jahon savdo tashkiloti (JST) - mamlakatlararo savdo qoidalarini boshqarib turuvchi, 1995 yilda tashkil etilgan yagona xalqaro tashkilotlardan biri hisoblanadi. Buni huddi jahonning markaziy bozori deb keltirishimiz mumkin. JST (WTO, ingl. World Trade Organization) ning asosiy maqsadlaridan biri davlat o'zini o'zi himoya qilishni kuchaytirish va iqtisodiyotini barqarorlashtirish hisoblanadi. JST davlatlararo savdo sotiqning amalga oshishida asosiy rijag vazifasini bajarib, davlatlarning tovar va xizmatlarida rivojlanish va raqobatga chiday oladigan raqobatbardoshlik darajasi yuqori bo'lishiga undovchi omil sifatida o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. Shu sababli ham O'zbekistonning iqtisodiy barqarorlikka erishishi va jahon bozoriga erkin va bevosita chiqa olishi uchun hozirda amalga oshirilayotgan harakatlar o'z samarasini berishi va JST ga a'zo bo'lish manfaatli sanaladi.

Xalqaro savdo rivojlanayotgan mamlakatlarning yalpi ichki daromadi, bandligini oshirish va kambag'allikni kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishiga yordam beradi. Mamlakatlar savdoga kirishishining uchta asosiy sababi qiyosiy ustunlik, miqyosdagi daromadning oshishi va nomukammal raqobatdir.<sup>1</sup>

Birinchi, davlatlar o'rtasidagi qiyosiy ustunliklardagi nomutanosiblik ixtisoslashuvni rag'batlantirish orqali savdo ustunliklarini yaratadi.

Ikkinchi, miqyosdagi iqtisodlardan transchegaraviy muvofiqlashtirish va tartibga solish choralarida hamkorlik qilish orqali foydalanish mumkin. Nihoyat, savdo siyosatidagi ko'plab amaliy masalalar jahon bozorida katta kuchga ega bo'lish va iste'molchilarning ortiqcha miqdorini qo'lga kiritish uchun nomukammal raqobatga olib keladi, bu esa monopolistik raqobat va oligopoliya elementlariga imkon beradi.

Demak, global miqyosda tovarlar va xizmatlar hamda kapital almashinuvi iqtisodiy rivojlanish va farovonlikning kuchli harakatlantiruvchisi bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu esa mamlakatlarni savdo integratsiyasini yanada rivojlantirishga olib keladi. Savdo bitimlari mintaqaviy yoki ko'p tomonlama bo'lishi mumkin, ammo mintaqaviy savdo ko'p tomonlama savdodan iqtisodiy jihatdan past bo'lsa-da, afzalligicha qoladi. Ammo savdoning ikkala turi ham birga

<sup>1</sup> McLaren, J. International Trade. Wiley 2012.

yashashda davom etmoqda. Nazariy jihatdan mintaqaviy va ko'p tomonlama savdo shartnomalari o'rtasidagi munosabatlarga katta e'tibor qaratilib, mintaqaviy savdo shartnomalari tariflarni belgilashdagi farqlar tufayli ko'p qirrali savdo munosabatlariga qanday ta'sir qiladi degan savolga e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, agar mintaqaviy savdo kelishuvlari ko'p tomonlama savdo doirasiga mos kelmasa, bu tariflarning mos kelmasligiga olib kelishi mumkin, bu esa global savdo tendensiyalariga putur yetkazishi mumkin.<sup>2</sup>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi siyosiy mavqeini hisobga olgan holda o'zini strategik mavqeyi va iqtisodiy ustuvorligiga ega davlat hisoblanadi. Shu o'rinda jahon savdosi bilan integratsiyasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va barqarorlashishi uchun harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajarishi mumkin. Bunga doir Prezidentimizning 2023-yil 2-iyunda imzolangan "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 181-sonli qaroriga ko'ra olib borilayotgan qator ishlar kelajakdagi iqtisodiy o'zgarishlar uchun qo'yilayotgan dastlabki qadamlardan hisoblanadi. Unga ko'ra "Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimini joriy etish hamda 2023-yilning 1-iyulidan Jahon savdo tashkiloti qoida va me'yorlariga muvofiq bo'lmagan normativhuquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishni taqiqlash bu tashkilotning O'zbekiston uchun naqadar katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi"<sup>3</sup>.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish" asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan. Bu maqsadga erishishda Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar bilan muzokaralar o'tkazish, mutaxassislarning tashkilot va ko'p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat, avtomobilsozlik va milliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish, eksportni qo'llab-quvvatlash va subsidiyalash choralari ishlab chiqish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

JSTga a'zo bo'lish jarayoni O'zbekistonda.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni 1994 yilda boshlangan, biroq o'sha paytdagi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash siyosati sababli 2005 yilda muzlatib qo'yilgan.

2016 yildan keyin amalga oshirilgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan so'ng 2018 yil mart oyida Tashqi savdo vazirligi tomonidan JST kotibiyatiga rasmiy murojaat taqdim etish yo'li bilan a'zolikka kirish jarayoni qayta boshlandi. 2019 yil iyul oyida O'zbekiston JST a'ziligiga Tashqi savdo rejimi to'g'risidagi yangilangan memorandumni va keyinchalik kirish uchun bir qator boshqa hujjatlarni, jumladan, tovarlar va xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha dastlabki takliflarni taqdim etdi.

<sup>2</sup> Bobakulov TI, Abdullayev UA. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik–T.: "Iqtisod-Moliya". 2019.

<sup>3</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 07/23/181/0328-son

Qo'shni davlatlarimiz JST ga a'zolik hujjatlari ko'rib chiqilishi esa quyidagicha tartibga amalga oshirilgan edi:<sup>4</sup>

Davlatlar	Ariza topshirish muddati	A'zolikka qabul qilinishi
Qozog'iston Respublikasi	1996-yil yanvar	2015-yil noyabr
Qizg'iziston Respublikasi	1996-yil fevral	1998-yil dekabr
Tojikiston Respublikasi	2001-yil may	2013-yil mart

O'zbekistonning JST tovar va xizmatlar bozoriga kirishi, savdo siyosatiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy siyosat vositalaridan foydalanish va qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash borasida JST a'zolarini xalqaro majburiyatlarni bajarish bilan erkin savdo qilishiga olib keladi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, a'zo mamlakatlarga iqtisodiy manfaat keltiradi. Tashkilotga a'zo bo'lishning ijobiy jihatlari quyidagilar:

1. iqtisodiy manfaat eng avvalo o'zaro mahsulot ayriboshlash yo'lidagi to'siqlarni olib tashlashga sharoit yaratadi;
2. mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatga iqtisodiy nizolar tinch yo'l bilan hal etilishi evaziga ijobiy ta'sir qiladi;
3. aholi turmush darajasini yaxshilanishiga turtki beradi, insonlarga sifatli mahsulot iste'mol qilish imkonini yaratadi;
4. liberal savdo mamlakat va alohida vatandoshlarning daromadlarini oshiradi;
5. mehnat bandligi sohasida ijobiy ta'sir qiladi;
6. savdo sohasidagi ortiqcha xarajatni kamaytiradi;
7. iste'molchilar uchun tanlash imkoni berib, eksport qilinayotgan mahsulotlar hisobiga milliy mahsulotlar tannarxini tushirishga xizmat qiladi;
8. milliy ishlab chiqarish hajmini oshiradi, budjetga pul tushumlarini ko'paytiradi;
9. tovar ayriboshlanishi texnologiyalar rivojiga hissa qo'shadi.<sup>5</sup>

O'zbekistonning JSTga a'zoliqi bo'yicha loyiha

Xalqaro savdo markazi tomonidan "O'zbekistonning JSTga kirishiga ko'maklashish" bo'yicha besh yillik loyihasi Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. 2020 yil fevral oyida boshlangan loyiha O'zbekistonning qo'shilish jarayonidan foydalanish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha rivojlanish rejalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ushbu loyihaning maqsadi JST qoidalariga mos keladigan savdo muhitini yaratish orqali O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat bo'lib, "O'zbekistonning JSTga kirishiga ko'maklashish" bo'yicha ishlab chiqilgan besh yillik loyihasi Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladi.

Qo'shilish bo'yicha muzokaralar dasturining asosiy benefitsiari: Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hisoblanadi. Shuningdek, loyiha

<sup>4</sup> [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/whatis\\_e/tif\\_e/org6\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm)

<sup>5</sup> Akhmadjonov O, Abdullaev A, Karimova S, Solijonova F. Jahon savdo tashkiloti boshqaruv tizimi. Scientific progress. 2022;3(2):343-7.

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, tarmoq biznes tashkilotlari va birlashmalari, eksport-import korxonalari, oliy o'quv yurtlari, iqtisodiy tadqiqot markazlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari, jumladan, xotin-qizlar, yoshlar va iste'molchilar uyushmalari bilan yaqin hamkorlik qiladi.

Loyihani amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad - tashkilot tomonidan belgilangan qoidalarga mos keladigan savdo muhitini yaratish orqali O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish hamda xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvini kuchaytirishdan iborat.

JSTga a'zolikka kirish jarayoni O'zbekiston uchun kamida 15 ta bitimda belgilangan majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga olishni taqozo qiladi. Bu bitimlar keng qamrovli va murakkab bo'lib, ular keng doirada jahon savdosi masalalarini qamrab oluvchi yuridik hujjatlarga tayanadi.

Xulosa. Mamlakatimizning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvni kuchaytirishga qaratilgan siyosati, avvalo, eksport salohiyatimizni oshirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu boisdan O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishi unga a'zo mamlakatlar bilan faol hamkorlik aloqalarini o'rnatish va istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bois ham O'zbekiston tashkilotga a'zolik borasida jiddiy tayyorgarlik ko'rmoqda. Binobarin, davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida qayd etilganidek, "Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha asosiy muzokaralarni yakunlab, ichki qonunchilikni moslashtirish, yangi standartlarni joriy etish ishlarini jadallashtiramiz".

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. McLarren, J. International Trade. Wiley 2012.
2. Bobakulov TI, Abdullayev UA. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik–T.: "Iqtisod-Moliya. 2019.
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 07/23/181/0328-son
4. [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/whatis\\_e/tif\\_e/org6\\_e.html](https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.html)
5. Akhmadjonov O, Abdullaev A, Karimova S, Solijonova F. Jahon savdo tashkiloti boshqaruv tizimi. Scientific progress. 2022;3(2):343-7.

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH

*Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
"Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti*

*Allaxova Gulshixra Yerejebayevna*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Shaxsning kreativligi ularning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Shuningdek, kreativlik zehni o'tkirlilikni belgilab beradi, o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayonlariga faol jalb etishni ta'minlaydi. Ushbu maqolada o'quvchilarning kreativ-ijodiy faoliyatlarini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan bo'lib, bu borada ko'pgina pedagog-olimlarning fikr-mulohazalari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, ijodkorlik, ijodiy fazilatlar, ijodiy qobiliyat, pedagogik fikrlash, ijodiy muhit, ijodiy fikrlash, ijodkorlik, shaxsiy ijodkorlik fazilatlarini, individuallashtirish, pedagogik tafakkur.

**Абстрактный.** Творческие способности человека проявляются в его мышлении, общении, чувствах и отдельных видах деятельности. Творчество характеризует человека в целом или его отдельные характеристики. Творчество также отражается как важный фактор таланта. Также креативность определяет остроту ума, обеспечивает активное вовлечение внимания учащихся в учебный процесс. В данной статье освещаются вопросы эффективной организации творческой деятельности студентов, анализируются мнения многих педагогов-ученых по этому поводу.

**Ключевые слова:** образовательная система, креативность, творческие качества, творческие способности, педагогическое мышление, творческая среда, творческое мышление, креативность, творческие качества личности, индивидуализация, педагогическое мышление.

**Abstract.** A person's creativity is manifested in their thinking, communication, feelings, and certain types of activities. Creativity describes a person as a whole or his specific characteristics. Creativity is also reflected as an important factor of talent. Also, creativity determines mental sharpness, ensures active involvement of students' attention in educational processes. This article covers the issues of effective organization of students' creative activities, and the opinions of many pedagogues-scientists are analyzed in this regard.

**Key words:** educational system, creativity, creative qualities, creative ability, pedagogical thinking, creative environment, creative thinking, creativity, personal creative qualities, individualization, pedagogical thinking.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni [1]da uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish asosiy vazifalardan etib belgilangan. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini zamon talablari asosida tashkil etishdan asosiy maqsad esa har tomonlama yetuk, barkamol, kuchli bilim va tafakkurga ega, kreativ qobiliyatlari shakllangan shaxslarni tarbiyalashdir.

Muhtaram Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida [2] hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim tizimini takomillashtirish va shu orqali o'quvchi-yoshlarning kreativ sifatlarini shakllantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Respublikamizda barcha umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini zamon talablari asosida tashkil etish, unga eng ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish va bu orqali ta'lim sifat-samaradorligiga erishish dolzarb hisoblanadi. Bu o'rinda o'quvchi-yoshlarning kreativ sifatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni ishlab chiqish masalasi alohida ahamiyatga ega. Avvalo, "Kreativlik" tushunchasiga izoh berib o'tamiz. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati hisoblanadi.

So'nggi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchilarda kreativlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Merriyman (2010 y.), Bronson, Fisher, Frey (2008 y.), Ken Robinson (2007 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) kabi olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda ko'rish mumkin. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida ushbu tushunchani shunday izohlaydi: *"kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim"*. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik *"muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish"* demakdir [3].

Ayrim tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini ta'kidlasalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. "Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida

noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.) [3].

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi? Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash; 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish

Tadqiqotchi N.Fayzullaeva pedagogik tafakkurga ega bo'lish uchun ta'lim oluvchilar pedagogikaga oid bilimlarni puxta o'rganish asosida quyidagi ko'nikma, malakalarni o'zlashtira olishlari zarur deb hisoblaydi: pedagogikaning asosiy g'oyalari, konsepsiyalari, qonuniyatlarini va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogik faktlarni bilish; ta'lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash [4].

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

a) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;

b) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan avval sinfda qulay kreativ muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan ta'lim oluvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish, motivatsiya ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti ta'lim oluvchilarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi [5].

Kreativ qobiliyatga ega bo'lgan ta'lim oluvchilarga xos xususiyatlar quyidagilar:

- ular boshqa ta'lim oluvchilarning hayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi;
- o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi; ba'zan mavzu aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar beradi;
- yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi; g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi;
- muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

Yuqorida aytilganidek, o'quvchilarda kreativlik sifatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra tadqiqotlarda shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritiladi.

Shunday omillar borki, o'quvchilarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari kerak.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Umumta'lim muassasalarida ham o'qituvchilar o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo'lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero, katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Olimlarning fikricha, o'qituvchi kreativlik darslarida jamoa tuyg'usining ahamiyatini angalagan holda, doimiy ravishda guruhlarni o'zgartirib, talabalarda jamoa bo'lib ishlash, boshqalar qobiliyati va mahoratini hurmat qilish ko'nikmasi shakllantiradi. Vaholanki, yakka tartibda ishlash ma'lum vaziyatlarda samara bersa, kreativlik darslarida kichik guruhlarda ishlash maqsadga muvofiqdir, chunki kreativlik ko'nikmasi ijtimoiy fenomendir. Xususan, Soyerning fikriga ko'ra, kreativ qarashlar jamoa bo'lib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida shakllanadi.

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ fikrga ega, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u o'quvchilarni kreativ fikrlashga rag'batlantira olmaydi. Darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- 2) talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija.

Pedagogning kreativlik potentsiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi :

1. Muammoli xarakterga egalik
2. Imkoniyatlarni oshirib borish
3. Kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi
4. Ijodiy yo'naltirilganlik
5. Individuallikka erishish
6. Bir butunlik, izchillik, tizimlilik

7. Shaxsning individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda orttirgan sifatlarining o'zaro uyg'unligi [7].

Kreativlik "turli vaziyatlarda ta'lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo'lib, u pedagogning ijodiy faolligini tavsiflaydi [9].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarini aniqlash, shakllantirish va uni rivojlantirish ularning kelajakda har tomonlama yetuk, keng fikrli, denyoqarashi keng insonlar bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi. Buning uchun o'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Usmonboeva M., To'raev A. "Kreativ pedagogika" moduli bo'yicha O'UM. Toshkent-2016.
4. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-bet
5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 6-7.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
7. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.посбоие. – Киров: АНОО "Межрегиональный СИТО", 2013. – 212 с.
8. Turdieva M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 15-b.
9. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. T.: 2016.

## FEATURES OF THE COURSE OF PNEUMONIA DISEASE IN FULL-TERM AND PREMATURE NEWBORNS

*Barotova Shakhlo Orifovna*

*Bukhara branch of the Republican Scientific Center  
for Emergency Medical Care,  
Republic of Uzbekistan, Bukhara*

**Summary.** The like hood of occurrence of both cardiovascular and other diseases increases with increasing body weight and age. Obesity is understood as a heterogeneous disease in which excess fat deposition in the body can be either an independent polyetiological disease or a symptom of various other pathological conditions. To analyze the pregravid and gravid periods in women who gave birth to children with congenital pneumonia, to consider clinical, laboratory and microbiological characteristics, as well as features of the course of this disease in full-term and premature newborns.

**Key words:** congenital pneumonia, obesity, newborns, premature babies.

**Цель.** Сходная частота возникновения как сердечно-сосудистых, так и других заболеваний возрастает с увеличением массы тела и возраста. Ожирение понимается как гетерогенное заболевание, при котором избыточное отложение жира в организме может быть либо самостоятельным полиэтиологическим заболеванием, либо симптомом различных других патологических состояний.

**Ключевые слова:** пневмония, ожирение, метаболический синдром, профилактика ожирения

**Мақсад.** Пневмония ва юрак-қон томир ва бошқа касалликлари тана вазни ва ёши ошиши билан ортади. Семизлик бунда организмда ортиқча ёғ тўпланиши мустақил полиэтиологик касаллик ёки бошқа турли патологик ҳолатларнинг аломати бўлиши мумкин. Пневмониянинг пайдо бўлишига ёрдам берадиган омиллар орасида ирсий мойилликка алоҳида ўрин берилади.

**Калит сўзлар:** пневмония, семизлик, метаболик синдром, семизликнинг олдини олиш.

**Background:** There is no set time for how long you'll be contagious once you have pneumonia. The time you may spread pneumonia to others is dependent on the type of pneumonia and what caused you to have it. Generally, if you have bacterial pneumonia, you are contagious for around 48 hours after starting antibiotics and your fever has gone away. If it is viral pneumonia, as symptoms start to go away (especially fever) so does the contagious period. Pneumonia caused by fungi are not contagious. Fungal pneumonia is most common in people with chronic health problems or weakened immune systems, and in people who are exposed to large doses of certain fungi from contaminated soil or bird droppings.

Pneumocystis pneumonia is a serious fungal infection caused by *Pneumocystis jirovecii*. It occurs in people who have weak immune systems due to HIV/AIDS or

the long-term use of medicines that suppress their immune systems, such as those used to treat cancer or manage organ transplants.

The following are three fungi that occur in the soil in some parts of the United States and can cause some people to get pneumonia.

Pneumonia is a leading cause of morbidity and mortality in children under 5 years of age worldwide, particularly in low- and middle-income countries. While previous studies have compared the clinical features and outcomes of pneumonia in children of different age groups, there is a lack of studies specifically comparing preterm and full-term infants <1 year of age with pneumonia. Given the high burden of pneumonia in this age group, understanding the differences in clinical presentation and severity between preterm and full-term infants may help guide clinical management and improve patient outcomes. The present study aims to fill this gap in the literature by comparing the clinical features and outcomes of pneumonia in preterm and full-term infants <1 year of age. Pathology of the respiratory system is one of the main causes of high morbidity and mortality in newborns. According to WHO, intrauterine infection ranks first among infections that cause child mortality [1]. Neonatal infections in premature infants are of particular medical and social importance [2]. Pneumonia is a serious problem that threatens the health of newborns. This study aimed to investigate the clinical characteristics of hospitalized term and preterm infants with community-acquired viral pneumonia. Pneumonia is one of the most common infectious diseases in the neonatal period and accounts for 46% of all neonatal diseases [1]. Moreover, the mortality rate of pneumonia is 1.2%, which ranks highest among all neonatal infectious diseases; thus, pneumonia is a serious problem that threatens the health of newborns [2]. The main pathogens of neonatal pneumonia are bacteria, viruses, and fungi [3]. In recent years, many studies of bacterial pneumonia in neonates have been published [4], but information on viral pneumonia in neonates is limited. Many viruses can damage the airway epithelial layer, thus increasing the likelihood of both adherence to the respiratory tract and bacterial translocation, two of the critical first steps in causing infection [5]. Viruses can also lead to dysfunction of the immune system, thereby promoting bacterial infection [6]. We retrospectively analysed all preterm and term neonates with community-acquired viral pneumonia over a 5-year period to study the aetiology and clinical features of these infants.

**Purpose:** The purpose of this study was to compare the clinical features of pneumonia in premature and full-term children under 1 year of age. Clinical features such as fever intensity, number of days of hospitalization, intensive care unit admission, and saturation levels were analyzed.

**Methods:** The retrospective study included 60 children under the age of 1 year admitted to the hospital (ARDMMC) with a diagnosis of community-acquired pneumonia in the period from January 1, 2022 to December 31, 2022. The children were divided into two groups: premature ( gestational age  $\leq 34$  weeks) and term ( gestational age  $>34$  weeks). Clinical features such as fever intensity, days of hospitalization, intensive care unit admission, and oxygen saturation (  $SpO_2$  ) were

analyzed. Statistical analysis was performed using a t test, with a p value <0.05 considered significant.

Results: The premature group consisted of 30 children, and the full-term group consisted of 30 children. The mean age of the preterm group was  $6.1 \pm 3.2$  months, and the mean age of the full-term group was  $7.2 \pm 2.9$  months ( $p=0.134$ ). The preterm group had higher fever ( $39.1 \pm 0.6^\circ\text{C}$ ) compared to the full-term group ( $38.7 \pm 0.5^\circ\text{C}$ ,  $p=0.022$ ). The preterm group also had a longer hospital stay ( $8.6 \pm 2.4$  days) compared to the full-term group ( $7.4 \pm 1.9$  days,  $p=0.012$ ). In addition, the preterm group had a higher rate of intensive care unit admission (60%) compared to the term group (30%,  $p = 0.031$ ). The preterm group had a lower oxygen saturation level ( $91.5 \pm 1.9\%$ ) compared to the full-term group ( $95.2 \pm 1.2\%$ ,  $p < 0.001$ ).

Conclusion: Our study indicates a more severe course of the disease in premature infants under 1 year of age with pneumonia than in full-term infants. They are more likely to have higher fever intensity, longer hospital stays, higher rates of intensive care unit admissions, and lower oxygen saturation levels. Therefore, they require more careful monitoring and treatment to prevent complications and improve outcomes. Clinicians should be aware of these differences in clinical presentation and consider them when treating pneumonia in children less than 1 year of age. Women who gave birth to children with congenital pneumonia have a burdened obstetric history in the form of repeated threats of termination of pregnancy, infectious diseases, endocrine pathology, and gestosis

#### Literature

1. Neonatology - national guide / ed. Academician of the Russian Academy of Medical Sciences prof. N.N. Volodina. - M.: GEOTAR-Media, 2008. - 749 p.
2. qizi Nurilloeva SN OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE AND CHANGES IN MENTAL STATUS IN PATIENTS WITH COVID-19 //THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD. – 2022. – T. 1. – No. 3. – S. 91-97.
3. Kizi NSN Assessment of the methods of the state of hyperglycemia at different body masses //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – No. 9. – S. 359-366.
4. Nurilloeva SN PREVENTION OF OBESITY AND OVERWEIGHT IN PATIENTS WITH VARIOUS DEGREES OF HYPERGLYCEMIA //INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE. – 2022. – T. 1. – No. 7. – S. 74-81.
5. Badritdinova M. \_ N. , Bozorova N. \_ Z. \_ Frequency Occurrences Hyperlipidemia Among Female Population //AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 1. – No. 1. – pp. 6-10.
6. Orziev Z. M., Nurilloeva Sh. N. Competence of quantitative indicators of the leading clinical signs of cholestasis in the differentiation of its gradations // Biology and integrative medicine. – 2018. – No. 4. – pp. 62-73.
7. qizi Nurilloeva , S. N. (2022). OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE AND CHANGES IN MENTAL STATUS IN PATIENTS WITH COVID-19.

- THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD* ,  
1 (3), 91-97.
8. qizi Nurilloeva , Shahodat Nurillo . "OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE AND CHANGES IN MENTAL STATUS IN PATIENTS WITH COVID-19." *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD* 1.3 (2022): 91-97.
  9. Nurillokizi NS Metabolic Syndrome: Methods of Prevention and Treatment //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – No. 6. – S. 475-482.
  10. qizi Nurilloeva SN OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE AND CHANGES IN MENTAL STATUS IN PATIENTS WITH COVID-19 //THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD. – 2022. – T. 1. – No. 3. – S. 91-97.
  11. Nurilloeva Shakhodat Nurillo kizi . Diagnosis of Tubuloglomerular Relationship in Patients with Metabolic Syndrome // Journal of advanced research and stability (JARS) Volume: 01 Issue: 06 | 2021 ISSN: 2181-2608. –P. 469-474
  12. Nurilloeva Sh. N. Incidence of overweight and obesity // In cases of carbohydrate metabolism disorders Journal of Hepato- Gastroenterological Research, 75th International Scientific and Practical Conference of Medical Students and Young Scientists No. 02(1), May 18, 2021, p . - 403
  - 13.
  14. NSN Kizi Assessment of the methods of the state of hyperglycemia at different body masses // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (9), 359-366
  15. Zhuraeva Kh. I., Badridinova B. K., Kadyrov B. S. Prevalence and status of treatment of arterial hypertension according to survey data // Biology and Integrative Medicine. – 2017. – No. 3. – pp. 78-85.
  16. Zhuraeva Kh. I., Alimova Sh. A. Application of the survey method in the early diagnosis of angina pectoris as a screening test during preventive examinations of the population // Biology and Integrative Medicine. – 2017. – No. 6. – S. 14-22.
  17. ZHURAEVA KI et al. PECULIARITIES OF THE COURSE OF JOINT SYNDROME IN PERSONS WITH TYPE 2 DIABETES MELLITUS //Journal of Natural Remedies. – 2021. – T. 22. – No. eleven ). - WITH . 92 - 98.
  18. ZHURAEVA KI et al. Peculiarities of the course of joint syndrome in persons with type 2 diabetes mellitus //Journal of Natural Remedies. – 2021. – T. 22. – No. eleven ). - WITH . 92 -98.

## ЎЗБЕКИСТОНДА АРТИЛЛЕРИЯНИ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ ВА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАСИ

*Инсопов Абдуғаннор Абдусаматович*

*Алфраганус университети*

*“Халқаро муносабатлар ва тарих” кафедраси доценти*

**Аннотация.** Мақолада муаллиф томонидан артиллерия тарихи ва унинг ривожланиш босқичлари, Россияда артиллерияни вужудга келиши ва такомиллаштириши шунингдек, Ўзбекистонда артиллерияни ривожланиши ва кадрлар тайёрлаш масаласи, иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистонда урушга етказиб артиллерия қуроллари ҳақида фикр юритилган.

**Аннотация.** В статье автор комментирует историю артиллерии и этапы ее развития, создание и совершенствование артиллерии в России, а также вопросы развития артиллерии и подготовки кадров в Узбекистане, артиллерийского вооружения, применявшегося в войне в Узбекистан в годы Второй мировой войны.

**Abstract.** In the article, the author comments on the history of artillery and its stages of development, the creation and improvement of artillery in Russia, as well as the issue of artillery development and personnel training in Uzbekistan, artillery weapons used in the war in Uzbekistan during the Second World War.

**Калит сўзлар:** қадимги давлатлар, артиллерия, бўлинма, қурол, гаубица, лафет, кадр, снаряд, армия, Европа, техника.

**Ключевые слова:** древние страны, артиллерия, часть, орудие, гаубица, лафет, корпус, снаряд, армия, Европа, техника.

**Key words:** ancient countries, artillery, unit, gun, howitzer, carriage, frame, projectile, army, Europe, equipment.

Қадимги дунё давлатларининг армиялари совуқ қуроллар ва ҳимоя анжомлари билан қуролланганлар ва ҳаракатланиш воситалари ҳам қўлланилган. Ишлаб чиқариш кучларининг ривожланиши билан Вавилон, Оссурия, Миср, Хитой ва Марказий Осиё мамлакатлари армияларида қурол-яроғ ва ҳимоя анжомлари такомиллашди. Қўшинларнинг ҳаракатчанлиги ошди, қалъаларни ишғол ва қамал қилиш техникаси такомиллашди ҳамда ҳарбий кемалар қурила бошланди. Қадимги Хитой армиясида биринчи бўлиб, янги улоқтирувчи совуқ қурол – арбалет жорий қилинди, порох кашф этилди ва қўлланила бошланди [1. С. 70-85].

Қадимги Шарқ давлатлари армияларида масофадан жанглари олиб бориш учун улоқтирувчи қурол (модфа) яратилган. Ғарбий Европада яратилган биринчи ўқотар қурол – бомбарда жуда ҳам оддий – бир томони маҳкам қилиб ёпилган темирдан ясалган қувурча бўлиб, ёғоч станокка ўрнатилган қурилмадан иборат эди. У стволдан ўқланган, темир парчалари ёки тошлар снаряд сифатида қўлланилган [1. С. 331].

XIV асрда араблардан янги қуролни испанлар ўзлаштириб, улардан эса Европанинг қолган давлатлари қабул қилган. Бомбардалар икки турдаги

кўринишда бўлган: енгил ва оғир. Оғир бомбардалар қалъаларни қамал қилишда ва уларни мудофаа қилишда қўлланилган. Улар оғир ва бесўнақай бўлиб, оддий тузилишга эга эди [1. С.333]. Енгил бомбардалар асосан қўлда отиладиган ўтотар қурол ҳисобланган.

Бомбардалар узун тўғри темирларни бир бирига улаб, уларга темир халқалар кийгизиб ясалган. Бомбардалар тош улоқтирувчи мортиралар сифатида ишлатилган. Бомбардалар тош ядроларини 1 километргача масофага улоқтирган. Кейинчалик қиздирилган ва ёниб турган (ёниб турган смола суркалган) ядролар қўлланилган. ХИВ асрнинг бошларида чўяндан ядролар қуйиш ривожланди, кейинчалик эса бомбалар ҳам тайёрлана бошланди. Ўша вақтларда лафетлар яратилди, лекин улар ҳали такомиллашмаган эди. Бомбардалар отлар ёрдамида ташилган.

XIV асрнинг охирларида мувозанатни сақловчи сапфа (немисчадан Запен) – ярим ўқ шаклидаги цилиндрик таянч қурилмаси ихтиро қилинди. Цапфалар ва ғилдираклар ёрдамида бомбардалар вертикал ва горизонтал текисликларга бурилиш имкониятига эга бўлди. Лекин биринчи намунадаги бомбардаларнинг отиш суръати жуда паст бўлган. Бомбардалар жангда эгаллаган позицияларини ўзгартира олмас эди, улар жуда секинлик билан ўқланарди ва порохнинг сифати ҳам яхши бўлмаган ва уларнинг кириб келиши жуда катта воқеа бўлди. Улар артиллериянинг биринчи намуналари эди [1. С. 740].

Ўрта асрларга келиб, мўғуллар хитойликлардан борут (порох)дан фойдаланишни ўргандилар ва душман мудофаа иншоотларини ёндириш учун оташдозлардан, нафт билан тўлдирилган идишлардан ёки гранатлардан фойдаланардилар [2. С. 338].

Европада артиллерия XIII асрнинг охири – XIV асрнинг бошларида пайдо бўлган. Ушбу қўшин тури мисол учун, Россияда XIV асрда пайдо бўлди.

Марказий Осиё давлатларида, хусусан Муиниддин Натанзи таъкидлашича, ёнувчи қуроллар Амир Темур қўшинларини раъдандозлари томонидан

1379 йили Гурганж қамал қилинганида ишлатилганини ёзиб қолдирган [3. С. 45].

XVI – XVII асрларга келиб, артиллерия фанининг (қуроллар ишлаб чиқиш соҳаси ҳамда артиллериянинг тактикаси) асослари пайдо бўлди. XVIII асрга келиб қуролларнинг калибрлари ва уларни ишлаб чиқишни ташкил этиш йўлга қўйилди. Энди артиллерия полк, дала, қамал ва қалъа артиллерия қуролларига бўлинди ҳамда артиллерия полк ва бригадалари ташкил этилди.

Европа давлатлари, хусусан Франция ва Россияда артиллерия қўшин тури сифатида XVI аср охирига келиб тўлиқ шаклланди ва қўшиннинг асосий оловли кучига айланди [4. С. 68-75]. Ўрганишлар шуни кўрсатадики, артиллерияни алоҳида қўшин тури бўлиб шаклланишига, аввалом бор, артиллерия қуролларига хизмат кўрсатувчи юқори малакали шахслар тайёрлаш тизимини яратиш муаммосини ҳал этиш таъсир кўрсатган. Бундан ташқари, жангда артиллерия бўлинмалари томонидан бажариладиган

вазифаларини ортиши ва жангнинг тактикасида ўзгаришлар артиллерия тўпларини бир жойга жамлаш ҳамда улардан маълум даражадаги бўлинмаларни (артиллерия батареялари, дивизионлари) ташкил этишга олиб келди. Шу муносабат артиллерия бўлинмалари ва ўт очишини бошқариш учун малакали офицерлар бўлишини тақозо этган.

Россияда Петр I даврида артиллериячиларни ўқитишга бўлган ёндашув пайдо бўлди. Ушбу даврга келиб, Россияда биринчи артиллерия мактаблари ташкил этилди ва артиллерия бўйича юқори даражадаги саводхонликнинг асоси деб фундаментал ўқитиш қабул қилинди [5. С. 97]. Артиллериячиларни тайёрлашга алоҳида мактабларни ташкил этишига асосан жанговар ҳаракатлар давомида артиллерия бўлинмаларини самарали қўмондонлик қилиш ва бошқариш сабаб бўлган. Бундан ташқари жанг олиб боришнинг хусусиятидаги ўзгаришлар мамлакат армиясида артиллерия бўлинмалари ва шунга мувофиқ артиллерия қуролларининг сони ҳамда мўлжалланишини ортишига олиб келди. Шу билан бир, ушбу даврга келиб аксарият давлатларнинг армияларида артиллерия қуроллари бир хилликка келтириш ва уларни мўлжалланиши бўйича тўп, гаубица ва лафет тизимларига бўлиниш бўлиб ўтди. Бундай муаммоларни ҳал қилиш учун махсус артиллерия мактабларига асос солинди ва уларда юқори малакали артиллерия мутахассислари тайёрланди.

XVIII–XIX асрларда Марказий Осиё хонликлари (Бухоро, Хива ва Қўқон) қўшинларида артиллерия воситалари анча кам бўлган. Уларда станоклар ва ғилдиракларга ўрнатилган тўплар, умуман, бўлмагани ҳолда, артиллерия бўлинмалари туяларга ўрнатилган кичик тўпларга эга бўлганлар. Мисол учун, Бухоро амирлик артиллерияси Эронда ишлаб чиқарилган бир неча тўплардан ташкил этилган бўлиб, уларнинг уч - тўрттаси лафет (темир суянчик)га эга эди.

XIX асрнинг ўрталарига келиб, сойли артиллерияга ўтиш бошланди ва бу эса, ўз ўрнида қуроллардан ўт отишнинг тезлиги, узоқлиги ва аниқлигини оширди. Мисол учун, 1904-05 йиллардаги рус-япон урушида илк маротаба ёпиқ ўт очиш позицияларидан ўт очиш қўлланилди, миномётлар ишлаб чиқилди ва амалда қўлланилди.

Сойли артиллерия пайдо бўлиши ва қуроллардан ўт отишнинг тезлиги, узоқлиги ва аниқлигинининг ортиши артиллерия тўпларини қўллаш ва техник хизмат кўрсатиш учун мутахассисларни тайёрлаш тизимини яратишни талаб қилди. Ушбу вақтга келиб артиллериянинг моддий қисмлари, уни жанговар қўллаш, баллистика, тўп ва снарядларни ишлаб чиқиш технологиялари тўғрисида тушунча ва қарашлар мажмуаси сифатида артиллерия фани вужудга келди.

Кўплаб давлатларда артиллерия мутахассисларини тайёрлаш бўйича махсус мактаблар очилди ва ҳарбий қўлланмалар ишлаб чиқилди. Масалан, Россияда 1607 йилда “оловли қоришмалар”ни тайёрлаш ва “тўғридан-тўғри ва шикаст етказиш” қоидалари тўғрисида ҳарбий китоблар ишлаб чиқилди.

Махсус мактабларда артиллерия мутахассисларини тайёрлашда таълим дастурлари асосан фундаментал билимлар ва энциклопедик таълимга асосланган эди. Шу билан бирга таълим олувчиларга тарих, география, механика, кимё, физика, арифметика ва алгебра асослари, геометрия, рақсга тушиш ва отда юриш, рассомчилик ҳамда чет тиллари ва бошқа фанлардан машғулотлар ўтказилган [6. С. 53]. Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, Европанинг бошқа давлатларида бўлгани сингари Россия ва бошқа мамлакатларда ҳам артиллерия яна ривожланди ҳамда артиллерия курулларини ва ўқдорилари кейинги такомиллаштириш ишлари олиб борилган. Шу билан бир қаторда артиллерия бўлинмалари учун мутахассисларни тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилиб мактаб очилди ва таълим олувчилар учун ўқув материаллар ишлаб чиқилган. Бироқ ушбу даврга келиб таълим берувчи ўқитувчиларни етарли эмаслиги муаммо сифатида ҳал қилинишини талаб қиларди.

Мактаблардаги таълим бериш жараёнида катта эътибор ўқитувчилар таркибининг профессионаллигини ошириш ва уларни юқори малакали кадрларни тайёрлаши учун зарур ўқув-моддий базани яратишга қаратилди.

Артиллерия учун қўмондонлик ва техник кадрларни ўқитиш ва тайёрлаш артиллерия ҳарбий таълим муассасалари тизими ва қўшинларда олиб борилган. Ушбу тизим ўз ичига кадет корпусларнинг юқори синф артиллерия бўлинмалари, махсус артиллерия мактабларини олган.

Биринчи жаҳон уруши бошланиши олдидан артиллерия дала (енгил, отлик, тоғ), оғир ва йирик (қамал) артиллерияга бўлинган. Уруш давомида артиллерия кузатуви, зенит артиллерия, танкка қарши артиллерия пайдо бўлди ва миномётлар ривожланди.

XX асрнинг бошларига келиб қадимда ўзининг илми, фани билан дунёда ном таратган Бухоройи Шарифда (Марказий Осиё хонликларида) бирорта ҳарбий мутахассислар тайёрлайдиган на бошланғич, на ўрта ва на олий таълим тизими мавжуд эмас эди. Бу ўринда, манғитлар сулоласи ташкил топган даврда (XVIII аср 2- ярмида) биргина артиллерия соҳасида Россияда Михайловский ва Константиновский номли артиллерия билим юртлири, Москвада артиллерия техника мактаби, Михайловский артиллерия академияси, офицерлар олий артиллерия мактаблари фаолият кўрсата бошлаганига анча вақт бўлган эди [7. С. 38].

1914 йилнинг 18 июлида Ўрта Осиё худудида биринчи олий ҳарбий таълим муассасаси – Тошкент ҳарбий билим юрти Туркистон ҳарбий округи штаби бошлиғи генерал-майор Бендеревнинг (18.07.1914 йил № 210) буйруғига асосан ташкил топган. Ушбу билим юртида умумқўшин бўлинмалари учун мутахассислар тайёрлаш билан бир қаторда артиллерия бўлинмалари учун ҳам ҳарбий кадрлар тайёрлаш амалга оширилган.

Илк маротаба Тошкент шаҳрида очилган ҳарбий билим юрти ташкил топиши тарихига оид нодир архив ҳужжатлари Академия тарихи музейида ҳам сақланади. Жумладан, билим юрти бошлиғининг 1914 йилнинг 24 июлида Туркистон ҳарбий округи штаби бошлиғига юборган № 42-сонли

хатида “билим юртига ўз хошишларига кўра кириб ўқишни чин дилдан ҳохловчи ёш йигитларни” тиббий кўрикдан ўтказишда иштирок этишлари учун учта ҳарбий шифокор ажратилишига кўрсатма берилиши сўралган. Тиббий кўрикдан муваффақиятли ўтиб бўлганларгина математика, физика, космография (механика), география ва тарих фанлари, рус, француз ва немис тилларидан кириш имтиҳонларини топширишларига рухсат этилган. Хатда ҳарбий академияларни битирган округ штаби офицерлари орасидан кириш имтиҳонларини қабул қилишни “лозим кўрган тақдирларида”гина иштирок қилишлари мумкинлиги кўрсатилган [8. С. 42]. Юнкерларга 4 ойлик умумий таълим дастурига кўра: тактика, топография, артиллерия, фортификация ва қонуншуносликдан машғулотлар ўтказилган.

Ҳарбий қурилиш тарихидаги ҳарбий кадрлар тайёргарлиги бўйича муҳим воқеалардан бири – 1923 йилнинг октябрида Турккомиссия йиғилишида кўриб чиқилган миллий қисмлар тузилиши ва уларни шакллантириш масаласи бўлди [9. С. 14-18]. Олиб борилган илмий изланишлар шуни кўрсатмоқдаки, ўша даврларда кўплаб ўзбек ёшлари асосан Москва, Қозон ва Боку шаҳарларидаги ҳарбий мактабларда таҳсил олганлар ҳамда малака оширганлар. Миллий ҳарбий қисмларни тузилиши сабабли миллий ҳарбий кадрларга бўлган талабни қондириш мақсадида Тошкент бирлашган ҳарбий мактабида ўзбек йигитларидан ҳарбий кадрларни тайёрлаш бошланган ва ушбу жараён ҳозирги вақтларгача узлуксиз давом эттирилмоқда.

1927 йилдан бошлаб Тошкент бирлашган ҳарбий мактаби таркибида ўқув жараёнини ташкил қилишда курсантларнинг мустақил фикрлашлари, фаол ва ташаббускор бўлишларига, ҳарбий техникани мукамал ўзлаштиришларига, дала йиғинлари ва қўшинлар манёврларида ҳарбий таълим муассасалари ва қўшинлар ўртасидаги алоқаларни мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилди.

1937 йилнинг мартидан мактаб Мудофаа халқ комиссари Клим Ворошиловнинг буйруғига асосан Тошкент ҳарбий билим юрти деб номлана бошланди. Кўйилган талабларга кўра билим юртининг ўқув-тарбиявий тизими такомиллаша бошлади, яъни назарий масалаларни амалий ўқув машғулотлари билан узвий боғлаган ҳолда олиб борилиши тактика асосини ташкил этди, ҳарбий мактабларни қўшинлар билан алоқаси кучайди, машғулотларнинг кўпчилиги дала шароитларида ўтказилиб, ёпиқ позициялардан ўт очиш ва ҳаво мўлжалларига отиш машғулотларига алоҳида эътибор кучайди. Ўқув жараёни амалиётида шахсий кўрсаткичлар методикаси кенг жорий этила бошланди.

1938 йилдан билим юртининг артиллерия ва кавалерия бўлинмалари бошқа ҳарбий билим юртлари таркибига ўтказилиб, билим юрти қайта ташкил топди. Шу йилдан бошлаб билим юрти бир йўналишда ўқитишга, яъни пиёдалар командирлари тайёргарлигига ўтказилиб, Тошкент пиёдалар билим юрти деб номлана бошланди. Дарҳақиқат, урушлар оралиғида давр ва мавжуд ҳарбий-сиёсий вазият ҳарбий кадрлар тайёрлаш тизимига

хам ўз таъсирини кўрсатган. Шунинг учун таълим жараёнида тактикага, айниқса бўлажак офицерларнинг дала шароитларидаги амалий кўникмаларига катта эътибор қаратилганлигини алоҳида таъкидлаш мумкин. Шу билан бирга ушбу даврга келиб барча олий ҳарбий таълим муассасалари кўшинларнинг бир тури бўйича асосий ҳарбий кадрларни тайёрлашга ўтганлиги жаҳон уруши иси келаётганлиги сабабли бўлган.

Иккинчи жаҳон уруши артиллерияни ҳар томонлама ривожланишига таъсир ўтказди, айниқса зенит, танкка қарши, реактив ва ўзи юрар, катта ва ортиқ даражадаги қудратга эга артиллерия қўлланилди.

Артиллерия тўғрисида Иккинчи жаҳон урушининг буюк саркардаси маршал Г.К. Жуков шундай деган эди, ҳисоб китобларда йўл қўйилган хатоликлар ва артиллерияни менсимасликни пиёдаларнинг қаҳрамона ахлоқлари, танкларнинг ҳалокатли ҳамлалари, авиациянинг зарбалари билан ҳам тўғрилаб бўлмайди. Артиллерияни яхши билиш ва унга ҳал қилувчи ўринни бериш лозим. Артиллерияга етарлича баҳо бермаслик ортиқча йўқотишлар ва вазифанинг бажарилишини барбод бўлишига олиб келади [10. С. 12-15].

Ўзбекистоннинг иқтисодий ва меҳнат ресурслари фронтга сафарбар этилди. Бу даврда Ўзбекистонда янги меҳнат режими жорий қилинди, яъни иш куни узайтирилди, дам олиш кунлари ва меҳнат таътиллари бекор қилинди. Ўзбекистон саноатчилари 1941 йил охиригача 300 га яқин корхонани жанговар техника, қуруллар, ўқ-дори ишлаб чиқаришга мослаштириб қайта қурдилар. Бу корхоналарда фронтга сафарбар этилган эркаклар ўрнини кексалар, хотин-қизлар эгаллади.

Урушнинг дастлабки пайтларидаёқ 20 мингга яқин тошкентлик хотин-қизлар саноат корхоналари ва қурилишларда, 1700 га яқин республика хотин-қизлари кўмир кони шахталарида ишлашга йўл олди. Ишлаб чиқаришни ишчи ва мутахассислар билан таъминлаш чоралари кўрилди. Республика олий ва ўрта махсус ўқув юртлари, хунар-техника билим юртлари, фабрика- завод таълими мактабларининг фаолияти уруш даври талабларига мос кадрлар тайёрлашга йўналтирилди. Якка тартибда ва бригада тариқасида хунар ўргатиш ишлари йўлга қўйилди. Республикамиз қишлоқларининг аҳолиси фронтни ва фронт орқасини озик-овқат, саноатни хом ашё билан таъминлаш учун оёққа турди.

Ҳар бир ишчи икки-уч иш нормасини бажариш учун фидокорона меҳнат қилди. Уруш бўлаётган ва душман яқинлашиб келаётган ҳудудлардан муҳим саноат корхоналарини Ўзбекистонга зудлик билан кўчириб келтириш, жойлаштириш ишлари бошланиб кетди. 100 га яқин саноат корхонаси, жумладан, 48 та машинасозлик, металл ишлаш, кимё ва бошқа ҳарбий техника ва маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи йирик заводларнинг асбоб-ускуналари кўчириб келтирилди. Ўзбекистон шаҳарларида шошилишчи бўшатиб берилган ёки янгидан қурилган биноларга кўчириб келтирилган асбоб-ускуналар зудлик билан жойлаштирилди ва монтаж қилинди. Улар ишчи кучи, хом ашё, инструментлар билан таъминланди ва фронт учун

маҳсулотлар ишлаб чиқариш йўлга қўйилди. Саноат корхоналари қисқа вақт ичида ҳарбий изга солиниб, миномёт ва автоматлар, самолёт ва танклар учун эҳтиёт қисмлари ва бошқа ҳарбий қуроллар ишлаб чиқара бошлади. Тошкент қишлоқ хўжалик машинасозлиги заводида ҳарбий қуроллар ишлаб чиқарила бошланди.

Ўзбекистон саноатчилари корхоналарни ҳарбий изга туширишдек ишларни кўчириб келтирилган корхоналарни жойлаштириш ва ишга туширишдек янада оғирроқ ишлар билан кўшиб олиб борди. Тошкентда зудлик билан жойлаштирилган “Ростселмаш” заводи “Катюша” ва миномёт снарядлари, авиация заводи жанговар самолётлар, Колчугинскдан келтирилган кабел заводи ҳарбий алоқа маҳсулотлари етказиб бера бошлади. Республика бўйича 1941-йил охирига келиб 300 та саноат корхонаси фақат ҳарбий маҳсулот ишлаб чиқара бошлади.

Ўзбекистон Компартияси Марказий Қўмитасининг пленумида республика саноатини ҳарбий изга солиш, кўчириб келтирилган асбоб-ускуналарни жойлаштириш соҳасидаги ишларга яқун ясаиб, корхоналарда қурол-яроғлар ишлаб чиқаришни кенг йўлга қўйиш вазифаси илгари сурилди. Бунинг учун етарли даражада металл қирқувчи станоклар ва аниқ ўлчовчи инструментлар ишлаб чиқаришни ташкил этиш, нодир металллар қазиб олишни кучайтириш ҳамда қора ва рангли металлургия саноатини яратиш, электр энергетика базасини кенгайтириш, нефт қазиб олишни 2-3 барабар ошириш, кўмир қазиб олишни кучайтириш, йирик қурилиш материалларини ишлаб чиқариш корхоналарини барпо этиш, қисқа муддатда 30 минг малакали ишчилар тайёрлаш тадбирлари белгилаб берилди. Кўчириб келтирилган корхоналар тарихда мисли кўрилмаган қисқа муддатларда 4-5 ойда, айримлари ҳатто 1-2 ой давомида қуриб битказилиб, фронт учун ҳарбий маҳсулотлар бера бошлади.

Уруш йилларида Ўзбекистонда 280 та янги саноат корхоналари қурилиб ишга туширилди. Саноатнинг янги тармоқлари – авиация, станоксозлик, оғир машинасозлик, қора ва рангли металлургия ҳамда бошқа тармоқлари вужудга келди. Тошкент СССРнинг энг катта саноат марказларидан бири бўлиб қолди.

### Список использованной литературы

1. Yusupov, R.S. Harbiy san'atning rivojlanishi / R.S.Yusupov va boshqalar / darslik. – Toshkent, 2022. – 70-85 b.
2. Samarov, R.S. Zamonaviy urush va qurolli to'qnashuvlar tendensiyasi: harbiy san'atning rivojlanish kontekstida (metodologik yondashuv) : monografiya / R.S. Samarov, M.M. Ibragimov, R.S. Yusupov, M.O. Qodirov. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2021. – 388 b.
3. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб Ут-Таворихи Муиний / Форс тилидан ўгирувчи Фулом Каримий. – Т.: «Ўзбекистон», 2011. – б.45.
4. Овчинников В. М. Становление и развитие французской колониальной артиллерии во второй половине XVII — первой половине XVIII веков //

- Вестник Рязанского государственного университета имени С. А. Есенина. 2022. № 1 (74). С. 68–75.
5. Честных, Е. П. Ракетные войска и артиллерия в локальных войнах и вооруженных конфликтах / Е. П. Честных. – М.: НАОУ, 2002. – 97 с.
  6. Кузнецов С.Г., Полковников Д.А. Исторический опыт развития системы артиллерийского военного образования в дореволюционной России / С.Г. Кузнецов, Д.А. Полковников // «Вестник военного образования» №1 (16) (январь — февраль) 2019 г. С. 53.
  7. Замонов, А. XVIII-XIX аср ўрталарида Бухоро амирлигининг кўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви / А. Замонов // – Т.: Ўзбекистон тарихи. – 2014. - №1. – 38 б.
  8. Тошкент ҳарбий билим юрти бошлиғининг 1914 йилнинг 24 июлида Туркистон ҳарбий округи штаби бошлиғига юборган № 42-сонли хатидан.
  9. Раджапов, Э.Г. Туркистон минтақасида совет ҳокимиятининг ҳарбий кадрлар тайёрлаш сиёсати (1917-1924 йй.) педагога: тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати: 073.00.01 / Э.Г. Раджапов; – Тошкент, 2019. – 14-18 б.
  10. Степанов Л. И. О повышении боевых возможностей ракетных войск и артиллерии оперативного объединения в современных операциях / Л. И. Степанов // - М.: Военный мысль. – 2012. – №5. – С. 12-15.
  11. Инсопов А.А. Взаимодействие негосударственных некоммерческих организаций с органами власти в сфере государственной социальной политики // «Вестник развития науки и образования». – Москва, Российская Федерация. 2014. №6. - С.4-8.
  12. Инсопов А.А. Развитие негосударственных некоммерческих организаций в Узбекистане – важный фактор становления гражданского и правового государства. // «Вестник развития науки и образования». – Москва, Российская Федерация. 2014. №1. - С.116-120.
  13. Инсопов А.А. Социальное партнерство ННО – важный фактор создания демократического государства в Республике Узбекистан. Монография. Германия: Palmarium Akademik Publishing, 2015.
  14. Insopov. A.A. Legal regulation quotient nonprofit organization in Uzbekistan // «International Scientific Journal Theoretical & Applied Science» Harrisburg, USA. №07 (39) 2016. – P. 103-106.

## SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI

*Dustova Maftuna Kenjayevna*  
*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

**Annotatsiya.** Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning masalalari, istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, Samarqand viloyati iqtisodiy sayyohlarni qabul qilish bo'yicha barcha shart-sharoitlarga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, Samarqand, turistlar, sayohat maskanlar, madaniy meros.

**Абстрактный.** Проанализированы проблемы и перспективы развития туризма в Самаркандской области. Также внимание уделяется всем условиям для приема экономических туристов Самаркандской области.

**Ключевые слова:** туризм, Самарканд, туристы, места путешествия, культурное наследие.

**Абстрактный.** Анализируются вопросы развития туризма в Самаркандской области, перспективы развития.

**Ключевые слова:** туризм, Самарканд, туристы, места путешествия, культурное наследие.

Samarqand viloyati ko'plab o'zining tarixiy obidalari, go'zal me'morchilik namunalari va ko'ngilochar maskanlariga boydir. Quyidagi jadvalda Samarqand viloyatida mavjud turizm madaniy meros obyektlari keltirilgan (1-jadval):

*1-jadval.*

*Madaniy meros, madaniyat va ziyorat obyektlari soni<sup>6</sup>*

Madaniy meros, madaniyat va ziyorat obyektlari	Soni
Tarixiy va madaniy meros obyektlari soni	634
Arxeologik obidalar	973
Vaqf obyektlari	15
Masjitlar	287
Restoranlar	95
Kinoteatrlar	11
Muzey	10
Teatrlar	4
Ko'ngilochar va tematik parklar	26

Bundan ko'rinadiki, Samarqand viloyatida ko'plab arxeologik obyektlarga ega va ularni barchasida sayyohlarni qabul qilish bo'yicha barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Samarqandga tashrif buyiruvchi sayyohlarning katta qismini arxeologik obidalar va madaniy meros obyektlar qiziqtirishi ma'lum. Bu esa ushbu ob'yektlarda esdalik sovg'alarini targ'ib qilish va sotish imkoniyatini beradi. Bunday sovg'alarni milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va

<sup>6</sup> Turizm va madaniyat vazirligi Samarqand viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

yaratish bilan qondirish mumkin. Demak, ushbu jarayonda kelajakdagi ya'ni potentsial bozor mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

“Samarqand viloyatida 1607 ta moddiy madaniy meros ob'yektlari ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 973 tasi arxeologiya, 562 tasi arxitektura ob'yektlari, 36 tasi monumental san'at asarlari, 34 tasi diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Ulardan 1011 tasi respublika, 596 tasi mahalliy ahamiyatdagi ob'yektlar hisoblanadi”<sup>7</sup>.

Samarqand viloyatida sayohat maskanlari birmuncha tarqoq joylashgan. Bu sayohat qiluvchilarga malum bir uzoqroq masofalarni bosib o'tishni talab qiladi. Bir tomondan bu muammoli ko'rinsada sayyohlarga Samarqandning boshqa nuqtalarini ham ko'rishga imkoniyat beradi. Viloyatda 171 ta yangi turistik marshrutlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Bunday transportlardan sayyohlar va mahalliy aholi foydalanmoqda. Bu esa barchaga birday qulaylik yaratish uchun amalga oshirilgan.

Turistik-rekreasion xizmatlarni rivojlantirishda fuqarolarning tashrif buyurish maqsadlari bo'yicha tahlili Samarqand viloyatiga dam olish va sog'lomlashtirish maqsadida keladiganlar soni kelajakda yanada ko'payishni hisobga olib, viloyatdagi Kattaqo'rg'on, Oqdaryo, Zarafshon, Nuroboddagi sog'lomlashtirish maskanlarida qo'shimcha qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, shuningdek Omonqo'ton tog' o'rmoni xo'jaligiga, Urgut shahridagi yuqori “Chorchinor” va “Ohalik” maskanlariga olib boruvchi yo'l va infratizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Samarqand viloyati beqiyos turistik-rekreasion salohiyatga ega bo'lgani bilan ulardan samarali foydalanish borasida 2024 yilda boshqa davrlarda nisbatan pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Buning asosiy sabablaridan biri viloyatda yoshi kattalar uchun mo'ljallangan sog'lomlashtirish sanatoriy va sanatoriy-profilaktoriylar kamligi bo'lsa, ikkinchidan, hozirgi talabga javob beradigan zamonaviy boshqa turdagi sanatoriy-kurort maskanlarining yo'qligidir. Viloyatda bu turdagi xususiy sanatoriy-kurort ob'yektlarini qurish uchun yetarli darajada mablag'ga ega bo'lgan tadbirkor investorlar salohiyati mavjud bo'lib, ularni turistik-rekreasion biznesiga jalb qilish orqali ushbu masalani hal qilish mumkin.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi O'RQ-549-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-4428097#-4428960>
2. Samarqanddagi moddiy madaniy meros ob'yektlari qanday asralmoqda? // <https://zarnews.uz/uz/post/samarqanddagi-moddiy-madaniy-meros-obektlari-qanday-asralmoqda>
3. Хаққулов Н. Қ. Сиддиқий-Ажзий маърифатпарварлик қарашларида миллий толерантлик масаласи // НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ. – 2020. – №. 10. – С. 296.

<sup>7</sup> Samarqanddagi moddiy madaniy meros ob'yektlari qanday asralmoqda? // <https://zarnews.uz/uz/post/samarqanddagi-moddiy-madaniy-meros-obektlari-qanday-asralmoqda>

4. Jamalova N. U. POSSIBILITIES OF USE OF FOLK PEDAGOGY IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND PERSONAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 191-193.
5. ХАККУЛОВ Н. К., РИЗАЕВ И. И. Цифровая культура и неприкосновенность личности //Новые технологии в учебном процессе и производстве. – 2023. – С. 605-606.
6. Muyassar M., Karimova N. THEORETICAL ASPECT OF DEVELOPMENT OF CULTURE OF INTERETHNIC COMMUNICATION AMONG STUDENTS //UNIVERSAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 89-94.
7. Ruzimurodov S. M., Ruzimurodov O. M. The Role of the Neighbourhood in the Healthy and Harmonious Education of Young People in the Global Environment //Indiana Journal of Humanities and Social Sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 1-3.

## IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALAR BILAN ISHLASH MUAMMOSI VA YECHIMLARI

*Samiyev Asroriddin Sayfiddinovich*  
*Termiz davlat Pedagogika instituti*  
*o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD) dotsent,*

*Ko'charova Dildora Karim qizi*  
*Termiz davlat Pedagogika instituti*  
*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limining afzalliklari va muammolari, maqsadi, o'ziga xos xususiyati haqida fikr yuritilgan. Shu sohada ishlovchi pedagoglar uchun ayrim nazariy maslahat va takliflar keltirib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tizim, inklyuziv ta'lim, ta'lim shakllari, logoped, pedagog, nuqsonli bolalar.

**Abstract.** This article discusses the advantages and problems of inclusive education, its purpose, and its characteristics. Some theoretical tips and suggestions for pedagogues working in this field were given.

**Key words:** education, system, inclusive education, forms of education, speech therapist, pedagogue, disabled children.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются преимущества и проблемы инклюзивного образования, его цель и характеристики. Даны некоторые теоретические советы и предложения педагогам, работающим в этой области.

**Ключевые слова:** образование, система, инклюзивное образование, формы обучения, логопед, педагог, дети-инвалиды.

Jahon tajribasidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ta'lim olish shakllari turlichadir. Xususan, O'zbekistonda ham ta'lim olish va berish shakllari qonun bilan belgilab berilgan. "Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta'lim;

oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

inklyuziv ta'lim;

eksternat tartibidagi ta'lim;

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash" [1:15]. Biz ham quyida ta'lim shakllaridan biri bo'lmish inklyuziv ta'lim haqida fikr yuritimiz. Inklyuziv ta'lim – davlat siyosati turlaridan biri bo'lib, nosog'lom (nogiron) va sog'lom yoshlar o'rtasidagi muammolar hamda to'siqlarga yechim topish, maxsus ta'limga ehtiyojmand yoshlar ya'ni (ma'lum bir sabablar oqibatida nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda ko'zga tashlanuvchi hamda to'siq bo'luvchi nuqsonlar yoki iqtisodiy problemalardan qat'iy nazar ularni

jamiyatga qo'shishga, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan, umumta'lim jarayoniga aktivlashtirishga qaratilgan ta'lim shaklidir. Ushbu ta'lim atamasining kelib chiqishi va ma'nosi fransuz tiliga borib bog'lanadi. Inklyuziv so'zi asli fransuzcha "inclusive" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oladi" deganidir. Ya'ni bir so'z bilan aytganda, nosog'lom va sog'lom, sog'ligi cheklanmagan talabalarning umumta'limini bildiradi. Inklyuziv ta'lim O'zbekistonda endi ommalashib, rivojlanib, kengayib borayotgan ta'lim shakllaridandir. Bu soha haqida jamiyatda hali yetarlicha ma'lumotlar yo'q. Bu sohani hali hamma birdek tushunib yetishga ulguradi. So'nggi vaqtlarda chiqayotgan ilmiy adabiyotlarda va ilmiy maqolalarda "Inklyuziv" hamda "integratsiyalashgan" atamaları ko'p hollarda ayni bir ma'noda qo'llanmoqda. Biroq falsafada mazkur tushunchalar farqlanadi. Nogironligi mavjud bolani umumiy sharoitli muhitga joylashtirish integratsiyaning daslabki bosqichidir. "Integratsiyalashgan ta'lim – diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi" [2]. Shu sababdan ham ushbu ta'lim shakli ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim olish o'zaro takrorlanmaydigan, intellektual, jismoniy sifatlarga ega bo'lganlar maxsus bilimga ehtiyojmand bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkillashtiriladi. Inklyuziv ta'lim-alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Bu ta'lim shaklining asosiy maqsadi bolalarning jismoniy holatidan qanaqa bo'lmasin, ularga bir xil standart ta'lim berishdan iboratdir. Bu ta'lim shakli inklyuzivlik tamoyili asosida imkoniyatlari cheklangan bolalar pozitiv psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishlari uchun oilada muhitida o'sishlari va o'ziga tengdoshlar bilan oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini tutadi. Ushbu ta'lim tizimi mustaqil harakat qilolmaydigan, aravachadagi bola yaqin hududda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Inklyuziv ta'limning dolzarbligi va uning jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash uchun uning har bir asosiy funksiyasi qonun bilan belgilab qo'yilgan. "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi" [1:20]. Vazirlar Mahkamasi ushbu qonunning ijrosi o'laroq 2021-yil 12-oktabrda 638-son qaror bilan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etish tartibi to'g'risida nizom ishlab chiqqan.

Inklyuziv ta'lim shaklida fanni o'qitishda an'anaviy dars usullari bilan bir qatorda, zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan ham o'rinli foydalanish talab etildi. Darslarda turli imkoniyatli ta'lim oluvchilar borligini hisobga olib, audioli (ko'zida nuqsoni borlar uchun yaxshi), videoli (eshitishida muammosi borlar uchun qo'l keladi), ko'rgazmali, tarqatmalili, turli o'yinli, rollar ijro etishga mo'ljallangan sahna ko'rinishli (barcha qatnashchini qamrab olish mumkin) metodlardan va vositalardan foydalanish talab qilinadi. Ushbu ta'lim shaklining eng yaxshi jihatlaridan biri – sog'lom yoshlar ta'lim oladigan maskanda jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlar ham ta'lim olishiga imkon yaratishi, barchaning teng huquqli ekanligini amalda isbotlab berishidir. Ushbu soha nafaqat aniq individga, ma'lum bir jamoaga, jamiyat hamda davlat uchun zarurdir. Mazkur soha bilan shug'illanib kelayotgan ko'pgina mutaxassislar qaysi ta'lim muassasasida o'qishni tanlash bolalar va ularning ota-onalari ixtiyorida qolishi lozim degan fikrni ilgari surishgan. Faqat bitta jihatni unutmash lozimki, inklyuziv ta'lim shakli joriy etilayotgan muassasa ham shu sohadan ta'lim beruvchi pedagog ham, qolaversa, ta'lim oluvchilar ham ushbu jarayonga va tizim talablariga tayyot bo'lishi, kerakli resurslar, adabiyotlar, sharoitlar, texnologiyalar va boshqalar mavjud bo'lishi lozim. Bundan tashqari inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglar oldida bir qancha muammoli holatlar turadi. Ular faoliyati davomida eshitishida, ko'rishida, nutqida, aqliy faoliyatida nuqsoni borlar bilan ishlashga majbur bo'ladi.

Eshitishida muammosi bor bolalar kerakli darajada bilim egallashlari uchun pedagoglar ayrim jihatlarni hisobga olish lozim:

Avvalo, bolaning muammosi eshitish bilan ekanligini bilishi lozim;

Agar uning muammosi yengilroq bo'lsa, mutaxassis – ottolorengologga yo'naltirish;

Yaxshi eshitmaydigan bolani hamisha old qatorda o'tirishga e'tibor qaratish.

Eshitmaydigan bolalarning mavzuni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borish kerak;

Ularning xatolari eshitish sifati pastligi tufayli bo'lsa, uning bahosini pasaytirmaslik lozim, aks holda u qattiq ranjib, o'zlashtirilmay qolishi mumkin;

Nutqiy nuqsonli bolalar bilan ishlashda ham turli jihatlar bilan hisoblashishga to'g'ri keladi:

Bunday bolalar bilan ishlashda nuqson tug'ma yoki orttirilgan ekanligini bilish va logoped bilan fikrlashgan holda chora-tadbir qilish maqsadga muvofiq;

Bunday bolalar nutqiy xato talaffuz qilishlari oqibatida yozuvda ham xato yozishlari mumkin, ularga yaxshi muomala qilib, bunday kamchiliklar tezda o'tib ketishga ishontirish kerak;

Eng kerakli jihat o'rtoqlariga uning ustidan kulmaslik, uni kamsitmaslik kerakligini uqtira bilish;

Nutqiy nuqsonli bolalar gapirishda duduqlangan vaqtda, ularga chiroyli muomala qilish, ularga uzundan uzoq gaplar bilan jumla tuzishni buyurmaslik, imkon qadar qisqa va sodda tarkibli gaplar tuzdirish yaxshi;

Duduqlanadiganarni baholashda ularning yozma savodiga asoslanib baho qo'yish afzaldir;

Bunday bolalardan notanish kishilar qarshisida og'zaki javob talab qilmaslik ham ularni noqulay ahvoldan qutqarib qoladi;

Ularning xato talaffuzuni tuzatish uchun tez aytishlar aytirish maqsadga muvofiq, agar gap shaklidagi tez aytishni aytmasa, harflar ketma-ketligidan tuzilgan tez atrish aytirish kerak, masalan, GDBA, GDBA, GDBA ko'rinishda.

Ko'rish qobiliyati past bolalar bilan ishlashda pedagog-rahbar inobatga olishi lozim:

Avvalo, bolaning ko'rish darajasi qay darajada, uning ota-onasi bu holatdan xabardormi? Ko'rish darajasiga mos ko'zoynak taqadimi? O'zi uchun og'ir jismoniy mashqlar va harakatlar bajarmayaptimi? Agar ko'rish ko'rsatkichi juda past bo'lsa, u uchun alohida ko'rgazmali material qilib kelish va hokazolar.

Aqli zaif bolalar bilan ishlashda pedagogdan talab qilinadigan vazifa:

Ularga xarakteriga qarab muomala qilish;

Aqliy salohiyatga mos topshiriq berish;

Qo'pol munosabat qilmaslik;

Ota-onalar bilan doimiy hamkorlik qilib borish;

Barcha bolalar singari topshiriqlar bilan qiynamaslik va o'zlashtirilmaligi bo'is dakki bermaslik.

Bir so'z bilan aytganda inklyuziv ta'lim tizimining oldidagi eng katta muammolar deya kamsitilish, moddiy yetishmaslik, ma'naviy kambag'allik kabilarni sanash mumkin. Chunki imkoni cheklangan kishilarning ayblari bilan ularni kamsitish, ularga turli laqablar qo'yish ularda agressiyani shakllantiradi. Jamiyatga qo'shilib o'z o'rinlarini topishlarida katta to'siq bo'ladi. Pedagoglar eng avvalo o'zlari bunday kishilarga chiroyli munosabat ko'rsatib, ularni qo'llab-quvvatlashlari kerak.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son, Ta'lim to'g'risida, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.
2. file:///C:/Users/user/Desktop/Mavzu\_%20inklyuziv%20ta%E2%80%99lim%20tamoyillari%20va%20ularning%20mazmuni.%20Reja\_%20I-fayllar.org.html
3. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Uzinkomsentr, 2002. – 480 b.
4. Muminova L.R., Ayupova M.Y. Logopyediya. —T., 1995. – 320 b.
5. Imkoniyati cheklangan bolalar va osmirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O'RXTV T.,19-sentyabr, 2005.

TALABA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY SHAKLLANISHIDA  
JALOLIDDIN RUMIY ASARLARINING O'RNI

*Samiyev Asroriddin Sayfiddinovich,  
Termiz davlat Pedagogika instituti  
o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD), dotsent*

*Xolmatova Gulibonu Tog'ayevna  
Termiz davlat Pedagogika instituti  
1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada Jaloliddin Rumi asarlari va hikmatlari vositasida yosh avlodga va talabalarga ta'limotarbiya berishning ahamiyati va foydali jihatlari ochib berilgan. Uning hikmatlari tahlilga tortilgan va ular yuzasidan mulohaza va xulosalar qilingan.

**Kalit so'zlar:** hikmatlar, asarlar, tarbiya, odob, til, nafs, ko'z, parda.

**Abstract.** The article reveals the importance and useful aspects of educating the young generation and students through the works and wisdom of Jalaluddin Rumi. His wisdom was analyzed and comments and conclusions were made about them.

**Key words:** proverbs, works, education, manners, language, lust, eyes, veil.

**Аннотация.** В статье раскрываются важность и полезные аспекты воспитания молодого поколения и студентов посредством трудов и мудрости Джалалуддина Руми. Его мудрость была проанализирована и по ним сделаны комментарии и выводы.

**Ключевые слова:** пословицы, произведения, воспитание, манеры, язык, похоть, глаза, покрывало.

Inson yashash davri davomida juda ko'p bosqichlarni bosib o'tadi. Bu davrda kimdir ma'naviy kamolot yo'lini topadi va shu yo'l zinapoyalaridan sekinlik bilan ildamlaydi. Boshqa birov esa bu yo'l ko'chasidan bo'ylab ham qaramaydi. Razolat, kibr, tovlamachilik, yolg'on, o'g'rilik, firibgarlik, ichkilik, talonchilik kabi juda ko'plab illatlar botqog'iga botib yashaydi. Ajablanarlisi hech bir inson bolasi onasidan tug'iliboq yaxshi yoki yomon bo'lib qolmaydi. Uni oilaviy muhit, atrof, jamiyat tarbiyalaydi. Qozoq yozuvchisi Abay "Nasihatlar"ining yettinchi so'zida shunday deydi: "Bola onadan tug'ilganda ikki odat bilan tug'iladi. Bin yesam, ichsam, uxlasam demoqlikdir, albatta; shuningdek, bular tanning sihat-salamatligi uchun zarur hamdir; bular bo'lmasa tanda jon ham bo'lmaydi, o'smaydi ham, quvvatga ham kirmaydi. Ikkinchisi: ko'rsam, bilsam demoqlikdir. Bola yoshligida nimani ko'rsa, shunga talpinadi, yalt-yult etib qaraydi, ko'rgan narsasini qo'li bilan ushlab, yuzi-ko'ziga yaqin olib borib suykagisi, og'ziga solib tishlagisi keladi". Darhaqiqat inson bolasi bir xil odatlar bilan tug'iladi. Hamma gap uning ulg'ayguncha bo'lgan davrda olgan tarbiyasiga bog'liq.

Bu yo'lda buyuk mutafakkirlarning hikmatli gaplari, she'rlari, o'gitlari, g'azallari, asarlari, bir so'z bilan aytganda, badiiy-ma'naviy meroslari katta maktab

vazifasini o'taydi. Shunday ulug' allomalardan, Sharq va G'arbda tanilgan, ma'naviy tarbiya va ruhiy tarbiyaning piri komillaridan biri Jaloliddin Rumiydir. U kishining hayot saboqlari, o'g'itlari, hikmatlari talaba yoshlarni tarbiyalashda, ularga o'rnak qilib ko'rsatishda juda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Hikmatlarning mavzuviy ko'lamiga qarasa, ular nafs, til, odob, qalb, imon, tarbiya, dunyo va oxirat, ishq ilohiy kabi ko'plab guruhlariga ajraladi. Eng muhim jihati ular tarbiyaga yo'naltirilgan xarakterga ega. Ularni yoshlarga tushuntirishda, talaba yoshlarga dars beruvchi pedagog ham dinu diyonatli, aytganlariga amal qiluvchi, talabalarga o'rnak bo'la oladigan kishi bo'lsa maqsadga erishish yanada oson kechadi. Rumiy haqida kelgan hikoyatlardan birida shunday deyiladi: "Jaloliddin Rumiy so'fichilikning arkonlaridan biri hisoblanadi. Ko'plab odamlar uning oldiga maslahat va dono so'zlarini tinglagani kelishgan. Bir kuni uning oldiga qo'shni ayol o'g'li bilan kelib, shunday deydi:

- Men allaqachon barcha usullarni qo'llab ko'rdim, lekin o'g'lim menga quloq solmaydi. U juda ko'p miqdorla shakar yeydi. Iltimos, bu yaxshi emasligini unga ayting. U sizning gapingizga quloq soladi, zero, sizni juda hurmat qiladi.

Rumiy bolakayga qarab, uning ko'zlaridagi ishonchni ko'rib dedi:

- Uch haftadan so'ng keling.

Ayol taajjubda edi. Axir, bu oddiy narsa-ku! Tushunmadim... Odamlar uzoq o'lkalardan o'z muammolarini hal qilish uchun kelishgan va Rumiy ularga shu zahotiy oq yordam bergan... Shunga qaramay, ayol uch haftadan so'ng keladi. Rumiy bolakayga yana qarab, deydi:

Yana uch haftadan so'ng keling.

Shunda ayolning toqati toq bo'lib, gap nimada ekanligini so'rashga qaror qiladi. Ammo Rumiy oldinroq aytganini qaytaradi. Ular uchinchi hafta kelishganda, Rumiy bolakayga deydi:

O'g'lim, maslahatinga quloq tut, ko'p shakar yema, bu sog'liq uchun zararli.

- Siz menga aytyapsizmi, boshqa yemaganim bo'lsin, deya javob berdi bolakay.

Shundan so'ng ona o'g'lidan ko'chada poylab turishini so'raydi. Bola ko'chaga chiqqach, ona Rumiydan nima uchun birinchi kuniyoq nasihat qilmagani haqida so'raydi. Jaloliddin iqrar bo'lib, o'zi ham shakar yeyishni yaxshi ko'rganligini, boshqalarga maslahat berishdan oldin, avvaliga o'zi bu odatdan voz kechishi lozim bo'lganligini aytadi. Avvaliga, buning uchun uch hafta yetarli, deb hisoblaydi, ammo adashadi...

Hikoya syujetidan kelib chiqib aytish mumkinki, inson o'zi qila olmaydigan, o'zi amal qilmaydigan ishiga boshqa birovni undamasligi, targ'ib qilmasligi kerak. Zero amal qilmaydigan gapni birovga aytish yeldek vaznsiz va qadrsiz bo'ladi.

"Inson tabassumi bilan tarbiyasini, nimaga kulgani bilan saviyasini namoyon qiladi" – bu hikmatda, kishi har narsaga kulmasligi, odob saqlashi uqtirilgan. Islomda aytilganidek go'zal tarzda qilgan tabassum bu ehsondir. Ammo bo'lar-bo'lmas hodisa va holatlarga kulish orqali kishi saviyasi pastligini ko'rsatib qo'yadi. Avvaldan ham Sharq an'alariga ko'ra ulug'lar oldida baland ovozda kulish odobsizlik va saviyasizlik hisoblangan.

“Tiliga hokim bo‘lmagan insondan – do‘st, ko‘ziga hokim bo‘lmagan insondan – yor bo‘lmas”. Bu hikmat ham yuqoridagi hikmat kabi didaktik xarakterda bo‘lib, inson tiliga erk bermasligi, agar tiliga erk beraversa, atrofida hech kim qolmasligi, yoru do‘stlarining qalbiga ozor berib qo‘yishi tushuntirilgan. Bundan tashqari, til bilan birga ko‘zni ham tiyish kerakligi aytilgan. Agar inson ko‘cha-kuyda ham ko‘zini tiyib, nomahram barchadan uzoq yurmasa, unday kishidan vafodor, sodiq yor, juft chiqmaydi. Chunki uning ko‘ziga boshqalar go‘zal ko‘rinaveradi. So‘ng ko‘z orqali nafs tuzog‘iga tushadi. Oilasidagi tinchlik ketadi. Xiyonat ko‘chasida sarson bo‘ladi. Shuning uchun ham til va ko‘zni tiyish eng yaxshi odoblardandir.

“Har til — ko‘ngilning pardasidir. Parada qimirladimi, sirlar ochiladi”.

Mumtoz adabiyotga va mumtoz asarlarga nazar tashlasak, tilni arslonga, dushmanga, qilichga, yovga qiyoslash hollarini ko‘p ko‘ramiz, ammo Mavlono Rumiylilik nozik tasvirlash qobiliyatiga ega bo‘lgan ijodkorlardandir. U kishi tilni ko‘ngil pardasiga mengzaydi. Parada bir narsa barcha ko‘rmasligi uchun to‘siq turuvchi vositadir. Kundalik hayotda ham uy ichini boshqalar ko‘rmasligi uchun derazalarga parada osiladi. Til ham shunday bir pardaki, qalb oynasiga tutilgan pardadir. Agar parada harkatga kelsa, ko‘tarlsa, u yerda yoqimsiz va ko‘rimsiz narsalar barcha ko‘rinib qoladi va natijada uning sohibi boshqalar oldida qadrsizlanadi, mavqeyeni yo‘qotadi. Shuning uchun har bir kishi tilni ehtiyotkorlik bilan ishlatmog‘i darkor. Zero o‘zi uchun koni foyda bo‘ladi.

“Til qozonning qopqog‘iga o‘xshaydi. Qimirlab hidi taraldimi, nima pishayotganini bilib olaverasan”. Rumiylilik hazratlari tilni yuqoridagi hikmatlarida pardaga o‘xshatgan bo‘lsalar, bu yerda qozonning qopqog‘iga tashbehlaydi. Bu yerda ham u qimirlashi bilan barcha sirlar oshkor bo‘lishi takroran tushuntirilgan. Bir jihatni unutmaslik lozimki, boshga keluvchi balolar ham til orqali keladi, yelkaga qo‘nuvchi “Humo” ham til vositasida keladi. Shu bois donishmand ustozlar hamisha til odobi haqida bot-bot fikr bildirishgan. Tilga ehtiyot bo‘lishni qayta-qayta takrorlashgan.

“Egri oyoqning soyasi ham egri bo‘ladi”. Bu hikmatda egri narsa hamisha egriligicha qolishi va uning soyasi ham kishilarga egri ko‘rinishi tasvirlangan. Inson doim to‘g‘ri yo‘ldan yurishga harakat qilishi kerak. To‘g‘rilikni hayotining mazmuni, dasturul amali deb bilsagina, u hayotda yutqazmaydi.

“O‘rinsiz nasihat, kishini yaralaydi”. Insonlar ayrim o‘rinlarda biror xatoga yo‘l qo‘ygan insonga juda ko‘p nasihat qiladilar. Bu hikmatda esa nasihatning ham vaqti bo‘lishini, har joyda, har qanday holatda ham kishiga nasihat qilishdan qaytarilgan. Noo‘rin qilingan nasihat aks ta‘sir qilib, insonni yana-da yomonroq tubanliklar qilishiga sabab bo‘lishi, uni yaralashi, yashashga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndirishi, maqsadlaridan og‘ishib ketishiga sabab bo‘lib qolishi ham mumkin. “...Rumiylilik adabiy faoliyati serqirra emas, lekin muhim ahamiyatga ega. Uning hikmatlari har bir qasida, g‘azal, to‘rtlik kabi ijod mahsullarida ko‘zga tashlanadi. Yuqoridagi keltirgan jumlamizga misol tariqasida ijodkorning “Masnaviy” asarini olishimiz mumkin. Unda yaxlit syujet mavjud emas, ammo keltirilgan hikoyalar hayotiy, ibratli va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Asarda shoir murakkab so‘fiyona

fikrlarni oddiy, hayotiy jumlar bilan tushuntirib bera olgan. Mavlono Rumiylar insonni o'rganadi, uning tabiati, intilishlarini kuzatadi. Insonning iymoni bilan birga uning nafs, hirs, oqibatida kelib chiqadigan tarbiyasizliklarni tahlil etadi. Bulardan qutulish yo'llarini bayon etadi..." [3]. Rumiylar insonni, uning tabiatini, yashash muhitini, imonini, nafsini, taqvosini va juda ko'plab masalalarni juda kuchli o'rgangan. Uning qarashlarini, fikrlarini, hikmatlarini, g'azallarini, asarlarini yoshlarga o'rgatish, ularni komillik sari yetaklaydi. Chunki Rumiylar asarlari va ilmiy-ijodiy merosining har bir qatrasini islom falsafasi, Qur'on oyatlari va hadisi sharifning bulog'idan ichilgan suvdan kuch olgan nozik novdalardir. Rumiylar ishq ilohiyga yetishni yashashdan eng katta maqsad deb bilgan. Ishaq ilohiy yetish uchun dastlab otasi Bahouddin Valaddan keyin ko'plab boshqa piri komillardan saboq olgan. Bu yo'lda kerak bo'ladigan barcha ilmlar sirini o'rgangan. Inson hayot kechirishi davomida unga to'g'ri yo'lni ko'rsata olish kuchiga ega bo'lgan bir yaxshi ustoz kerak bo'ladi. Sharq azaldan ham odob-axloq, e'tiqod, din, nafs, qalb, tarbiya, hurmat, havas va hasad kabi mavzularga dolzarb mavzu sifatida qaralgan. Jaloliddin Rumiylar ham bu an'anani o'z uslubida boshqalardan farqli ravishda, nozik va inja tuyg'ular tasviri, go'zal tashbehtarlar, chiroyli pand-nasihatlarni yo'li bilan davom ettirgan. Talabalarga Rumiylar ijodini ko'proq tanishtirilsa, uning asarlaridagi bosh g'oya yetkazib berilsa, bunday inson hayot yo'lida kam qoqiladi. Qoqilgan vaqtida ham tezda turish va yo'lida davom eta olish imkonini topadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jaloliddin Rumiylar. Nay nolasi. – Toshkent, 2017.
2. Jaloliddin Rumiylar. Ichindagi ichindadir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
3. Mavlono Jaloliddin Rumiylar hikmatlarining tarbiyaviy jihatlari // O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konferensiya materiallari, – Toshkent, 2020. № 18, 8-qism, 145-147 – B.
4. Jaloliddin Rumiylar. Masnaviy. Guliston, 1998. hikmatlar.uz sayti

## ПРОФИЛАКТИКА САХАРНЫМ ДИАБЕТА

*Елназарова Лайло Некмуродовна,  
Нуриллоева Шаходат Нурилло кизи  
Врач, +99-8-91-419-99-85  
Республиканский Научный Центр  
Экстренный Медицинской помощи  
Бухарский филиал, Узбекистан*

**Аннотация.** Сахарный диабет считается одной из важнейших медико-социальных проблем во всем мире, потому как стоит в тройке лидеров самых опасных заболеваний для человеческого организма после сердечно-сосудистых и онкологических заболеваний

**Ключевая слова:** сахарный диабет, гексокиназа, профилактика, фитотерапия

**Abstract.** Diabetes mellitus is considered one of the most important medical and social problems throughout the world, because it is one of the top three most dangerous diseases for the human body after cardiovascular and oncological diseases

**Key words:** Diabetes mellitus, hexokinase, prevention, herbal medicine

**Annotatsiya.** Qandli diabet butun dunyoda eng muhim tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi, chunki u yurak-qon tomir va onkologik kasalliklardan keyin inson tanasi uchun eng xavfli uchta kasallikdan biridir.

**Kalit so'zlar:** qandli diabet, geksokinaza, profilaktika, o'simlik dori

На сегодняшний день по-прежнему наблюдается тенденция роста сахарного диабета, данная болезнь наблюдается у молодого населения стран, к сожалению, Узбекистан не является исключением. На сегодняшний день в Казахстане насчитывается около 400 тысяч человек официально стоящих на учете у эндокринологов с данной патологией. В Республике Узбекистан в настоящий момент в перечень лекарственной помощи Обязательного Социального Медицинского Страхования включены практически 30 наименований препаратов для лечения СД: от бигуанидов до инсулинов последних поколений и их сочетаний с антагонистами ГПП- По данным ВОЗ, около 70% населения мира в настоящее время применяют лекарственные травы в качестве дополнительной или альтернативной медицины, в лечении примерно 75% пациентов целесообразно применять препараты растительного происхождения. Зачастую, большинству квалифицированных врачей не хватает необходимых знаний по фармакологии растительных лекарственных средств, в особенности, об их потенциальных лекарственных взаимодействиях с синтетическими препаратами. Это является одной из причин почему назначение фитопрепаратов больным находится на низком уровне. В разработках сбора для лечения сахарного диабета предложен алгоритм выбора лекарственного растительного сырья для сбора, включающий: вещества, способствующие активации гексокиназы,

содержащие хром, обладающие антиоксидантной активностью и мочегонным действием. Внутри фитопрепараты рекомендуется принимать за 15-20 мин. до еды, если нет других указаний. Курс фитотерапии в среднем длится около месяца. Растительные сборы действуют медленно. Только через 2-3 недели, как правило, человек замечает улучшение, а полный эффект может появиться лишь через 2-3 месяца. При длительном приеме фитопрепаратов (примерно 6 месяцев) возможно достижение стойкого результата терапии. Наиболее часто в практике фитотерапии используются водные извлечения из растительного лекарственного сырья - настои и отвары. Фитотерапия в комплексе с основными методами лечения в нынешних тенденциях вызывает широкий интерес медицинского сообщества. На сегодняшний день проводятся клинические и доклинические исследования по совместимости и эффективности синтетических и растительных препаратов, что очень важно для развития доказательной терапии при различных заболеваниях.

Цель: Изучение проблемы сахарного диабета. Анализ сравнения информированности студентов бакалавриата и ускоренных групп и работников аптечных организаций о растительных сахароснижающих препаратах. Проведение ознакомительной профилактической работы среди обучающихся и молодежи.

Материалы и методы исследования: Студенты 1-5 курса и ускоренные группы факультета лечебного БухГосМИ. Поперечный метод исследования путем анкетирования среди студентов и работников аптечных организаций.

Результаты исследования. Было проведено анкетирование среди студентов (61) бакалавриата, ускоренных групп факультета лечебного БухГосМИ и работников аптечных организаций (68) г. Анкеты состояли из вопросов, которые отражали – информированность студентов и работников аптечных организаций о растительных сахароснижающих средствах и общую осведомленность о фитотерапии. По результатам анкетирования, было установлено, что: 80% студентов ознакомлены со статистикой диабета, в свою очередь, 70% работников аптечных учреждений ознакомлены с данной статистикой. Большинство опрошенных студентов относились нейтрально к фитотерапии, а работники аптечных учреждений относились положительно. 10% студентов и 35% фармацевтов интересовались растительными сахароснижающими препаратами самостоятельно. 75% опрошенных работников аптечных организаций рекомендуют фитопрепараты в качестве вспомогательного лечения к основной терапии, больше половины опрошенных студентов не рекомендуют. Подавляющее большинство 79% фармацевтов ознакомлены с технологией приготовления настоев и отваров в домашних условиях, в то время как 70% опрошенных студентов на данный вопрос дали отрицательный ответ. Практически все фармацевты отметили несколько препаратов, многие студенты отмечали единично. Весомая часть (около четверти) всех опрошенных студентов не ознакомлены с фитопрепаратами для лечения сахарного диабета. В сравнении выбора курса лечения фармацевты выбирали более достоверный

вариант. Значительная часть медицинских работников и студентов знакомы или частично знакомы с фармакологией (совместимость, дозы, фармакокинетика и фармакодинамика) растительных препаратов.

Ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) – мамлакат иқтисодий фаолиятининг муайян давр (ой, чорак, йил) давомидаги умумий натижаларини тавсифлайдиган кўрсаткич. Ушбу кўрсаткич иқтисодий ўсишнинг муайян давр мобайнида реал ЯИМ ҳажмининг ижобий томонга ўзгаришини кўрсатади. Иқтисодий ўсиш суръатлари ЯИМ ўсиш суръатларида ўз аксини топади.

Ўсиш суръати – бу жорий йилдаги реал ЯИМ билан базис йилдаги реал ЯИМ ўртасидаги фарқнинг фоизда ифодаланган базис йилдаги реал ЯИМ га нисбати. Иқтисодий ўсиш кўрсаткичи – бу бутун мамлакат ёки аҳоли жон бошига реал ЯИМнинг ўсиш суръати. Бундан ташқари мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражасини ўлчаш учун бир қатор кўрсаткичлардан фойдаланилади. Буларга қуйидагилар киради:

ЯИМ ва аҳоли жон бошига тўғри келадиган миллий даромад

- миллий иқтисодиётнинг тармоқ тузилиши;
- аҳоли жон бошига асосий турдаги маҳсулотлар ишлаб чиқариш;
- аҳолининг ҳаёт даражаси ва сифати;
- иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари.

Агар ўсиш қўшимча ресурсларни жалб этиш ҳисобига амалга оширилса, экстенсив иқтисодий ўсиш деб аталади. Бундай ўсишда жамиятдаги ресурслардан фойдаланиш унинг чекланганлиги доирасидаги муаммоларга ҳам бориб тақалиб, экстенсив ўсишнинг имкониятларини чеклайди. Бугунги кунда мамлакат миқёсидаги иқтисодий ўсиш натижаларини интенсив ўсиш тури билан боғлиқ амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Иқтисодий ўсиш турлари Интенсив ва Экстенсив турлари бўлиб, ишчи кучининг ўсиши Фойдаланиладиган маҳсулотлар сифатини яхшилаш капиталнинг ўсиши ресурслардан фойдаланиш усуллариини такомиллаштириш, технологияларни такомиллаштириш, реал капитал сифатини ошириш, ишчи кучи сифатини ошириш, ишлаб чиқариш ва сотишни ташкил этиш ҳамда бошқаришни такомиллаштириш ер майдонларини кенгайтиришдан иборат. Ресурслар чекланганлиги шароитида интенсив ўсиш самарали ҳисобланади. Фантехника тараққиёти ҳам интенсив иқтисодий ўсишни рағбатлантиради. Кейинги йилларда бир қатор ижтимоий кўрсаткичлар иқтисодий ўсиш шarti

ва натижаси тарзида қаралмоқда. Ишлаб чиқариш соҳасида — бандликнинг юкобий динамикаси; тақсимот соҳасида — аҳолининг реал даромадлари ва бошқалар бир қатор кўрсаткичлар динамикаси; айирбошлаш соҳасида — савдо ва умумий овқатланиш моддий базасининг ривожини, чакана савдо айланмаси динамикаси; истеъмол соҳасида — истеъмолнинг ва ноишлаб чиқариш жамғаришнинг ўсиши шундай кўрсаткичларга киради. Иқтисодий ўсишнинг асосий ижобий томони — унинг ишлаб чиқариш ва истеъмол тузилмаси ўзгаришларига таъсир кўрсатишидир. Бироқ, бугунги кунда бу иқтисодий ўсишнинг замонавий тенденциялари тобора кенг ривожланиб бормоқда. Аниқроғи, хорижий инвестицияларни жалб этиш муҳим чоратадбирлардан бирига айланмоқда. Энг ривожланган мамлакатларнинг иқтисодий жиҳатдан ўсишида ҳам хорижий инвестициялар муҳим рол ўйнаган. Демак, ҳозирги замонавий ёндашувларга кўра, иқтисодий ўсиш самарадорлигини оширувчи асосий омил инвестициядир. Айниқса хорижий инвестиция ҳар қандай давлатнинг миллий ривожланишига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатмоқда. Чунки асосий капитални ўстириш, инсон капиталини жамғариш, техника тараққиётини биргаликда қўллаш натижасида таркибий ўзгаришлар амалга ошади. Улар негизида эса молиявий маблағлар ётади. Бу жараён инвестиция асосида амалга оширилади. Бугунги кунда мамлакатимизда техника тараққиётини ўстириш, янги технологияни иқтисодиётга олиб кириш ва инсон омилини замонавий малака-қўникмалар билан таъминлаш учун иқтисодиётга хорижий инвестицияларни киритишни кенгайтириш зарур. Улар ўз навбатида меҳнат унумдорлигининг ўсиши ва барқарор ўсиш давомийлигига ҳамда унинг ижтимоийлашувига, натижада, ресурстежамкор тизим шаклланиши билан барқарор ўсиш сифатининг ошишига олиб келади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Глазьев С., Байзаков С., Ершов М., Митяев Д., Фетисов Г. К устойчивому росту – через справедливый мировой экономический порядок. // Российский экономический журнал, М. 2012, №2. -С.57-75; Глазьев С. Снова к альтернативной системе мер государственной политики модернизации и 38 Муаллиф ишланмаси 293 развития отечественной экономики (предложения на 2013-2014 гг.). // Российский экономический журнал, М. 2013, №3. -С.3-37.
2. Губанов С.С. Темпы роста и воздействие на них государства. // Экономический рост и вектор развития современной России. / Под ред. К.А.Хубиева. –М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2004. -С. 39.
3. Миронов В.В., Коновалова Л.Д. О взаимосвязи структурных изменений и экономического роста в мировой экономике и России. Вопросы экономики. 2019; (1):54-78. <https://doi.org/10.32609/0042-8736-2019-1-54-78>
4. Экономический рост и инновации: теория, практика и моделирование. // Колл. авт. под общей редакцией С.Чепель. –Т.: 2010; Влияние экономического роста на сокращение доли малообеспеченного населения Узбекистана. / Колл. авт. под ред. С.Чепель. – Т.: 2012.

5. Каюмова И.О. Ўзбекистонда иқтисодий ривожланишнинг янги сифат босқичи жараёнларини эконометрик тадқиқоти. Иқт. фан. док. дис. –Т.: 2012. - 289 -б.
6. Босчаева З.Н. Управление экономическим ростом. –М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2004. -С. 74-75.
7. Лавров Е.И., Капогузов Е.А. Экономический рост: теории и проблемы: учебное пособие. –Омск: Изд-во ОмГУ, 2006. -С. 69-70.
8. Шодмонов Ш.Ш., Гафуров У.В. Иқтисодиёт назарияси (дарслик). –Т.: «Фан ва технологиялар», 2005. -491-б.

## BOSHLANG`ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Urakova Shoxista Urakovna*  
*Samarqand viloyati Jomboy tumani*  
*18-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi*  
[uraqovashohista@gmail.com](mailto:uraqovashohista@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish haqida so`z yuritilgan. Shuningdek, boshlang`ich sinflarda interfaol metodlar, ularning turlari, boshlang`ich sinflarda qo`llash usullari zamonaviy texnologiyalarining ta`lim jarayonidagi o`rni, umumiy o`rta ta`lim maktablarining boshlang`ich sinf o`qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** boshlang`ich sinflar, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, ta`lim jarayoni, axborot texnologiyalari, ko`nikma, malaka.

**Абстракт.** В данной статье рассказывается об использовании интерактивных методов в начальных классах. Также проанализированы интерактивные методы в начальных классах, их виды, роль современных технологий в образовательном процессе, методы, используемые в начальных классах, возможности использования современных педагогических технологий учителями начальных классов общеобразовательных школ.

**Ключевые слова:** начальные классы, интерактивные методы, педагогическая технология, учебный процесс, информационные технологии, навык, квалификация.

**Abstract.** This article talks about the use of interactive methods in primary classes. Also, interactive methods in primary classes, their types, the role of modern technologies in the educational process of the methods used in primary classes, the possibilities of using modern pedagogical technologies by primary school teachers of general secondary schools analyzed.

**Key words:** primary classes, interactive methods, pedagogical technology, educational process, information technology, skill, qualification.

Bugungi kunda o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o`qituvchilar turli interfaol metodlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod – ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati ta`sir ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari– norasmiy bahs– munozaralar o`tkazish, o`quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o`qish, o`rganish, seminarlar o`tkazish, o`quvchilarni tashabbus ko`rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo`lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Ta`lim o`qituvchi va o`quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo`lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi.

Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Darhaqiqat, boshlang'ich ta'limda bola shaxsining aqli, dunyoqarashi, savodxonligi, mantiqiy tafakkuri, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, o'qish darslarida bola borliq, atrof-muhit bilan tanishadi, yaxshini yomondan ajratishni anglaydi, vatan tuyg'usini his qiladi. Ko'rganini va o'qiganini qayta hikoyalash ko'nikmasi shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziquvchanligi va bilishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda pedagogik va axborot texnologiyalaridan darslarda samarali foydalanish bugungi kun pedagoglaridan zamon bilan hamnafas bo'lishni talab qiladi. Bu borada "Tushunchalar tahlili", "Charxpalak", "Zinama-zina" singari metodlar bilan bir qatorda "O'zim tekshiraman", "Bo'lishi mumkin emas", "Ortiqchasini top", "Juftini top" singari didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. "Tushunchalar tahlili", "Charxpalak", "Zinama-zina" metodlarida boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha o'quv fanlarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanilganida juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash mumkin.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim, ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan.

Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi, ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim.

Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta'lim jarayoniga AKT'ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. O'z faoliyatimizda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida AKT'dan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribam an'anaviy dars doirasida AKT'ni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ular o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot texnologiyalari

imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, o'qitilayotgan fanni o'zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang'ich ta'limni o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. Matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob- kitobli o'yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi soddalari yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanoq o'quvchining og'zaki nutqini rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshirishga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga olib keladi. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun RTM tomonidan yaratilgan "Sanashni o'rganamiz", "Alifbo saboqlari", "Aljabr", "5x5", kabi elektron dasturlar o'zining qiziqarliligi, o'quvchilar yoshiga mosligi, foydalanish uchun soddaligi, intellektual salohiyatni rivojlantirish, mantiqiy mushohada yuritishga chorlashi bilan ahamiyatlidir. "Sanashni o'rganamiz" - boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan elektron o'quv vositasi. Mazkur elektron dars ishlanma orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari 4 amalni bajarish ko'nikmasini hosil qilish bilan birgalikda kompyuterning "sichqoncha" qurilmasidan foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi. "Aljabr" - 1-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Dastur orqali o'quvchilar 10 ichida raqamlashni, tartiblashni, qo'shish va ayirish amallarini bajarishni, taqqoslashni o'rganadilar. Dastur o'quvchiga og'zaki misol yechishning avtomatik darajada o'zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi" da turli janrdagi badiiy va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Sizga ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi.

Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, ob'ektiv mazmun va sub'ektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, asar ustida ishlashni

muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqelar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondoshilgandagina asarga haqqoniy baho berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asaming g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosidir. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim dasturlaridan xabardor bo'lish imkonini beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish, ilovalarini har bir darsda qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash yanada rivojlanadi. Aytishimiz joizki interfaol va zamonaviy metodlar, axborot kommunikativ vositalarning boshlang'ich sinf darslarida qo'llanilishi o'quvchilarda zamonaviy va kreativ fikrlashga sabab bo'ladi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'yin ijodiylik bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy faol xarakter «ijodiy maydoni» ga ega bo'ladi. O'yin – bu faoliyat, jarayon va o'qitish metodidir. O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta'lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llaniladi. O'yinlarga bir necha misollar keltirish mumkin: «zinapoya», «izohli lug'at», «rolli o'yinlar», «6x6 metodi», «fikrlar hujmi», «aqliy hujum» va h.k. Ta'limda didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon dila bilan mashq qiladilar, materialni yaxshi o'zlashtiradilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012.
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008

3. B.X.Xodjayev. —Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. —Sano-standart nashriyoti. Toshkent – 2017. 92-bet.
4. 4.T.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. —Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. —IQTISOD-MOLIYA 2009. 106-bet.
5. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998. 6 –son, -12 – 24 betlar.
6. Abdurahmanova N., Jumaev M., O'rinboeva L. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. -T.: «Istiqlol», 2004, - 65 bet.
7. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: «O'qituvchi», 2003. – 23 – 48 bet.

---

## ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI KAFEDRALARINING AXBOROT ALMASHINUVINI AVTOMATLASHTIRISH ALGORITMI

*Hakimov Muzaffarbek Maribjon o`g`li*

*Andijon mashinasozlik instituti*

*Intellektual boshqaruv va kompyuter tizimlari fakulteti*

*Axborot tizimlari va texnologiyalari yo`nalishi 4- kurs talabasi*

*Isayev Bahodirjon Maxamatshoyevich*

*Ilmiy rahbar. Andijon mashinasozlik instituti*

*Axborot texnologiyalari kafedrası katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon mashinasozlik instituti kafedralarining axborot almashinuvini avtomatlashtirish algoritmi haqida so`z yuritilgan. Shuningdek, axborotlashgan jamiyatni shakllantirishda axborot tizimlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbiq etishning nazariy, xam amaliy asoslari, ya`ni texnologiya, axborot texnologiyasi, rivojlanish bosqichlari, axborot, tizim, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tasnifi, ularning axborot, dasturiy, texnologik ta`minoti, kompyuter tarmoqlari, axborot xavfsizligi masalalari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** axborot almashinuvi, avtomatlashtirish algoritmi, ta`lim tizimi, boshqaruv tizimi, loyiha, axborot texnologiyasi, axborot, tizim, boshqaruv tizimi, dasturiy va texnologik ta`minoti, elektron xujjat almashuv, kompyuter tarmoqlari.

**Abstract.** This article talks about the algorithm of automation of information exchange of departments of Andijan Institute of Mechanical Engineering. Also, the theoretical and practical foundations of applying modern information technologies to information systems in the formation of an information society, i.e. technology, information technology, stages of development, information, system, classification of automated information systems, their information, software, technological support, computer networks, information security issues are highlighted.

**Key words:** information exchange, automation algorithm, educational system, management system, project, information technology, information, system, software and technological support, electronic document exchange, computer networks.

**Абстракт.** В данной статье рассказывается об алгоритме автоматизации информационного обмена кафедр Андижанского машиностроительного института. А также теоретические и практические основы применения современных информационных технологий к информационным системам при формировании информационного общества, т.е. технологии, информационные технологии, этапы развития, информация, система, классификация автоматизированных информационных систем, их информация, программное обеспечение, технологическое обеспечение, компьютерные сети, освещены вопросы информационной безопасности.

**Ключевые слова:** обмен информацией, алгоритм автоматизации, образовательная система, проект, информационные технологии, информация, система, система управления, программно-технологическое обеспечение, электронный документооборот, компьютерные сети.

Bizning yurtimizda ilmiy texnik yuksalishning asosiy omili bo'lgan avtomatlashtirishni yanada rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasining barcha yo'nalishlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va loyihalashni avtomatlashtirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda avtomat sexlarga o'tish masalalarida yirik o'zgarishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Ta'lim tizimini yaxshilash maqsadida ham avtomatlashtirish vositalarini keng qo'llash hozirgi kunda ko'zda tutilgan eng muhim maqsaddir.

Axborot tizimi (AT) — axborotni saqlash, qidirish va qayta ishlash uchun mo'ljallangan, axborotni ta'minlovchi va tarqatuvchi hamda tegishli tashkiliy resurslar (inson, texnik, moliyaviy va boshqalar) tizimidir. AT axborotga ehtiyojmand odamlarni o'z vaqtida to'g'ri ma'lumot bilan ta'minlash, ya'ni ma'lum bir predmet doirasidagi aniq axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirish, axborot tizimlarining faoliyat ko'rsatish natijasi esa axborot mahsulotlari — hujjatlar, axborot massivlari, ma'lumotlar bazalari va axborot xizmatlaridir.

Axborot tizimlarini o'rganish amaliy soha bo'lganligi sababli, sanoat amaliyotchilari axborot tizimlarini tadqiq qilishdan darhol amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan topilmalar yaratishni kutishadi. Biroq, bu har doim ham shunday emas, chunki axborot tizimlari tadqiqotchilari odatda amaliyotchilar kutganidan ko'ra, xatti-harakatlar muammolarini chuqurroq o'rganadilar. Bu axborot tizimlarini o'rganish natijalarini tushunishni qiyinlashtirishi va e'tirozlar(tanqid)ga olib kelishi mumkin.

Yirik tashkilotlardagi axborot texnologiyalari bo'limlari biznesda axborot texnologiyalarini ishlab chiqish, foydalanish va qo'llashga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Axborot tizimini ishlab chiqish va undan foydalanish uchun bir qator metod va jarayonlardan foydalanish mumkin. Ko'pgina ishlab chiquvchilar ATni tizimli ravishda bosqichma-bosqich ishlab chiqish uchun tizimni ishlab chiqish hayotiy sikli (SDLC) kabi tizim muhandisligi yondashuvidan foydalanadilar. Tizimni ishlab chiqish hayotiy siklining bosqichlari rejalashtirish, tizim tahlili va talablar, tizimni loyihalash, ishlab chiqish, integratsiya va sinovdan o'tkazish, amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatishdan iborat. Yaqinda olib borilgan tadqiqotlar butun inson ishtirokchilarining o'zlari tomonidan tashkilot ichida bunday tizimlarning doimiy, jamoaviy rivojlanishini ta'minlash va o'lchashga qaratilgan. Axborot tizimi uyda (tashkilot ichida) yoki outsorsing orqali ishlab chiqilishi mumkin. Bunga ayrim komponentlarni yoki butun tizimni outsorsing qilish orqali erishiladi. Bunda muayyan holat bu rivojlanish guruhining geografik taqsimoti (offshoring, global axborot tizimi) hisoblanadi.

Andijon mashinasozlik instituti kafedralarining axborot almashinuvini avtomatlashtirish ya'ni boshqaruvda AKTdan foydalanish quyidagilarga yordam beradi:

- ochik turdagi o`qituvchilar jamoasini yaratishga;
- ta`lim tizimi samaradorligini ko`tarishga;
- ta`limda xarajatlarni qisqartirishga;
- ta`lim tizimi va boshqaruvi bilan talabalar xamda o`qituvchilar orasidagi o`zaro munosabatlarni yuksalishiga.

Andijon mashinasozlik instituti kafedralarining axborot almashinuvini avtomatlashtirish ta`lim samaradorligini rivojlanishini tezlatadi, ish samaradorligini oshiradi, davlat muassasalarining ishlash quvvatini ko`taradi.

Kafedralarning axborot almashinuvini avtomatlashtirishda elektron boshqaruv usulining maqsadi va masalasi quyidagilardan iborat:

- kafedralar, o`qituvchilar jamoasi va talabalar ta`lim tizimi xizmatlaridan maksimal darajada foydalana olish;
- axborot almashinuvini avtomatlashtirishdan foydalanish yordamida ta`lim muassasasi va kafedralarda eng yuqori ish samaradorligiga erishish;
- ta`lim iqlimini yaxshilash natijasida chet el andozasidan foydalanish;
- ta`lim tizimida axborot xavfsizligini ta`minlash va demokratik rivojlanishini sharti bo`lgan erkin va teng huquqlilik ravishda informatsiyani olish, tarqatish va foydalanishning samarali tizimini yaratish.

O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimiga elektron texnologiyaning qo`llanishi va rivolanishining asosiy yo`nalishi bo`lib huquqiy-normativ bazani mukammallashtirish hisoblanadi. SHu yo`nalishdagi asosiy masalalardan biri bu elektron hujjatlarni yaratish va qo`llash borasida qonunchilik bazasini shunday yaratish lozimki, u umumiy axborot resurslar va tizimlardan foydalanish imkoniyatini, informatsiyaning konfedsionalligini, shuningdek, xodimlarning shaxsiy ma`lumotlarini saqlashga qaratilgan bo`lmog`i lozim.

Ta`lim tizimiga AKT joriy qilishda huquqlarni qayta qurishda asosiy savollar bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

- ta`lim tizimi va boshqaruv axborot resurslari va axborot tizimlaridan erkin xolatda foydalanish xuquqini xar bir o`qituvchi-professorga, xodimga joriy qilish;
- Internet tarmog`idan foydalanib ta`limga oid ishlarni olib borish huquqini ta`minlash (elektron tijorat, elektron hujjat almashuv, axborot xizmatlar);
- ta`lim tizimi tomonidan AKTdan foydalanilganda uning axborot xavfsizligini ta`minlash;
- axborot kommunikatsion tizimlarda yuritiladigan elektron xujjatlarning haqiqiylikni aniqlash qoidalarini o`rnatish;
- axborot jamoaning ya`ni kafedraning huquqlarini mukammallashtirish, chunki har bir axborot o`qituvchi elektron texnologiyani ta`lim tizimiga joriy qilganidan so`ng yangilikni sezmo`gi lozim.

Zamonaviy ta`lim tizimi bo`lib elektron hujjat ayirboshlash tizimi (EXT) xizmat qiladi. Xozirgi vaqtda O`zbekiston Respublikasida "Davlat muassasalarida elektron hujjat ayirboshlash tizimini tahlili va bahosi" dasturi ishlar qo`lga olingan. Loyixaning asosiy maqsadi mavjud EXTni barcha ustivorligini va kamchiligini uo`rgangan xolda tizimni xayotga joriy qilish qarorini qabul qiluvchi shaxslarga tushunarli ko`rinishda taqdim qilish.

Loyihaning mazmuni quyidagi masalalarning yechimidadir:

- davlat muassasalarida ish yuritish va hujjatlarning oqimini o'rganish;
- davlat muassasalariga EXTni joriy qilish huquqlarini taxlil qilish;
- davlat muassasalariga EXTni joriy qilishda kelib chiqadigan muammolarni

va xususiyatlarni aniqlash;

- davlat muassasalarida EXT joriy qilish maqsadini aniqlash;
- davlat muassasalariga EXT qo'llashdagi talablarni aniqlash;
- qo'llanilishi mumkin bo'lgan EXTni test savollaridan o'tkazish;

Loyixani amalga oshirish oqibatida quyidagi amaliy natijalarga erishamiz:

- taklif etilayotgan EXTning test natijalari asosida hisob tayyorlanadi;
- elektron ta'lim tizimi joriy qilish konsepsiyasiga EXT tanlash borasida

taklifnoma tayyorlanadi.

Xozirgi vaqtda test savollaridan o'tish uchun quyidagi EXTLari ro'yxatga olingan. Bular:

Tizimning ishlashini ta'minlash uchun kafedralararo elektron hujjat ayirboshlash infrastrukturasi yaratmoq lozim. Buning uchun:

- boshqarish uchun zarur xujjatlar bilan ta'minlash borasida normativ-huquqiy aktlar to'plash yaratish va elektron hujjatlar ayirboshlash tizimini yagona tizimga keltirish (YAEXT);

- kafedralar o'zaro hujjatlarini ayirboshlashda xujjatlarni standart mukammal shaklga keltirish;

- kafedralararo hujjat ayirboshlashda elektron lug'at va kataloglarni yaratish;

- yagona elektron hujjat ayirboshlash tizimi (YAEXT)dagi raqamli imzoni tasdiqlovchi Markaz yaratish;

- kafedralararo ma'lumotlarni ayirboshlash uchun yagona "transport" muhitini yaratish;

Hozirgi davrda axborot kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) jahon miqyosida hayotga keng qo'llanishi industrial jamiyatdan axborot jamiyatga o'tishi bilan tavsiflanadi. AKT rivojlanishi umuman ta'limiy sohalarning raqobatbardoshligini va ta'lim tizimi samaradorligini oshiradi. O'zbekiston Respublikasida AKT keng joriy etilishi uchun zaruriy shartlari bo'lib huquqiy va uyushtirish shartlari hisoblanadi, bu esa o'z navbatida hodimlarni demokratik o'zgarishlariga olib kelib o'qituvchilarni axborot resurslarni erkin olishiga, uzatishiga va tarqatishga huquq beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jessup, Leonard M.; Joseph S. Valacich (2008). *Information Systems Today* (3rd ed.). Pearson Publishing. Glossary p. 416
2. Laudon, K.C. and Laudon, J.P. *Management Information Systems*, Macmillan, 1988.
3. Алимов Р.Х., Юлчиева Г.Т., ва бошқалар "Ахборот технологиялари ва тизимлари" дарслик-Т.: ТДИУ, 2010й.
4. Гаврилов М.В. Информатика информационные технологии: Учебник для студентов вузов. - М.: Гардарики, 2006. - 655 с.

5. Гуломов С.С, Алимов Р.Х, ва бошқалар. “Ахборот тизимлари ва технологиялари” “Шарқ”, Т-2000 й.
6. Алимов Р.Х, Юлчиева Г.Т., Алишов Ш.А. “Ахборот технологияси ва тизимлари”. Маъруза матнлари. Т: - ТДИУ, 2005 й.
7. Хорошко В.А. Методы и средства защиты информации. – К.: изд.Юниор, 2003. – 504 с.
8. Косимов С.С. Ахборот технологиялари // дарслик. ТАТУ, 2007. 423 бет.

---

## ANALYSIS OF RUTIN CONCENTRATION IN DEXERICH LIQUID EXTRACT USING HIGH-PERFORMANCE LIQUID CHROMATOGRAPHY (HPLC)

*Akhmatohunova M.*

*Andijan State Medical Institute,  
senior lecturer in the 1-Department  
of Pharmaceutical Sciences.*

*Shokirov A.*

*Andijan State Medical Institute,  
master of the 1-Department  
of Pharmaceutical Sciences.*


**Abstract.** This study aims to determine the concentration of rutin in Dexerich liquid extract using High-Performance Liquid Chromatography (HPLC). Rutin, a flavonoid with numerous pharmacological properties, is widely present in plants, including those used in herbal preparations like Dexerich. HPLC analysis revealed the presence of rutin in the Dexerich liquid extract at varying concentrations. The results underscore the importance of precise analytical techniques in evaluating the composition of herbal extracts for quality assurance and therapeutic efficacy.

**Keywords:** Rutin, Dexerich, Liquid extract, High-Performance Liquid Chromatography, HPLC.

**Introduction:** Rutin, a flavonoid glycoside, is abundantly found in various plants, including fruits, vegetables, and medicinal herbs. It possesses numerous pharmacological activities such as antioxidant, anti-inflammatory, anti-diabetic, and neuroprotective effects. Rutin has gained attention in herbal medicine due to its potential therapeutic benefits. Dexerich is a liquid herbal extract marketed for its purported health-promoting properties, containing a variety of herbal ingredients, including rutin-rich plants. However, the concentration of rutin in Dexerich has not been extensively studied. High-Performance Liquid Chromatography (HPLC) is a widely used analytical technique for the quantitative determination of various compounds, including flavonoids like rutin. In this study, we aimed to analyze the concentration of rutin in Dexerich liquid extract using HPLC.

**Materials and Methods:** Dexerich liquid extract samples were obtained from a reputable manufacturer. HPLC analysis was performed using a Agilent Technologies' HPLC 1260 Infinity equipped with a 150 mm Zorbax Eclipse XDB-CN. The mobile phase consisted of MeOH and Phosphate bufer 85:15, Rutin standard (purity > 98%) was used for calibration. The HPLC conditions were optimized for the separation and quantification of rutin. The injection volume was 20 microlitr, and the flow rate was 1 ml/min. The detection wavelength was set at 210 nm. Analysis time is 5 minutes.

**Results:** HPLC analysis revealed the presence of rutin in the Dexerich liquid extract. There is other compounds in the extract also. The retention time of rutin was found to be 1.408 in the standard solution and 1.399 in the tested solution. The concentration of rutin in Dexerich liquid extract was determined to be 0.5056 mg/mL.




=====  
 Area Percent Report  
 =====

Sorted By : Signal  
 Multiplier : 1.0000  
 Dilution : 1.0000  
 Use Multiplier & Dilution Factor with ISTDs

Signal 1: DAD1 A, Sig=210,4 Ref=off

Peak #	RetTime [min]	Type	Width [min]	Area [mAU*s]	Height [mAU]	Area %
1	1.399	BV R	0.0489	30.09850	8.48496	5.1830
2	1.741	BB	0.0524	269.23926	77.72019	46.3629
3	2.407	BB	0.0857	281.38306	49.96651	48.4541

Totals : 580.72081 136.17167



=====  
 Area Percent Report  
 =====

Sorted By : Signal  
 Multiplier : 1.0000  
 Dilution : 1.0000  
 Use Multiplier & Dilution Factor with ISTDs

Signal 1: DAD1 A, Sig=210,4 Ref=off

Peak #	RetTime [min]	Type	Width [min]	Area [mAU*s]	Height [mAU]	Area %
1	1.408	VV R	0.0529	59.53034	14.96611	100.0000

Totals : 59.53034 14.96611

**Discussion:** The presence of rutin in Dexerich liquid extract confirms the utilization of rutin-rich plants in its formulation. The determined concentration of rutin provides valuable information regarding the potential bioactivity of Dexerich. Rutin, with its well-documented pharmacological properties, may contribute to the therapeutic effects attributed to Dexerich. However, further studies are warranted to elucidate the exact contribution of rutin and other constituents to the overall efficacy of Dexerich.

**Conclusion:** In conclusion, this study demonstrates the presence of rutin in Dexerich liquid extract using HPLC analysis. The determined concentration of rutin provides important insights into the composition and potential therapeutic effects of Dexerich. HPLC serves as a valuable analytical tool for the quality control of herbal extracts, ensuring their potency and consistency.

**Bibliography**

1. Kwon YI, Vatter DA, Shetty K. Evaluation of clonal herbs of Lamiaceae species for management of diabetes and hypertension. *Asia Pac J Clin Nutr.* 2006;15(1):107-118.

2. Lee YS, Kim SY, Lee SH, Kim JY, Kim CJ, Oh YS, Kim YS, Lee HK. Protective effect of onion extract on bleomycin-induced cytotoxicity and genotoxicity in human lymphocytes. *J Environ Biol.* 2008;29(2):199-204.
3. Li J, Huang H, Feng M, Zhou W, Shi X, Zhou P, Li Y, Zhang Z. Separation and identification of flavonoids in the traditional Chinese medicine-Huangqin by off-line two-dimensional high-performance liquid chromatography coupled with tandem mass spectrometry. *J Chromatogr B Analyt Technol Biomed Life Sci.* 2007;850(1-2):168-175.
4. Pumthong G, Asawanonda P, Leelapornpisid P. The efficacy of topical (3%) green tea ointment on acute radiation skin reaction in breast cancer patients: a randomized controlled trial. *J Med Assoc Thai.* 2013;96(5):605-612.
5. Sarker SD, Nahar L. Natural medicine: the genus *Angelica*. *Curr Med Chem.* 2004;11(11):1479-1500.

## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЧИЛИГА МУВОФИҚ ФУҚАРОЛАР ЎРТАСИДАГИ ҚАРЗ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ

*Abdukadirova Sadoqatxon Abdukarimovna*  
*Fuqarolik ishlari bo'yicha Xo'jaobod tumanlararo sudi raisi*

Фуқаролар ўртасидаги энг кўп учрайдиган фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар асосан қарз шартномасидан келиб чиқадиган муносабатлардир.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 732-моддасида қарз шартномасига таъриф берилган бўлиб, унга кўра, қ1.Шартномалар турлари / Қарз]

Қарз шартномаси бўйича бир тараф (қарз берувчи) иккинчи тарафга (қарз олувчига) пул ёки турга хос аломатлари билан белгиланган бошқа ашёларни мулк қилиб беради, қарз олувчи эса қарз берувчига бир йўла ёки бўлиб-бўлиб, ўшанча суммадаги пулни ёки қарзга олинган ашёларнинг хили, сифати ва миқдорига баравар ашёларни (қарз суммасини) қайтариб бериш мажбуриятини олади.

Қарз шартномаси пул ёки ашёлар топширилган пайдан бошлаб тузилган ҳисобланади.

Ҳозирги кунда фуқаролар ўртасида қарзга берилган пулни қайтариш борасида кўплаб муаммолар вужудга келаётганлиги кузатиш мумкин.

Бу ҳолатни асосий сабаби фуқаролар томонидан пул қарзга берилса-да, бу ҳақида ё шартнома тузилмаганлиги, ё бу ҳақида қарздорнинг тилхати олинмаганлигидир.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексининг 733-моддасига мувофиқ фуқаролар ўртасида қарз шартномаси, агар бу қарзнинг суммаси базавий ҳисоблаш миқдорининг (ҳозирги кунда 223.000 сўм) ўн бараваридан ортиқ бўлса, оддий ёзма шаклда тузилиши шарт, шартномадаги тарафлардан бири юридик шахс бўлганида эса суммасидан қатъи назар, ёзма шаклда тузилиши шарт.

Қарз шартномасининг ёзма шаклига риоя қилмаслик ушбу Кодекснинг 109-моддасида назарда тутилган оқибатларга олиб келади.

Ушбу Кодекснинг 109-моддасига асосан битимнинг оддий ёзма шаклига риоя қилмаслик унинг ҳақиқий эмаслигига олиб келмайди, бироқ низо чиққан тақдирда тарафларни битимнинг тузилганлигини, мазмунини ёки бажарилганлигини гувоҳларнинг кўрсатувлари билан тасдиқлаш ҳуқуқидан маҳрум қилади.

Агар қарз олувчининг тилхати ёки унга қарз берувчи томонидан муайян сумма ёки муайян миқдордаги ашёлар топширилганлигини тасдиқлайдиган бошқа ҳужжат мавжуд бўлса, қарз шартномаси ёзма шаклда тузилган ҳисобланади.

Яъни фуқаролар ҳозирги кунда 2.230.000 сўмдан ортиқ миқдорга қарз бераётганларида бу ҳақида ёзма шартнома тузиш ёки қарз олувчини пул

олганлиги ҳақидаги тилхатини олишлари лозим. Бу билан улар қарз юзасидан низо келиб чиққан тақдирда берилган пул маблағларини қайтариш ҳақида судга мурожаат қилиш ҳуқуқи пайдо бўлади.

Чунки Фуқаролик процессуал Кодексининг 189-моддаси 1-қисми 6-бандига асосан судга даъво ариза билан мурожаат қилишда даъвогар ўз талабига асос қилиб кўрсатаётган ҳолатлар ва даъвогар томонидан баён қилинган ҳолатларни тасдиқловчи далилларни даъво ариза кўрсатиши ва арз қилинаётган талабларга асос бўлган ҳолатларни тасдиқловчи ҳужжатларни даъво аризага илова қилиш лозим. Акс ҳолда даъво ариза Фуқаролик процессуал Кодексининг 195-моддаси 1-қисми 4-бандига асосан қайтарилади.

Судлар томонидан қарз шартномасидан келиб чиқадиган низолар сони ўтган йилнинг биринчи ярмига нисбатан ортгани кузатишимиз мумкин. Ўтган йилнинг биринчи ярим йиллиги давомида Андижон вилоятидаги туманлараро судлари томонидан жами 302 та фуқаролик иши кўриб тамомланиб, 265 та ҳал қилув қарори чиқарилиб, шундан 244 та даъво талаби қаноатлантирилган бўлса, жорий йилнинг ушбу даврида жами 311 та фуқаролик иши кўриб тамомланиб, 248 та ҳал қилув қарори чиқарилиб, шундан 234 та даъво талаби қаноатлантирилган. Хусусан, фуқаролик ишлари бўйича Хўжаобод туманлараро суди томонидан ўтган йилнинг биринчи ярим йиллигида қарз ундириш ҳақидаги фуқаролик ишлари бўйича 32 та ҳал қилув қарори чиқарилган бўлса, шундан 31 та ҳал қилув қарори даъво талабини қаноатлантириш ҳақидадир. Жорий йилнинг шу даврида ушбу мазмунда 20 та ҳал қилув қарори қабул қилиниб, 18 та даъво қаноатлантирилган.

Бу кўрсаткичлар Хўжаобод, Булоқбоши ва Жалақудуқ туманларида яшовчи фуқаролар ўртасида қарз муносабатлари юзасидан низолар камайганини кўрсатади.

Даъвогар В.Б. судга даъво ариза билан мурожаат қилиб, жавобгар Д.Д.дан 2.000.000 сўм асосий қарзни ундириб беришни сўраган.

Иш ҳужжатларида жавобгар Д.Д.нинг тилхатида 2018 йил 12 сентябрида В.Б.га олган 2.000.000 сўм пулни қайтариб бериши кўрсатилган.

“Агар қарз олувчининг тилхати ёки унга қарз берувчи томонидан муайян сумма ёки муайян миқдордаги ашёлар топширилганлигини тасдиқлайдиган бошқа ҳужжат мавжуд бўлса, қарз шартномаси ёзма шаклда тузилган ҳисобланади.”-деб белгиланган қонун талабига кўра жавобгарнинг ёзма тилхатнинг мавжудлиги сабабли тарафлар ўртасида қарз шартномаси тузилган ҳисобланганлиги сабабли суд даъво аризани қаноатлантириб, жавобгарнинг тилхат билан исботланган 2.000.000 (икки миллион) сўм қарзини жавобгардан ундиришни лозим топган.

Шунингдек, даъвогар А.А. судга даъво ариза билан мурожаат қилиб, жавобгар В.А.дан 2.100.000 сўмни ундириб беришни сўраган.

Суд мажлисида даъвогар А.А. даъвосини қуватлаб, жавобгарга берган 2.100.000 сўм қарзни ундириб беришни сўраб тушунтириш берди.

---

Суд мажлисида жавобгар В.А. даъвони тан олмай, ҳақиқатдан ҳам даъвогардан 2.100.000 сўм қарзга олганлигини, лекин ушбу суммани эвазига шу суммага мутаносиб буғдой маҳсулоти берганлигини, бу ҳақида даъвогарни тилхати ҳам борлигини баён қилган.

Гарчанд даъвогар суд мажлисида жавобгардан 2.100.000 сўмни ундириб беришни сўраса-да, жавобгар ушбу олган қарзини эвазига даъвогар буғдой маҳсулоти олганлигини тасдиқловчи тилхатни тақдим этган.

Суд, ишда тўпланган ҳужжатларни таҳлил қилиб, даъвогар ва жавобгарнинг тушунтиришларини, иш учун аҳамиятга эга бўлган ҳолатларни ўрганиб, қуйидаги асосларга кўра даъвони рад қилишни лозим топган.

## MUNDARIJA

*B: Falsafa. Filologiya. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. San'atshunoslik.  
Sotsiologiya. Islomshunoslik. Iqtisod. Yuridik fanlari*

<b>To'rayev E.E., Rustamova D.A.</b> Innovatsion menejment: qanday qilib tashkilotlar innovatsion g'oyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi va qo'llab-quvvatlashi mumkin?.....	2
<b>Muxtorova S.A.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yinlarning sinfdagi ahamiyati .....	9
<b>Mamajonova M.Q.</b> Texnologiya fani o'qitilishining o'ziga xos ahamiyati.....	12
<b>Shokirova G.S.</b> Tarix darslarini o'qitishda interfaol metodlarning samaradorligi .....	16
<b>Chariyev N.X., Usmonaliyev M.Sh.</b> Markaziy osiyoda XIV-XVI asr tibbiyoti ravnoqi .....	20
<b>Каримова Л.Ф.</b> Арпабодиён (anisum)нинг шифобахш хусусиятлари.....	26
<b>Мо'minov K.A.</b> Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirish metodikasi .....	29
<b>Mirzayeva Sh.Z.</b> Otorinolarologik kasalliklari bilan og'riq bolalarni aniqlashda onaning ro'lini oshirish.....	35
<b>Саидова М.С.</b> Хонқизи-соссинеллида қўнғизининг биологик аҳамияти .....	37
<b>Arifov B.F., Shokirova M.J.</b> Qo'tir kanasi-sarcoptes scabiei.....	40
<b>Arifov B.F., Po'latova N.X.</b> Intensiv hovuzlarda baliq yetishtirish .....	42
<b>Умаров А.А.</b> Банк хизмат турларини жорий этишда дастлабки тахлил жараёнларини олиб бориш йўллари .....	44
<b>G'ofurova G.B.</b> Qalblar rassomi zulfiyaxonim ijodi.....	47
<b>Allamuratov M. Sh.</b> Seytovtiń «Xalqabad» shigarmasinda seslik takirarlardıń qollaniliw ózgeshelikleri .....	51
<b>Sobirova M.O., G'apurova U.O.</b> Ikkinchi sinflarda tabiatshunoslik fanini o'tishda amaliy ishlarni tashkil etish .....	55
<b>Sarimsakova O.</b> The difficulties for 2nd graders to learn math .....	59
<b>Saydazimova Sh.F.</b> O'zbekiston uchun jahon savdo tashkilotiga a'zolik jarayoni va uning istiqbollari .....	63
<b>Abdullayeva D.N., Allaxova G.Y.</b> Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kreativ faoliyatini samarali tashkil etish .....	67
<b>Barotova Sh.O.</b> Features of the course of pneumonia disease in full-term and premature newborns .....	72
<b>Инсопов А.А.</b> Ўзбекистонда артиллерияни ривожланиш тарихи ва кадрлар тайёрлаш масаласи .....	76
<b>Dustova M.K.</b> Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning imkoniyatlari.....	84
<b>Samiyev A.S., Ko'charova D.K.</b> Imkoniyati cheklangan talabalar bilan ishlash muammosi va yechimlari .....	87
<b>Samiyev A.S., Xolmatova G.T.</b> Talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy shakllanishida Jaloliddin Rumiylarining o'rni .....	91
<b>Елназарова Л.Н., Нуриллоева Ш.Н.</b> Профилактика сахарным диабета.....	95
<b>Qoshnazarova M.D., Mirzaev M.M., Turdalieva N.Z.</b> Interior and exterior drawing trophies on the balloon.....	99
<b>Utkirov A.U.</b> So'ngi yillarda O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari .....	105
<b>Utkirov A.U.</b> Xufyona iqtisodiyotning jamiyatga ta'siri .....	110
<b>Уткиров А.У.</b> Иқтисодий ўсишнинг замонавий тенденциялари ва миллий иқтисодиётнинг юксалиши .....	113
<b>Urakova Sh.U.</b> Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish.....	117
<b>Hakimov M.M., Isayev B.M.</b> Andijon mashinasozlik instituti kafedralarining axborot almashinuvini avtomatlashtirish algoritmi.....	122

---

<b>Akhmatohunova M., Shokirov A.</b> Analysis of rutin concentration in dexterich liquid extract using high-performance liquid chromatography (HPLC).....	127
<b>Abdukadirova S.A.</b> Ўзбекистон Республикаси қонунчилига мувофиқ фуқаролар ўртасидаги қарз муносабатларини тартибга солиш .....	131